



*Cho'lpox nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-05-685-5

9 789943 056855

X.M. SHENNAYEV, G.T. XALIKULOVA
I.X. ABDURAHMONOV



**TASHQI IQTISODIY
FAOLIYAT
SUG'URTASI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**X.M. Shennayev,
G.T. Xalikulova,
I.X. Abdurahmonov**

TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT SUG'URTASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan 5231200 – «Sug'urta ishi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahlisil
olayotgan talabalar uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

*Cho'qpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent-2014*

UO'K: 368.013 (075)

KBK 65.9 (SO')8

T 30

Sh-45

Taqribchilar:

S.E. Shirinov – TMI, i.f.d.;

T.M. Saidov – «SILK ROFD INSURANCT» OAJ SK bosh direktori.

T 30 Tashqi iqtisodiy faoliyat sug'urtasi / X. Shennayev [va boshq.].
O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. – T.: Cho'lpox nomidagi NMIU, 2014. – 160 b.
ISBN: 978-9943-05-685-5

Sug'urta faoliyatini rivojlangan davlatlar sug'urta kompaniyalarining faoliyat darsajiga ko'tarish orqali xalqaro iqtisodiy aloqalarni chuqurlashtirishga, jahon bozori va xalqaro savdoning taraqqiy etishiga erishiladi. Rivojlanayotgan davlatlar o'z iqtisodiyo-tining o'sishini ta'minlashda eksportga yo'naltirilgan faoliyatni rag'batlantirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishida sug'urta tashkilotlarning o'mi beqiyos.

Darslikda tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta turlari, sug'urta risklari, yuklarni sug'urthalash, eksport kreditlarini sug'urthalash hamda ularning huquqiy asoslari yoritib berilgan.

Darslik 5231200 – «Sug'urta ishi» ta'lif yo'nalishi bo'yicha tahsil olayorgan talabalar uchun mo'ljalangan.

UO'K: 368.013 (075)

KBK: 65.9 (SO')8

ISBN: 978-9943-05-685-5

© X. Shennayev va boshq., 2014
© Cho'lpox nomidagi NMIU, 2014

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida sug'urta bozori katta o'rın va ahamiyatga ega soha bo'lib, avvalo, iqtisodiyotda ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash orqali taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sanaladi. Xususan, sug'urta bozori davlat iqtisodiyotiga salmoqli hajmdagi investitsiyalarni kiritishi bilan ham ajiralib turadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, davlat moliyaviy siyosatining maqsadi iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini muayyan chora-tadbirlar yordamida amalga oshirish asosida jamiyat a'zolarining turmush farovonligi darajasini ta'minlashdan iborat. So'ngi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida kuzatilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlari samarali moliyaviy siyosat natijasi ekanligini qayd etish zarur.

O'tgan yillar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatimiz rahbariyati va hukumati sug'urta sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashga va rivojlantirishga muntazam e'tibor berib kelyapti.

2014-yil 17-yanvarda Vazirlar Mahkamasining 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ishtirok etdi va ma'ruza qildi. Prezident o'z ma'ruzasida 2013-yilda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida erishilgan yutuqlar, mavjud kamchiliklar va muammolar haqida va 2014-yilda istiqbolli yo'nalishlar to'g'risida to'xtalib o'tdi. Jumladan, «Iqtisodiy rivojlanish sohasida erishilgan ijobiy natijalar qatorida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot 8 foizga o'sgani, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8

foizga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 foizga oshgani. Inflatsiya darajasi proqnoz ko'rsatkichidan past bo'lib, 6,8 foizni tashkil etganini ta'kidlab o'tdi.

Ijtimoiy sohaga qaratilayotgan e'tibor sifatida davlat budjeti xarajatlari ta'kibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qolgani va u umumiylar xarajatlarning 59,3 foizini tashkil etgan»¹. Aholini ijtimoiy himoyalashda sug'urtaning o'rni beqiyosdir. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning barcha qirralarini modernizatsiya va isloh qilish sharoitida mamlakatimizning yaqin va xorij davlatlari bilan savdo-iqtisodiy munosabatlari takomillashib boradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishini rag'batlantiruvchi muhim omillardan biri sug'urta hisoblanadi. Bu holat yuqori malakaga ega kadrlar tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Sug'urta nafaqat moliya-kredit tizimining tayanchi bo'g'ini, balki milliy iqtisodiyotning keng qamrovli himoyasini ta'minlashning samarali vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi.

«Tashqi iqtisodiy faoliyat sug'urtasi» darsligi «Sug'urta ishi» ta'lif yo'nalishi Davlat ta'lif standarti talablari asosida tuzilgan. Darslikni o'rganishdan maqsad talabalarga tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladigan risklar va ularni sug'urtalash usullari, xalqaro savdo yuklarini yuklash, tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urtaning huquqiy asoslari, eksport kreditlarini sug'urtalash, investitsiya bilan bog'liq risklarini sug'urtalash, tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta turlari va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilab olish bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat. Darslikning har bir bobining yakunida keltirilgan nazorat savollari, test variantlari, masalalar darslikning ahamiyatini yanada oshiradi.

Darslik «Sug'urta ishi» yo'nalishining bakalavr va magistratura talabalariga, iqtisodiyot sohasidagi ilmiy izlanuvchilarga va ushbu sohada faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassislar foydalanishi uchun mo'ljallangan.

¹ Prezident I.Karimovning 2014-yil 17-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'islangan majlisidagi ma'ruzasi. – «Xalq so'zi» gazetasi, 2014-yil 21-yanvar.

I BOB

XALQARO SUG'URTA BOZORI VA UNING TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI O'RNI

1.1-§. Xalqaro sug'urta bozori va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni

XX asr oxirlarida jahon siyosiy va iqtisodiy tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, shak-shubhasiz globalizatsiya jarayonlarining shakllanishiga va kengayishiga turtki bo'ldi. Sobiq ittifoqning ma'muriy-buyruqbozlik va rejali iqtisodiyot tizimididan voz kechish hamda bozor munosabatlariga asoslangan yangicha rivojlanish yo'lini tanlash nafaqat MDH doirasida o'ziga xos shakl va mazmunga mos integratsiyasini, balki xalqaro miqyosda savdo-iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarning taraqqiy etishiga olib keldi. Bu holat, o'z navbatida, dunyo mamlakatlari moliya-kredit, jumladan sug'urta tizimlarining xalqaro darajada o'ziga xos bozorining shakllanishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratdi.

Jahon iqtisodiyoti tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichi hali-hanuz alohida-alohida olingan davlatlar yoki davlatlarning mintaqaviy birlashmalari (Shimoliy Amerika bitimi, Yevropa Ittifoqi va shu kabilar), iqtisodiy tizimlari bilan uzviy bog'liq. Bundan tashqa ri, jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga ayrim davlatlarning butun budjeti darajasida pul mablag'lari aylanmasiga ega transmilliy ishlab chiqarish korporatsiyalari, banklar jiddiy faoliyat ko'rsatmoqda.

Yuqorida qayd etilgan holatlar jahon iqtisodiyotining tez rivojlanib borayotgan segmentlaridan biri Xalqaro sug'urta bozoriga ham tegishlidir. Xalqaro sug'urta bozorida globallashuv jarayonlari alohida davlatlar tomonidan bu sohada qabul qilingan qonunlar-

ni xalqaro norma va standartlarga muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatayapti.

Xalqaro sug'urta bozorining rivojlanishi quyidagi omillar bilan bog'liq;

- xalqaro iqtisodiy munosabatlari, eksport-import operatsiyalari bo'yicha yuzaga kelayotgan risklarning sug'urta himoyasiga olinishi;

- ayrim davlatlarning yirik sug'urta kompaniyalari boshqa davlatlarning sug'urta bozorlarida qo'shma kompaniyalar va filiallar tashkil etish yo'li bilan ishtirok etishi;

- qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha hamkorlik;

- o'zaro tajriba almashish va xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida turli kelishuv va shartnomalarning imzolanishi. Ularda xalqaro konferensiylar uyushtirish, kadrlar malakasini oshirish kabi tadbirlarning ko'zda tutilishi va boshqalar.

Xalqaro sug'urta bozori va unda faoliyat ko'rsatayotgan yirik transmilliy sug'urta kompaniyalari jahon iqtisodiyoti rivojlanishiغا salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Masalan, 2011-yilda jahon miqyosida eng yirik hisoblangan 20 ta sug'urta kompaniyalari tomonidan 1,015 trln. AQSH dollari miqdorida sug'urta mukofotlari to'plangan. Sug'urta kompaniyalari tomonidan to'plangan sug'urta mukofotlarining katta qismi zaxiralarda to'planishini inobatga olsak, sug'urtalovchilarning investitsion jarayonlardagi ishtiroki yuqori ekanligi namoyon bo'ladi.

2012-yil boshlarida jahonning eng yirik 20 ta sug'urta kompaniyasi yalpi biznesi hajmi 8,46 trln. AQSH dollari miqdorida aktivlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Mazkur aktivlarning 5,26 trln. AQSH dollari nisbatan daromad keltiradigan obyektlarga joylashtirilgan. 2011-yil ma'lumotlariga ko'ra, xalqaro sug'urta bozorida eng yuqori investitsiya mablag'lariga ega kompaniya Fransiyaning «AXA» sug'urta guruhi hisoblanadi. Uning investitsiya portfeli 780,0 mlrd. AQSH dollarini, aktivi esa – 941,0 mlrd. AQSH

dollarini tashkil etadi. Shuningdek, 2011-yilda eng yuqori hajm-dagi investitsiya portfeliga ega kompaniyalar tarkibiga AQSHning «MetLife» va «Nippon Life Insurance» sug‘urta kompaniyalari ham kirgan. Ikkala kompaniya ham hayotni sug‘urtalashga ixtisoslashgan bo‘lib, umumiyligida sug‘urta sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalariga nisbatan aktivlarning katta qismi investitsiya obyektlariga yo‘naltirilgan.

1.2-§. Xalqaro sug‘urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlar: sug‘urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sug‘urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti va boshqalar

Xalqaro sug‘urta bozorining rivojlanishini ifodalovchi shunday ko‘rsatkichlar borki, bu ko‘rsatkichlarga asoslanib, u yoki bu davlatning xalqaro sug‘urta bozorida tutgan o‘rniga, mavqeiga baho beramiz. Aslida xalqaro sug‘urta bozori Shimoliy Amerika, Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi sug‘urta bozorlaridan tarkib topgan. Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozorining xalqaro sug‘urta bozoridagi roli nisbatan yuqori bo‘lganligi sababli mazkur qit’ada sug‘urta bozori rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlarini ko‘rib chiqamiz.

Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozori dunyoda shiddat bilan rivojlanib borayotgan bozorlardan biri hisoblandi. 2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ham davom etib kelayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozori rivojlanishiga ham o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatdi.

Shunday bo‘lishiga qaramay, Yevropa sug‘urta bozori jahoning yirik sug‘urta bozori sifatidagi o‘z mavqeyini saqlab kelmoqda. 2008-yil ma’lumotlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, Yevropa sug‘urta bozorining jahon sug‘urta bozoridagi ulushi 41,1 foizni tashkil etgan (1-jadval).

**Qit'alarning jahon sug'urta bozoridagi
salmog'i (foizda)²**

T/r	Qit'alar	2005	2006	2007	2008
1	AQSH	37,4	36,3	34,6	34,0
2	Yevropa	37,5	39,6	42,8	41,1
3	Osiyo	22,2	21,1	19,7	21,9
4	Okeaniya	1,2	1,6	1,7	1,8
5	Afrika	1,7	1,4	1,2	1,2
6	Jahon bo'yicha	100,0	100,0	100,0	100,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2005–2008-yillarda jahon miqyosida to'plangan sug'urta mukofotlarining salmoqli qismi Yevropa qit'asiga to'g'ri kelgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda Yevropa qit'asi bo'yicha yig'ilgan sug'urta mukofotlarining katta qismi, shubhasiz, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarning sug'urta bozorlariga to'g'ri keladi. Bu yerda Buyuk Britaniya sug'urta bozorining nafaqat Yevropa qit'asi sug'urta bozoriga, balki dunyo sug'urta bozorining rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini e'tirof etish maqsadga muvofiq.

Yevropa sug'urta bozorining markazida, shubhasiz, Buyuk Britaniya sug'urta bozori turadi. Buyuk Britaniya jahoning eng rivojlangan mamlakatlari qatoriga kiradi. Keyingi o'n yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatining qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarning xalqaro bozorlaridagi raqobatbardoshligi tushib ketgan bo'lsada, Buyuk Britaniyaning moliya-kredit tizimi hamon dunyoda yetakchi o'rnlardan birini egallab kelmoqda.

Sug'urta kompaniyasi uzoq muddatli sug'urta shartnomalarini tuzish yo'li bilan aholidagi vaqtincha bo'sh mablag'larini sug'urta fondiga jaib etadi. Xuddi shunday, ular korxona va banklar bilan ham mol-mulk sug'urtasi bo'yicha shartnomalar tuzib, katta

miqdorda sug‘urta fondini shakllantiradi. O‘z navbatida, sug‘urta kompaniyasi bu Fondning mablag‘larini iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltiradi.

Bozor munosabatlari asosida faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari Buyuk Britaniya iqtisodiyotining muhim strategik sohasi hisoblanadi. 2008-yilda sug‘urta kompaniyalari tomonidan yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari umumiy 157,5 mlrd. funt sterlingni tashkil etdi. Bu yalpi ichki mahsulotning 12,5 foizi demakdir. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, yig‘ib olingan sug‘urta mukofotlarini deyarli 45 foizini sug‘urta kompaniyalarining chet mamlakatlarda olib borgan sug‘urta operatsiyalariga to‘g‘ri keladi. Buyuk Britaniya to‘lov balansi strukturasini tahlil qiladigan bo‘lsak, valuta tushumlarining 50 foizi sug‘urta mukofotlari hisobiga to‘g‘ri kelganligini ko‘ramiz. Buyuk Britaniya sug‘urta kompaniyalari jahoning 43 ta mamlakatida sug‘urta operatsiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Buyuk Britaniyada sug‘urta ishini faol rivojlanishiga quyidagi omillar ta’sir qilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Birinchidan, bu yerda tadbirkorlikni erkin yuritish uchun hukumat yoki qonunchilik tomonidan eng kam nazorat tizimi joriy qilingan. Bu holat, so‘zsiz Buyuk Britaniyada faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy sug‘urta kompaniyalari uchun ham tatbiq etiladi. Hozirgi paytda, Buyuk Britaniya sug‘urta bozorida xorijiy mamlakatlarning 150 ga yaqin kompaniyalari sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirmoqda. Ikkinchidan, jahon miqyosida erishilayotgan tijorat bitimlarning anchagina qismi Angliya hissasiga to‘g‘ri keladi. Agar, tuzilgan bitimlarning ijrosi bo‘yicha e’tirozlar kelib chiqadigan bo‘lsa, sug‘urta kompaniyalari darhol bunga sug‘urta qoplamasini to‘lashadi. Bu, o‘z navbatida, biznesni xalqaro darajada rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

O‘nlab yillar davomida Buyuk Britaniyada, hamma uchun qulay bo‘lgan soliqqa tortish tizimi shakllangan. Amaldagi soliqqa tortish tizimi yirik miqdordagi zaxira jamg‘armalarini shakllantirishini va ularni investitsiya qilishni rag‘batlantiradi.

Buyuk Britaniya milliy sug‘urta kompaniyalari o‘zlarining chet mamlakatlardagi bo‘lim va filiallari orqali xalqaro sug‘urta bozorlarida ishtirok etmoqda. Xorijiy mamlakat sug‘urta kompaniyalari ni Buyuk Britaniya bozorlariga intilishi, Londonda xalqaro ahamiyatga molik sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirish va transmilliy kompaniyalarga xizmat ko‘rsatish kabi qiziqishlari bilan bog‘liq. Yuqorida qayd etganimizdek, sug‘urta kompaniyalari yig‘gan sug‘urta mukofotlarining katta qismi, ularning chet mamlakatlarda olib borgan operatsiyalari hisobidan shakllanadi. Masalan, «Royyal Inshirens» kompaniyasi sug‘urta mukofotlarining 68,4 foizi tashqi manbalardan kelib tushgan. Shuningdek, «Kommershial Union» va «Jeneral eksident» kompaniyalarining 60 foizga yaqin sug‘urta mukofotlari xorijiy mamlakatlardan kelib tushgan. Bu mablag‘larni asosiy qismi AQSH va Kanadadan kelib tushadi.

Buyuk Britaniyada sug‘urtaga aholining hurmat bilan qarashini quyidagi 2-jadval ma’lumotlaridan ham ko‘rish mumkin.


2-jadval

**Ayrim rivojlangan mamlakatlarda
to‘plangan sug‘urta mukofotlarining aboli jon
boshiga taqsimoti¹ (AQSH dollarri, 2008)**

T/r	Mamlakatlar	Jami	Hayot sug‘ur-tasi	Umumi sug‘urta
1	Shveytsariya	5740,2	3308,6	2431,6
2	Buyuk Britaniya	4484,4	3190,4	1294,0
3	Irlandiya	3921,2	2590,7	1330,6
4	Yaponiya	3825,4	3044,4	831,0
5	AQSH	3790,2	1718,0	2072,2
6	Daniya	3684,8	2342,3	1342,5
7	Fransiya	3218,7	2150,2	1058,5
8	Finlandiya	3133,5	2461,0	672,5
9	Germaniya	2285,2	1021,2	1264,0
10	Kanada	2206,2	926,1	1280,1
11	Gonkong	2174,6	1835,9	338,7
12	Tayvan	1909,0	1494,6	414,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2008-yilda alohida mamlakatlar doirasida milliy sug'urta bozorlari bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarini aholi jon boshiga taqsimlaganda dunyoda birinchi o'rinni Shveytsariya davlati egallab turibdi. Bu davlatda bir yilda bitta fuqaroning sug'urtaga sarflagan xarajatlari o'rtacha 5740,2 AQSH dollarini tashkil etgan.

Uning katta qismi, ya'ni 3308,6 AQSH dollari hayotni sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotib olishga sarflangan. Qolgan qismi umumiy sug'urta turlari bo'yicha sug'urta polislarini sotib olishga sarflangan (1-diagramma).



1-diagramma: Jahon miqyosida hayotni sug'urta qilish bozorida ayrim davlatlarning ulushi⁴.

Shveytsariyaning «svissre» qayta sug'urtalash kompaniyasi tomonidan nashr etiladigan va dunyoda sug'urta sohasida rasmiy ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha yetakchi nasharlardan biri

⁴ www.sigma.com.

«Sigma» jurnalida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, aholi jon boshiga keladigan eng ko'p to'g'ri sug'urta mukofotlari bo'yicha reytingda Buyuk Britaniya ikkinchi o'rinni egallagan. Jadvalda keltirilganidek, 2008-yilda bu mamlakat fuqarosi bir yilda sug'urta kompaniyalariga o'rtacha 4484,4 AQSH dollari miqdorida sug'urta mukofotlari to'lagan. Bu sug'urta mukofotlarining 71,1 foizi yoki 3190,4 AQSH dollari hayot sug'urtasiga to'g'ri keladi.

Darhaqiqat, Buyuk Britaniya sug'urta bozorida hayotni sug'urta qilish nisbatan taraqqiy etgan. Buni quyidagi diagramma ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2008-yili Buyuk Britaniyaning hayotni sug'urta qilish bozorida ulushi 14 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha Buyuk Britaniya dunyoda AQSH va Yaponiyadan keyingi o'rinda turibdi.

Agar diagramma ma'lumotlariga diqqat bilan e'tibor qaratadigan bo'lsak, hayotni sug'urta qilish Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa davlatlarda ham yuqori darajada rivojlanganligini ko'ramiz. Masa-lan, Fransiya davlatining hayotni sug'urta qilish bozoridagi ulushi 7 foizni tashkil etgan. Germaniyada esa bu ko'rsatkich 5 foizga teng bo'lган.

Sug'urta kompaniyalari vaqtincha bo'sh bo'lган mablag'larni, asosan sanoat, transport, savdo va boshqa aksiyadorlik kompaniyalarni rivojlanishiga yo'naltiradilar, 2004-yil ma'lumotlariga qaraganda Buyuk Britaniya sug'urta kompaniyalari London Fond birjasida ro'yxatga olingan jami aksiyadorlik kompaniyalarining 22 foiz aksiyalarini sotib olgan. Sug'urtalovchilarning o'z mablag'larini bu investitsiya obyektiga katta miqdorda sarf etishini shu bilan tushuntirish mumkinki, aksiyalar yuqori darajada foyda keltiradilar hamda sug'urta kompaniyasi aksiyadorlik kompaniyasining yirik miqdordagi aksiyasini sotib olib, ushbu kompaniya ustidan nazorat o'rnatishi mumkin. Ammo, shu bilan bir qatorda, aksiyalarning kursi pasayib ketishi bilan, sug'urta kompaniyalari katta zarar ko'rishi mumkin.

Shuni ta'kidlash zarurki, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida ham sug'urta mukofotlarining ulushi yuqori ko'rsatkichlarga ega. Bu haqda quyidagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ham bilib olish mumkin (3-jadval).

3-jadval


Ayrim rivojlangan mamlakatlarda to'plangan sug'urta mukofotlarining YIMdagi salmog'i⁵, % (2008)

t/r	Mamlakatlar	Salmog'i, %
1	Tayvan	14,13
2	Buyuk Britaniya	12,50
3	Shveytsariya	11,76
4	Yaponiya	10,47
5	Niderlandiya	9,93
6	Janubiy Koreya	9,71
7	AQSH	9,44
8	Fransiya	9,42
9	Gongkong	9,03
10	Finlandiya	8,77
11	Singapur	7,50
12	Kanada	7,09

Ma'lumotlarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, 2008-yilda alohida davlatlar miqyosida yaratilgan yalpi ichki mahsulotlar tarkibida sug'urta mukofotlarining ulushi bo'yicha jahonda eng yuqori ko'rsatkichlardan biri – Yevropa Ittifoqiga a'zo davlat Buyuk Britaniyaga to'g'ri kelgan. Ya'ni bu davlatda 2008-yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulot tarkibida sug'urta mukofotlarining ulushi 12,50 foizni tashkil etgan. Shuningdek, sug'urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i bo'yicha yuqori ko'rsatkich Shveytsariya (11,76 foiz), Niderlandiya (9,93 foiz), Fransiya (9,42 foiz) va Finlandiyada (8,77 foiz) kuzatilgan. E'tibor bilan qarasak, dunyoda alohida mamlakatlar yalpi ichki mahsulotlari tarkibida

milliy sug‘urtalovchilar tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan 12 ta davlatning 5 tasi yoki 41,7 foizi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarga to‘g‘ri keladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozori jahonda eng taraqqiy etgan bozorlardan biridir.

Agar 2008-yilda dunyo miqyosida umumiy sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlarining alohida davlatlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, bunda ham Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning o‘rni katta ekanligiga guvoh bo‘lamiz (2-diagramma).



*2-diagramma. Jalon miqyosida umumiy sug‘urtalash bozorida
ayrim davlatlarning ulushi⁶*

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2008-yilda jalon miqyosida umumiy sug‘urta bozori bo‘yicha eng ko‘p to‘plangan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha reytingda AQSHdan keyingi o‘rin Yevropa

⁶ www.sigma.com.

Ittifoqi davlatlariga tegishlidir. Masalan, jahon umumiy sug‘urta bozorida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining qariyb 6 foizi Buyuk Britaniyaga, 5 foizi Fransiyaga to‘g‘ri kelgan. Germaniya esa bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar ichida birinchi o‘rinni egallagan. Bu bejizga emas, albatta. Yevropa sug‘urta bozorida Germaniya sug‘urtalovchilari katta rol o‘ynaydi.

Buni quyidagi 4-jadval ma’lumotlari ham ko‘rsatib turibdi.

4-jadval

**Jahondagi eng yirik 10 ta qayta sug‘urta kompaniyalari to‘plagan sug‘urta mukofotlari reytingi (2007-yil)
(mln. AQSH dollar)**

T/r	Kompaniya nomi	Sof qayta sug‘urta mukofotlari	Mamlakatlar
1	Munich Reinsurance Co.	30,292.9	Germaniya
2	Swiss Reinsurance Co.	27,706.6	Shvetsariya
3	Berkshire Hathaway Re	17,398.0	AQSH
4	Hannover Rueckversicherung AG	10,630.0	Germaniya
5	Lloyd’s (1)	8,362.9	Buyuk Britaniya
6	SCOR SE	7,871.7	Fransiya
7	Reinsurance Group of America, Inc.	4,906.5	AQSH
8	Transatlantic Holdings Inc.	3,952.9	AQSH
9	Everest Reinsurance Co.	3,919.4	Bermuda
10	PartnerRe Ltd.	3,757.1	Bermuda


(1) Represens an aggregation of all syndicates participating at Lloyd’s. Source: Standard & Poor’s.

Xalqaro sug‘urta bozorida «Koloniya» (Germaniya), «Kyoln qayta sug‘urtalash jamiyati» (Germaniya) va Shveytsariya qayta sug‘urtalash jamiyati o‘z nufuziga ega va ishonchli hamkor sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2007-yilda Germaniyaning «Munich Reinsurance Co.» qayta sug‘urta kompaniyasi to-

milliy sug‘urtalovchilar tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlarining ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan 12 ta davlatning 5 tasi yoki 41,7 foizi Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarga to‘g‘ri keladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Yevropa Ittifoqi sug‘urta bozori jahonda eng taraqqiy etgan bozorlardan biridir.

Agar 2008-yilda dunyo miqyosida umumiy sug‘urta bozori bo‘yicha to‘plangan sug‘urta mukofotlarining alohida davlatlar kesimida tahlil etadigan bo‘lsak, bunda ham Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning o‘rni katta ekanligiga guvoh bo‘lamiz (2-diagramma).



2-diagramma. Jahan miqyosida umumiy sug‘urtalash bozorida ayrim davlatlarning ulushi⁶

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, 2008-yilda jahon miqyosida umumiy sug‘urta bozori bo‘yicha eng ko‘p to‘plangan sug‘urta mukofotlari bo‘yicha reytingda AQSHdan keyingi o‘rin Yevropa

Ittifoqi davlatlariga tegishlidir. Masalan, jahon umumiy sug‘urta bozorida yig‘ilgan sug‘urta mukofotlarining qariyb 6 foizi Buyuk Britaniyaga, 5 foizi Fransiyaga to‘g‘ri kelgan. Germaniya esa bu ko‘rsatkich bo‘yicha Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlar ichida birinchi o‘rinni egallagan. Bu bejizga emas, albatta. Yevropa sug‘urta bozorida Germaniya sug‘urtalovchilari katta rol o‘ynaydi.

Buni quyidagi 4-jadval ma’lumotlari ham ko‘rsatib turibdi.

4-jadval

**Jahondagi eng yirik 10 ta qayta sug‘urta kompaniyalari to‘plagan sug‘urta mukofotlari reytingi (2007-yil)
(mln. AQSH dollar)**

T/r	Kompaniya nomi	Sof qayta sug‘urta mukofotlari	Mamlakatlar
1	Munich Reinsurance Co.	30,292.9	Germaniya
2	Swiss Reinsurance Co.	27,706.6	Shvetsariya
3	Berkshire Hathaway Re	17,398.0	AQSH
4	Hannover Rueckversicherung AG	10,630.0	Germaniya
5	Lloyd’s (1)	8,362.9	Buyuk Britaniya
6	SCOR SE	7,871.7	Fransiya
7	Reinsurance Group of America, Inc.	4,906.5	AQSH
8	Transatlantic Holdings Inc.	3,952.9	AQSH
9	Everest Reinsurance Co.	3,919.4	Bermuda
10	PartnerRe Ltd.	3,757.1	Bermuda

(1) Represens an aggregation of all syndicates participating at Lloyd’s. Source: Standard & Poor’s.

Xalqaro sug‘urta bozorida «Koloniya» (Germaniya), «Kyoln qayta sug‘urtalash jamiyati» (Germaniya) va Shveytsariya qayta sug‘urtalash jamiyati o‘z nufuziga ega va ishonchli hamkor sifatida katta obro‘-e’tibor qozongan.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2007-yilda Germaniyaning «Munich Reinsurance Co.» qayta sug‘urta kompaniyasi to-

monidan 30,3 mlrd. AQSH dollari miqdorida sug‘urta mukofotlari to‘plangan va shu yili xalqaro reytingda birinchi o‘rinni egallagan. Ikkinci o‘rinda qarorgohi Shveytsariyaning Jeneva shahrida joylashgan Swiss Reinsurance Co. Qayta sug‘urta kompaniyasi egallagan.

Standart & Poorss xalqaro reyting agentligining ma’mulotiga asosan 1-yanvar 2004-yil holatiga ro‘yxatdan o‘tgan 214 ta reytingga ega qayta sug‘urtalash jamiyatlari mavjud. Ushbu qayta sug‘urtalash jamiyatlarining hayot va mulkiy qayta sug‘urtalash bo‘yicha jami yalpi mukofot 89,9 milliard AQSH dollarini tashkil etgan. Swiss Re qayta sug‘urtalash jamiyatining ma’lumotiga asosan jahon qayta sug‘urtasi bozorida jami yalpi mukofot 124 milliard AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan Germaniyaning ulushi 27%; AQSH – 24%; Angliya, Fransiya, Italiya va Yaponiyaning ulushi 34% ni tashkil etdi va qolgan davlatlarning ulushi 15% ni tashkil etdi

Germaniyada sug‘urta munosabatlarini paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq tarixga borib taqaladi. XVIII asrning birinchi yarmida tashkil topgan «Salamandra» va yong‘inga qarshi sug‘urta tashkilotlari nafaqat Germaniya hududida, balki uning tashqarisida ham faoliyat ko‘rsatganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi. Bugungi kunda Yevropaning barcha mamlakatlarida mavjud bo‘lgan avto-transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish Germaniyada 1940-yilda joriy etilgan edi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2008-yilda nemis sug‘urta tashkilotlari tomonidan to‘plangan sug‘urta mukofotlari miqdori mammakat yalpi ichki mahsulotining 6,9 foizini tashkil etgan. Bu Yevropa mintaqasida joylashgan ba’zi davlatlar, masalan, Ispaniya, Norvegiya va boshqalarning tegishli ko‘rsatkichlaridan balanddir. Sug‘urta mukofotlarini aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan salmog‘i bo‘yicha Germaniya Yevropada 15 o‘rinni egallaydi. Germaniya da bir kishiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti miqdori 2285,2 AQSH dollarini tashkil etadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Ikkinci jahon urushi boshlangunga qadar, nemis sug‘urta tashkilotlari Yevropa miqyosida va dunyoning boshqa mamlakatlarida ko‘plab filial va vakolatxonalarga ega bo‘lgan. Ikkinci jahon urushidan so‘ng esa, ular ichki bozorda sug‘urta xizmatlarini ko‘rsata boshlagan. Faqat o‘tgan asrning 70-yillariga kelib, nemis sug‘urta tashkilotlari chet mamlakatlarda filiallar tashkil etishga kirishdi.

Germaniya sug‘urta bozorida xorijiy sug‘urta kompaniyalari ning ulushi doimo yuqori bo‘lib kelganligini alohida ta’kidlash zarur. Agar, 1974-yilda mamlakatda 49 ta chet mamlakatlarga tegishli sug‘urta tashkilotlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2008-yilga kelib ularning soni bir necha baravar oshgan. Shuningdek, so‘ngi yillarda nemis sug‘urta tashkilotlari xalqaro sug‘urta bozorida mustahkam o‘rnashib olish maqsadida o‘z filiallari va vakolatxonalari sonini ko‘paytirdi. 2008-yilda dunyoning 17 ta mamlakatida Germaniya sug‘urta tashkilotlari 130 ta bo‘lim va filiallarga ega bo‘lgan.

Gemaniyadagi eng yirik sug‘urta tashkilotlaridan biri – «Alyans Aksiengeselhaft xolding» kompaniyasidir. U dunyodagi kuchli 20 ta sug‘urta tashkilotlari jumlasiga mansub. Ushbu sug‘urta tashkiloti 1890-yilda tashkil topgan bo‘lib, u 1910-yillardayoq yirik sug‘urta tashkilotiga aylandi. O‘tgan asrning 20–30-yillarida «Allyans» guruhi (ba’zi adabiyotlarda uni qisqacha shunday nom bilan atashadi) bir nechta sug‘urta tashkilotlari yutib oladi va hozirgi paytda ham bu jarayon davom etmoqda. Guruh nemis sug‘urta bozoridagi 18 ta kompaniyaning nazorat aksiyalari paketiga ega. «Allyans» guruhi uy hayvonlaridan tortib zamonaviy havo laynerlarini va atom elektr stansiyalarini ham sug‘urtaлашга qodir.

Nemis sug‘urta bozorida faoliyat ko‘rsatayotgan yana bir katta va nufuzli tashkilotlardan biri – «Myunxener Ryuk» qayta sug‘urta qilish kompaniyasidir. U dunyodagi eng yirik 10 ta qayta sug‘urtaловчи kompaniyalar qatoriga kiradi. «Myunxener Ryuk» 1880-yili tashkil etilgan. Hozirgi paytda kompaniya dunyoning 135 ta mamlakatida o‘z faoliyatini olib boradi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi paytda Germaniya sug'urta tashkilotlari bir qator muammolarga ro'para kelayotganligiga qaramasdan, nemis sug'urta bozori Yevropa mamlakatlari ichida katta nufuzga ega. 2008-yil ma'lumotlariga qaraganda, Germaniya sug'urta tashkilotlari jami 191,0 mlrd. dollar miqdorida sug'urta mukofotlarini yig'ishga muvaffaq bo'lishgan.

Germaniyada hayot sug'urtasi nisbatan taraqqiy etgan. Negaki, bu yerda hayot sug'urtasi bo'yicha to'langan sug'urta mukofotlari daromad solig'iga tortishda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadi.

Yevropa sug'urta tizimining, shu jumladan, Germaniya sug'urta tizimining xarakterli xususiyatlaridan biri aholi turmush tarzi va uning atrof-muhitga ta'siri bilan bog'liq xavf-xatarni paydo bo'lishidir. Keyingi 4 yilga mo'ljallangan istiqbolni bashorat qilish, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida katta yoshdagi aholi qatlamining jadal sur'atlarda ko'payib borayotganligini ko'rsatgan. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo 18 ta G'arbiy Yevropa mamlakatlarida 65 va undan yuqori yoshdagi aholi qatlami 2030-yil oxirlariga borib 50,0 mln. dan 70,0 mln. ga ko'payadi. Bu mehnatga yaroqli aholi sonining keskin kamayib ketishiga olib keladi. Vaziyatni bunday tus olishi ba'zi Yevropa mamlakatlarida, masalan, Germaniyada pensiya yoshidagi fuqarolarni sug'urtaviy himoyaga olishning yangi turlarini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda.

1.3-§. Xalqaro sug'urta bozorini tartibga soluvchi institutlar, normalar va standartlar

Xalqaro sug'urta bozorining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi jahon miqyosida turli tashkilotlar va muassasalarning vujudga kelishiga olib keldi. Xalqaro sug'urta bozorida ro'y berayotgan

o‘zgarishlar, alohida davlatlarlarning sug‘urta sohasi o‘tkazayotgan ishlari BMTning YNKTAD tashkiloti, Butunjahon savdo tashkiloti, Sug‘urta nazoratchilarining xalqaro assotsiatsiyasi, Kredit sug‘urtasi bo‘yicha xalqaro assotsiatsiya, O‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarining xalqaro assotsiatsiyasi, sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlarining xalqaro assotsiatsiyasi, sug‘urta tadqiqotlari xalqaro assotsiatsiyasi, aviatsiya sug‘urtasi bo‘yicha xalqaro ittifoq va boshqalar.

Mazkur xalqaro tashkilotlar ichida Sug‘urta nazorati organlarning xalqaro assotsiatsiyasi (International Association of insurance Supervision, IAIS) muhim o‘rin tutadi. Assotsiatsiya 1994-yilda tashkil etilgan bo‘lib, 2013-yil 1-yanvar holatiga unga a’zo davlatlar va yurisdiksiyalar soni 180 taga yetdi. Yurisdiksiya tushunchasi mamlakatlar, o‘z sug‘urta qonunchiligiga ega shtatlar, provinsiya va boshqa xududlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Sug‘urta nazorati organlari xalqaro assotsiatsiyasining asosiy vazifasi sug‘urta nazorati sohasidagi xalqaro tajribani o‘rganish, sug‘urta nazorati bo‘yicha standartlar, normalar ishlab chiqishdan, qolaversa, sug‘urta nazorati milliy organlari o‘rtasida tajriba almashish masalalaridan iborat.

1999-yildan boshlab assotsiatsiya o‘z safiga sug‘urta bozorining professionallarini kuzatuvchi sifatida taklif eta boshladi. Hozirgi kunda sanoat va professional assotsiatsiyalar, sug‘urtalovchilar va qayta sug‘urtalovchilar assotsiatsiyalarining 100 dan ortiq vakillari assotsiatsiyada kuzatuvchi sifatida ishtirok etmoqda. Assotsiatsiyaga ma’muriy qo‘mita rahbarlik qiladi va uning a’zolari turli qit’alar, davlat vakillaridan tashkil topgan. Assotsiatsiyada 3 ta qo‘mita faoliyat ko‘rsatadi va ular quyidagilardan iborat: texnik qo‘mita, ijroiya va budjet qo‘mitalari.

Sug‘urta nazorati organlari xalqaro assotsiatsiyasi 1999-yil dekabrida «Sug‘urtani amalga oshirish prinsiplari»ni ishlab chiqdi. U jami 9 ta prinsipni o‘z ichiga oladi va ular quyidagilardan iborat:

1. Yaxlitlik.
2. Aniqlik, harakatchanlik.
3. Aql va zakovat bilan ish tutishi.
4. Iste'molchilar uchun ma'lumotlarning ochiq-oydinligi.
5. Iste'molchilar to'g'risida ma'lumotlar.
6. Manfaatlarning qarama-qarshiligi.
7. Nazorat qiluvchi organlar bilan munosabati.
8. Da'volar.
9. Boshqaruv va nazorat.

«Sug'urtani amalga oshirish prinsiplari»ning kirish qismida quyidagi jumlalar keltirilgan: «Sug'urta nazoratini amalga oshiruvchi barcha organlarning bosh vazifasi sug'urtalovchilar ishini yuritish va moliyaviy barqarorligining yuqori standartlarini ta'minlovchi rejimni o'rnatishdan iborat». Sug'urta bozori aksariyat ishtirokchilarida sug'urta mahsulotini tushunish va baholashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi. Ular sug'urtalanuvchi tomonidan to'langan sug'urta mukofoti evaziga shartnomada ko'rsatilgan risklar sodir bo'lishi natijasida paydo bo'lgan zararlarni sug'urtalovchi tomonidan qoplanishini nazarda tutuvchi kontrakt majburiyatini qabul qiladi. Shu tufayli, sug'urtalanuvchilarga shartnomaga tuzilishidan oldin sug'urta mahsulotining mazmuni, sifati to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumot berilishi kerak.

Sug'urta nazorati organlari assotsiatsiya tomonidan ishlab chiqilgan prinsiplar sug'urtalovchi, vositachilar va iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga, binobarin, sug'urtalanuvchilarning sug'urtaga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda muhim omil bo'ladi. Prinsiplarning amaliyotda qo'llanilishi nazorat qiluvchi organlar oldidagi vazifalarning soddalashuviga imkoniyat yaratadi. Mazkur prinsiplar sug'urtalovchilar va sug'urta vositachilari uchun mo'ljalangan.

Birinchi prinsipga muvofiq sug'urtalovchilar va vositachilar so'f va to'g'ri ishlashlari shart. Ikkinchi prinsipga asosan sug'urta

mahsulotini yetkazib beruvchilar sug‘urta mahsulotini iste’molchiga yetkazishning barcha jarayonlarida e’tibor bilan professional harakat qilish lozim. Uchinchi prinsipga binoan sug‘urtalovchi va vositasi o‘z biznesini amalga oshirishda ishni aql va zakovot bilan tashkil etishi zarur. To‘rtinchi prinsip sug‘urtalovchi va vositachilar iste’molchilarga sug‘urta bilan bog‘liq qanday ma’lumotlar bo‘lsa, hammasini yetkazishi, shu tariqa sug‘urta mahsulotining shaffofligini ta’minlashi lozim. Beshinchi prinsip sug‘urtalovchi va vositachilar sug‘urta shartnomasini tuzish va maslahat berishdan oldin sug‘urta mahsuloti iste’molchisidan zarur ma’lumotlarni olishga harakat qilishi lozim. Oltinchi prinsip: sug‘urtalovchi va vositachilar manfaatlar qarama-qarshiligidan imkon qadar yiroq bo‘lishi shart. Yettinchi prinsip: sug‘urtalovchi va vositachilar o‘zlarining nazorat qiluvchi organlari bilan ochiq va o‘zaro hamkorlik qilish yo‘li bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Sakkizinchi prinsip: sug‘urtalovchilar va vositachilar da’volarni tartibga solish hamda ularni qayta ishlash tizimiga ega bo‘lishi lozim. To‘qqizinchi prinsip: sug‘urtalovchi va vositachilar o‘z ishlarini samarali tashkil etishi va nazorat qilishi zarur.

2003-yil oktabrida Sug‘urta nazorati organlarining xalqaro assotsiatsiyasi «Sug‘urta va metodologiyaning asosiy prinsiplari» ni tasdiqladi. Mazkur hujjatda sug‘urta nazorati samaradorligini oshirishning muhim prinsiplari va ularni qo‘llash bo‘yicha tushuntirishlar keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 8-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining sug‘urta nazoratchilari xalqaro uyushmasiga kirishi to‘g‘risida»gi 202-sonli Qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi mazkur xalqaro tashkilotga a’zo bo‘ldi. Hozirgi paytda Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta nazorati davlat inspeksiya-si xodimlari Sug‘urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasining yig‘ilishlarida ishtirok etib kelmoqda.

Nazorat savollari:

1. «Xalqaro sug'urta bozori» tushunchasiga ta'rif bering?
2. Xalqaro sug'urta bozorining rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
3. Xalqaro sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik 20 ta sug'urta kompaniyasining faoliyati haqida so'zlab bering?
4. Xalqaro sug'urta bozorining rivojlanish darajasining asosiy ko'rsatichilarini izohlab bering?
5. Xalqaro sug'urta bozorida Yevropa sug'urta bozorining o'rni qanday?
6. Xalqaro sug'urta bozorining ravnaq topishida Buyuk Britaniya sug'urta bozori qanday rol o'yнaydi?
7. Xalqaro sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng yirik 10 ta qayta sug'urta kompaniyasi faoliyati to'g'risida nimalarni bilasiz?
8. Germaniyada sug'urta biznesining rivojlanishi va uning xalqaro sug'urta bozoriga ta'siri haqida gapirib bering?
9. Xalqaro sug'urta bozorini tartibga soluvchi asosiy tashkilotlarni sanab bering?
10. Sug'urta nazoratchilari xalqaro assotsiatsiyasi qachon tuzilgan va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
11. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sug'urta nazoratchilarining xalqaro assotsiatsiyasiga qachon a'zo bo'lган?

II BOB
**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
SUG'URTANING ZARURLIGI VA
UNING IQTISODIY MOHIYATI**

**2.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda
sug'urtaning rivojlanishi**

Milliy iqtisodiyotimizning eksport salohiyati jadal sur'atlarda rivojlanib, jahonda tobora raqobatbardosh xususiyat kasb etmoqda. Eksport sohasi korxonalar faoliyatining eng muhim yo'naliishiga, butun iqtisodiyotimizning rivojlanish natijalarini baholash mezoniga aylandi. Bugungi kunda, deyarli, ko'pgina tarmoq va korxonalarimiz tashqi iqtisodiy faoliyatga to'liq jalb etilgan bo'lib, tashqi bozorlarni faollik bilan o'zlashtirmoqda. Bu haqidagi Prezidentimiz Islom Karimov 2013-yilning 18-yanvar kuni bo'lib o'tgan «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi»da ta'kidlab o'tganidek: «Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'limgan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy səvdo 1 milliard 120 million dollardan oshdi».

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy bo'lgan eksport hajmining yuqori ko'rsatkichlarda o'sishi biz uchun an'anaviy resurslar bo'l mish Paxta tolasi, qimmatbaho metallar va turli xomashyo yetkazib berish hisobiga emas, balki asosan avtomobillar, neft-kimyo va metall mahsulotlari, mineral

o'g'itlar, ip-kalava va gazlama, trikotaj mollari, sim-kabel elektr vositalari, qurilish materiallari va boshqa shu kabi ko'plab eksport tovarlari hajmi va turlarini ko'paytirish evaziga ta'minlanmoqda. Buni eksport hajmida tayyor mahsulotlar va xizmatlarning ulushi 53 foizdan oshgani, oq oltin tolasining ulushi esa sezilarli darajada kamaygani ham yaqqol tasdiqlaydi.

Respublikamizda tashqi iqtisodiy faoliyat hajmini oshirishga ta'sir etuvchi omillar turlicha bo'lib, ulardan biri sug'urtadir. Eksport qiluvchi korxonalar o'z mahsulot va xizmatlarini tashqi bozorlarda sotish jarayonida ko'pgina risklarga duchor bo'ladilar. Mazkur risklar siyosiy va tijorat xarakterida bo'lib, ularning sodir bo'lishi oqibatida eksportyorlar jiddiy talofat ko'rishi mumkin. Sug'urta ana shu ko'rilgan zararlarni o'rmini qoplash yo'li bilan o'z tovar va xizmatlarini eksport qiluvchi korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Eksport risklarini sug'urta qilish bo'yicha milliy sug'urta kompaniyalarimiz, xususan, «O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekinvest» kompaniyasi xorijiy investorlar va milliy eksportchilarga investition va tadbirdorlik faoliyati jarayonida ularning manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlash tizimini yaratmoqda.

Shu sababli, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini aniqlash mezonlari tizimini shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan har bir subyektlarning moliyaviy barqarorligini baholash to'lovga qobililik ko'rsatkichi orqali yondashiladi.

Rivojlangan mamlakatlarda subyektlarning moliyaviy barqarorligini baholash to'lovga qobililik konsepsiysi orqali amalga oshiriladi. To'lovga qobililik ma'lumotlari va boshqa qator ko'rsatkichlar asosida sug'urta tashkilotlarining reyting ko'rsatkichlari ishlab chiqiladi.

Bunda, bir tomondan, iqtisodiyot subyektlarining sug'urtaviy himoyasining ishonchli tashkil etilishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, u mamlakatda sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun asos bo'ladi.

Bu borada kompaniya asosiy strategik maqsadlariga erishishi muhimligini tushungan holda o'zining jadal rivojlanishini, raqobatbardoshliligin, sug'urta faoliyatining daromadliligin va samaradorliligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning barqaror o'sishini ta'minlash siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Bozorning moliya infratuzilmasini shakllantirish va iqtisodiyotda sug'urta o'rnni oshirish davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanayotganligi natijasida «O'zbekinvest» kompaniyasi sug'urta bozorida o'z mavqeyini mustahkamlash va barqarorlشتirishga erishdi.

«O'zbekinvest» kompaniyasi, milliy qayta sug'urtalash bozorini rivojlantirish tashabbuskori sifatida, milliy hamda xalqaro bozorlarda qayta sug'urtalash operatsiyalarni va o'zaro manfaatli biznes aloqalarni amalga oshirmoqda. Bu unga jahon sug'urta bozoridagi ilg'or tajribalardan unumli foydalanish imkonini bermoqda.

Xalqaro sug'urta ishiga nisbatan kompaniya siyosati nafaqat sug'urtani tadbirkorlik faoliyatining turi sifatida rivojlantirish, balki u, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik ko'magining muhim dastagi ekanligini tushunishga asoslanilgan holda olib borildi.

Kelgusida kompaniya xalqaro korporatsiya darajasiga erishish uchun yetakchi xorijiy sug'urta va qayta sug'urta kompaniyalari, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, o'z infratuzilmasi bo'yicha faol ish olib borishni mo'ljalamoqda.

Xalqaro sug'urta hamjamiyati bilan faol hamkorlik qilish natijasida kompaniya eksport sug'urtasi sohasida ilg'or tajribadan foydalangan holda milliy eksportda, respublika xo'jalik subyektlari, kichik va xususiy tadbirkorlik vakillari manfaatlari bilan bog'liq qator tadbirlarni amalga oshirmoqda. Masalan, oktabr oyida Toshkent shahrida xalqaro texnologiya, tovar va xizmatlar bozorlarida milliy ishlab chiqaruvchilarning eksport mahsulotlarini samarali taqdim etish strategiyasini ishlab chiqishga ko'maklashish bo'yicha, «Eksport mahsulotlarini taqdim etishga ko'maklashish masalalari» mavzusida birinchi xalqaro anjuman o'tkazilishidir. Mazkur anjuman O'zbekiston Respublikasi Tashqi

iqtisodiy aloqalar vazirligi bilan hamkorlikda kompaniya tomonidan tashkil etilgan.

«O'zbekinvest» eksport-import milliy sug'urta kompaniyasi doimiy ravishda «zamonaviy innovatsion sug'urta kompaniyasi» degan tavsifga mos bo'lishi uchun tashkil etilgandan buyon o'z faoliyatiga alohida e'tibor qaratib axborot texnologiyalarini tatbiq etish borasida tashkiliy-texnikaviy kadrlar va moliyaviy asoslarni yaratdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Oliy Qonunchilik organi tomonidan «Axborotlashtirish to'g'risida»gi, «Elektron imzo to'g'risida»gi, «Elektron hujjatlar almashinushi to'g'risida»gi va «Elektron tijorat to'g'risida»gi kabi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonni xalqaro axborot jamiyati integratsiyasiga kirib borishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Xalqaro sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta kompaniyalari orasidagi munosabatlар sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunlarga rioya qilgan holda, bozor talablari asosida faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda Respublika sug'urta bozorida xorij sug'urta kompaniyalarining bo'limlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Xorij sug'urta kompaniyalari va, shuningdek, davlatlar o'rta-sida tashqi savdo operatsiyalarni faollashtirishga ko'maklashuvchi xorijiy banklar hamda mamlakatlar eksport-kredit agentliklari bilan birgalikda moliyalashtirishning va sug'urtalashning turli sxemalarini amalda qo'llanmoqda. Bu, albatta, mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga keng yo'l ochib beradi.

2.2-§. Xalqaro sug'urta hamjamiyati va u bilan hamkorlik qilish natijalari

Mustaqillik yillarda O'zbekiston dunyodagi ko'pgina mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'matdi va jahon iqtisodiy integratsiyasiga borgan sari faol jalb qilinmoqda. Shuningdek, rivoj-

langan davlatlar bilan o‘zining xo‘jalik aloqalarini kengaytirmoqda, o‘zaro foydali savdo-iqtisodiy kelishuv shartnomalarini tuzmoqda.

1936-yilda Xalqaro savdo palatasi «International Chamber of Commerce – ICC» tovar yetkazib berishning tijorat shartlarini sharhlash xalqaro qoidalarining majmui belgilangan hujjatni ishlab chiqdi. Ushbu shartlar «INKOTERMS–1936» degan nom bilan shuhrat qozondi. 1990-yilda ana shu qoidalariga, ularni shakllangan xalqaro savdo amaliyotiga muvofiqlashtirish maqsadida o‘zgarish va qo‘shimchalar kiritildi.

INKOTERMS–1990 xalqaro savdo palatasi (Baynalminal xalqapo savdo tijorat shartlari) ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib, unda tovar yetkazib berish tijorat shartlarining sharhlangan xalqaro qoidalari majmui belgilab berilgan.

Tovar yetkazib berish shartlarini INKOTERMS–2010 ga binoan aks ettirish O‘zbekiston Respublikasida tuziladigan kontraktlarga qo‘yiladigan asosiy talablardan biridir. Xalqaro bozorda tijorat va tadbirdorlik faoliyatini olib borish turli xavf-xatarlar bilan bog‘liq. Boshqacha aytganda, xalqaro iqtisodiy faoliyatni turli risklarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Risk – oldindan bilib bo‘lmaydigan voqeа, hodisaning ro‘y berish ehtimoli.

Bunday tusdagи hodisalarning ro‘y berishi natijasida xalqaro iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari moddiy zarar ko‘rishlari mumkin.

Chet eldagи aksariyat yirik ishlab chiqarish korxonalari risk bilan kurashish va ko‘riladigan zararlarni mumkin qadar kamaytirish maqsadida o‘zlarining maxsus bo‘limlariga ega.

Bu bo‘limlarning asosiy maqsadi ehtimoldagi ko‘riladigan har bir zararni eng kam darajada kamaytirishga qaratilgan. Misol uchun, eng yirik «Xyoxt» (Hoechst AG) Germaniya konserni korxonasi o‘zining boshqarish tuzilmasida 35 ta xodimdan iborat bo‘lgan sug‘urtalash bo‘limi faoliyat olib boradi. Xodimlarning ish

faoliyati, asosan, markazlashtirilgan yo‘nalishdagi xalqaro bozorlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan riskni o‘rganishga qaratilgan.

Chunki, korxona ishlab chiqargan tovar maxsulotining deyarli 80 foizi chet el bozorlarida sotiladi va ular sug‘urta himoyasiiga olingan. Shu sabab konsern turli sug‘urta kompaniyalariga yiliga 300 million evro miqdorida sug‘urta mukofoti o‘tkazib turadi. Shundan 40 foizi unga tegishli bo‘lgan ikkita sug‘urta kompaniya-sining hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyat yo‘nalishida ish olib borayotgan barcha davlatlar va shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) savdosi yo‘nalishida sodir etilishi mumkin bo‘ladigan barcha sug‘urta risklarning oldini olish bo‘yicha risk konsepsiyalari ishlab chiqildi. Bu xalqaro iqtisodiy faoliyat yuritish dasturining asosiy qismlaridan birini tashkil etadi.

Xalqaro yo‘nalishlarda tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sug‘urta-lashni O‘zbekiston Respublikasida «O‘zbekinvest» eksport-import milliy sug‘urta kompaniyasi amalga oshiradi. «O‘zbekinvest» kompaniyasi 1997-yil fevraldan boshlab O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qaroriga binoan eksport kreditlarini sug‘urtalash bo‘yicha davlat agentligi sifatida vazifalarni bajarishga kirishdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug‘urtalash kompaniya faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanib, xorijiy bozorlarda milliy eksportchilarning siyosiy va tijorat risklaridan sug‘urtaviy himoyalashni nazarda tutadi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyat yo‘nalishida ish olib borayotgan barcha davlatlar va shu bilan bir qatorda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshiriladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) savdosi yo‘nalishida sodir etilishi mumkin bo‘ladigan barcha sug‘urta risklarning oldini olish bo‘yicha risk konsepsiyalari ishlab chiqildi.

Tayanch tushunchalar

Anderrayter – turli risklarni sug‘urtalash vakolatiga ega, sug‘urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Uning vazifasi quyidagi-lardan iborat:

- 1) Anderrayter sug‘urta kompaniyasining sug‘urta portfelini shaklla-nishi uchun javob beradi. U sug‘urta shartnomalarini tuzish, risklarni ba-holash va sug‘urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo‘lishi zarur;
- 2) Lloyd sug‘urta polislarini beradigan, Lloyd sug‘urta korporatsiyasini a’zosi;
- 3) potensial mijozlarga sug‘urta polisini sotish bilan shug‘ullanadi-gan yoki manfaatdor tomonlarga sug‘urta sohasi bo‘yicha yuqori daraja-da maslahat xizmatlarni ko‘rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

Audit – sug‘urta kompaniyasining moliyaviy hisoboti to‘g‘riligini yozma ravishda tasdiqlash va tekshirish. Audit ishini maxsus malakaga ega bo‘lgan auditorlar amalga oshiradi. Auditorlik firmasi bilan sug‘urta kompaniyasi o‘rtasida shartnoma tuziladi. O‘zbekiston Respublikasi-da audit ishini Moliya vazirligining litsenziyasiga ega bo‘lgan shaxslar amalga oshirishi mumkin. Sug‘urta kompaniyasining balansi auditorlar tomonidan tekshirilgandan so‘ng matbuotda e’lon qilinadi.

Bosh polis – sug‘urta kompaniyasi va sug‘urtalanuvchi o‘rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug‘urtalanu-vechi barcha obyektlarni sug‘urta kompaniyasiga sug‘urtalash uchun be-radi. Chet el tajribasida bu bitim «ochiq polis» yoki «polis-abonnement» deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug‘urtalash tashqi savdo yuklari sug‘urta asosida keng tarqalgan. Sug‘urtalanuvchi sug‘urta kompaniyasiga har bir jo‘natilgan yuk haqidagi ma’lumotlar (yukning vazni, sug‘urta summasi, yukni jo‘natish va qabul qilib olish maskanlari) bayon etil-gan arizani taqdim etsa etarli, yuk avtomatik ravishda sug‘urtalangan hisoblanadi.

Brutto – stavka – sug‘urta qoplamasini (sug‘urta summasini) to‘lash- ga mo‘ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplash- ga mo‘ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o‘z ichiga olgan

sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlataladi.

Denonsatsiya – shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. *Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urtaning rivojlanishi bosqichlarini tushuntirib bering?*
2. *Jahon bozori va xalqaro savdoning rivojlanish asoslarini tushuntirib bering?*
3. *Chet el investitsiyalarining mamlakatga kirib kelishini rag'batlantirishda sug'urta kompaniyalarining o'rnini izohlab bering?*
4. *Sug'urta kompaniyalarining xalqaro yo'nalishdagi faoliyatini rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?*
5. *Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urtaning huquqiy asoslari qaysi qonuniy hujjatlarda ko'rsatilgan?*
6. *Xalqaro sug'urta hamjamiyati va u bilan haukorlik qilish natijalarini tushuntirib bering?*
7. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni sug'urtalashda qo'llaniladigan qanday terminlarni bilasiz?*
8. *Tashqi iqtisodiy faoliyatda fondli va fondsiz sug'urtalar nima ma'noni anglatadi?*
9. *Xalqaro iqtisodiy faoliyatni boshqarishda sug'urtalash turlarini izohlab bering?*
10. *Ushbu mavzu bo'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?*

Test savollari

1. **Sug'urta kompaniyalarining xalqaro yunalishdagi faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari rivojiga imkon yaratadi?**

A) Ishlab chiqarish, ayriboshlash va xo'jalik aloqalarining rivojiga

- B) Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va xususiy sektorning rivojiga
- D) Sanoat va servis sohasining rivojiga
- E) Ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va sanoat tarmog'ining rivojiga

2. O'zbekiston sug'urta bozorini isloh qilishni shakillantirishdagi asosiy omil bo'lib nima xizmat qiladi

- A) Yakka hokimlikni yo'lga qo'yish
- B) Xususiy lashtirishni yo'lga qo'yish
- D) Davlat monopoliyasini yo'qotish
- E) Kichik biznesni rivojlantirish

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta bozorini yanada erkinlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida»gi farmoni nechanchi yilda qabul qilingan?

- A) 2002-yil 31-yanvar
- B) 2002-yil 5-aprel
- D) 1998-yil 6-may
- E) 2000-yil 4-aprel

4. Xalqaro bozorlarda qayta sug'urta operatsiyalarini amalga oshiruvchi milliy sug'urta kompaniyasi qaysi?

- A) Transinsurance plus
- B) ALFA INVEST
- D) O'zbekinvest EIMSK
- E) Kafolat DASK

III BOB
**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
SUG'URTA TURLARI**

**3.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda mulkiy
sug'urta bilan bog'liq sug'urta turlari**

Xalqaro iqtisodiy faoliyatni boshqarishda sug'urtalashga asosiy o'rinn ajratiladi. Bunda uch xil sug'urtalash tizimi mavjud bo'lib, ular mol-mulk, shaxsiy, javobgarlik sug'urtasi shaklida namoyon bo'ladi.

Mol-mulk sug'urtasida ko'proq quyidagi sug'urta turlari amalga oshiriladi:

- yuklarni sug'urtalash;
- ssudani sug'urtalash;
- havo transportini sug'urtalash;
- avtomobilarni sug'urtalash;
- eksport kreditlarini sug'urtalash;
- korxona faoliyatining to'xtashi bilan bog'liq zararlarni sug'urtalash;
- chet elda mavjud mol-mulkni yong'indan sug'urtalash;
- norezidentlarning mol-mulkini yong'indan va boshqa risklardan.

Sug'urtalash;

- boshqa mol-mulklar sug'urtasi.

Javobgarlik sug'urtasida sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsiga yetkazgan zarari sug'urta obyekti bo'lib hisoblanadi. Uchinchi shaxs jismoniy va yuridik ko'rinishda ham bo'lishi mumkin. Bu javobgarlik majburiy va ixtiyoriy shakkarda amalga oshiriladi.

Xalqaro iqtisodiy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan sug'urtalari:

- avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash bo'yicha xalqaro sug'urta polisi (yashil karta tizimi);
- havo layneridagi yo'lovchilarni hamda ekipaj a'zolarini sug'urtalash;
- yuk jo'natuvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash;
- tovar ishlab chiqaruvchining javobgarligini sug'urtalash;
- bojxona brokeri javobgarligini sug'urtalash;
- advokat, yuridik firma, notarius, auditorlarning javobgarligini sug'urtalash;
- boshqa turdag'i javobgarlik sug'urtalari kabilardir.

Insonning hayoti, sog'lig'i va har bir odamning daromadi shaxsiy sug'urta obyektiga kiradi.

Bu borada ham sug'urtaning roli ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy rivojlanishni xalqaro turizm va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunda barcha faoliyat turlari kompleks sug'urtalanadi.

Kompleks turdag'i sug'urtalashda bir sug'urta polisida bir necha sug'urta turlarining qayd etilishi hamda mazkur holatning xalqaro iqtisodiy aloqlarda qo'llanilishidir.

Masalan, quruvchi tadbirkorning qurilish-montaj ishlarida sodir bo'ladigan sug'urta riskida himoyalash bo'yicha beriladigan sug'urta polisi. Bunday sug'urta polislari qurilish jarayonlarida mulklarning yo'qolib ketishi yoki obyektlarning zararlanishi, shu bilan bir qatorda, mashinalarni o'rnatish yoki ularni demontaj qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha risklar sug'urtaviy himoya qilinadi.

Bu omil obyektlar ishga tushirilganidan keyingi davrda, uchinchi shaxs tomonidan yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarning sug'urta javobgarligini kafolatlaydi (hodisa ijarochi tomonidan belgilangan muddat ichida sodir bo'lsa).

Sug'urta qoplamasи obyektning eksport shartnomasi bo'yicha ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarini o'z ichiga oladi.

«O'zbekinvest» EIMSK xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq keng turdag'i xizmat turlarini taqdim etmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- eksport shartnomalarini kompleks sug'urtalash «Xaridor krediti» ko'rinishida;
- tijorat banklarining eksport shartnomalarini «Xaridorga kredit» ko'rinishida;
- eksport shartnomalarini bekor qilinishidan.
- chaqirtirib olinmaydigan akkreditiv kafolat bo'yicha majburiyatlarni xorijiy xaridorning banki yoki kafili tomonidan bajarilmasligidan;
- xorijga chiqayotgan shaxslarning tibbiy xarajatlarini sug'urtalashdan;
- kasbiy mas'uliyatni sug'urtalashdan;
- yuk tashuvchilarni javobgarligini sug'urtalashdan;
- xorijiy investitsiyalarning sug'urtaviy himoyalashdan;
- ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini umumiy risklardan sug'urtalashdan;
- tadbirkorlik faoliyatini kompleks sug'urtalashdan;
- investitsion joyihalarni sug'urtalashdan;
- bank faoliyatini kompleks sug'urtalashdan;
- energetik qaltisliklardan sug'urtalash kabilardan iborat.

«O'zbekinvest» EIMSK yuqorida qayd etilgan faoliyat turlari bilan bir qatorda marketing va servis xizmatlarini ham amalga oshirmoqda.

3.2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda shaxsiy sug'urta bilan bog'liq sug'urta turlari

Hozirda davlatlararo ishlar va xizmatlar yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan jamiyat a'zolarining, chet el fuqarolarining salomatliklarini himoya qilish va ularning mehnat faoliyatini yaxshilash-

ni nazorat qilib borilmoqda. Bugungi kunning dolzARB masalalari dan biriga aylanib borayotgan bunday vazifani faqat tibbiy sug'urta orqali amalga oshirish mumkin.

Taraqqiy etgan mamlakatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya, Avstriya, Italiya)da sug'urtaning kengroq tarqalgan turlari qatorida tibbiy sug'urta ham rivojlangan bo'lib, unda kompaniyalar har bir davlatning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladilar.

Tibbiy sug'urtaning maqsadi fuqarolarning salomatliklariga xavf soladigan hodisa sodir bo'lsa, unga yig'ilgan mablag' hisobidan tibbiy yordam berishni kafolatlaydi. Tibbiy sug'urta tizimida fuqarolar tibbiy sug'urta kompaniyalarini tanlash, tibbiy yordam va ko'rilgan zararni undirib olish huquqiga ega bo'ladilar.

Ushbu turdag'i sug'urta mazkur mamlakatlarda mijozlarga 50 ming AQSH dollarigacha bo'lgan mas'uliyat chegarasida tibbiy xarajatlarni qoplab berishni kafolatlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda «O'zbekinvest» EIMSK taqdim etayotgan asosiy xizmatlar tibbiy xarajatlarni sug'urtalash, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash, yukni sug'urtalash, sayyoohning uchinchchi shaxs oldidagi mas'uliyatini sug'urtalashdan iborat.

O'z xizmatlarini sotish uchun kompaniya ikki yirik xalqaro safarlarni sug'urtalash jamiyatlari ELVIA (Shveysariya) va Koris (Fransiya) bilan hamkorlik qilmoqda.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urta mahsuloti kompaniya tomonidan 1998-yilda Respublika sug'urta bozorida joriy etilgan. Ushbu mahsulotni sotib olish uning egasiga mamlakatimizning eng yaxshi shifoxonalarida sifatli va malakali tibbiy yordam olishni kafolatlaydi. Taqdim etilayotgan xizmatlarni takomillashtirish maqsadida har bir mijozning ehtiyoji, imkoniyatlaridan kelib chiqib kompaniya tomonidan ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu turdag'i sug'urta turi borasida Kompaniya respublikaning qator yetakchi tibbiy muassasalari bilan shartnomalar imzolagan.

Tibbiy yordam xizmatlarini ko'rsatish hududlarini kengaytirish maqsadida Xalqaro assistans guruhi (Interneshnl Assistens Group) ga kiruvchi Global Voejr Assistans kabi korxonalar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomalar imzolanib, amalga oshirilmoqda.

«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi bilan hamkorlik to'g'risidagi Bosh kelishuv va shartnomaning tuzilganligi esa, O'zbekiston Respublikasiga kirib kelayotgan turistlarga kompaniyaning kompleks sifatli sug'urta va assistans xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Sug'urta kompaniyalari har bir sug'urtalanuvchi fuqaroning tibbiy xarajatlarini sug'urtalashda huquqiy ham moddiy javobgar hisoblanadi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, tibbiy sug'urta kompaniyalarning moliyaviy mablag'lari, davlat budjeti mablag'lari, jamoat tashkilotlari, korxona va boshqa xo'jalik subyektlari va fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisobidan tashkil topadi.

Tibbiy sug'urta tizimida sug'urta kompaniyalari mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi xo'jalik subyekti bo'lib, mulk shaklidan qat'i nazar, barcha kompaniyalar, ishlab chiqarish konserni va korporatsiyalar bilan mustaqil sug'urta shartnomasini tuzish huquqiga egadirlar.

Tibbiy sug'urta kompaniyalari o'z oldiga qo'ygan maqsadini amalga oshirishda tibbiy yordam ko'rsatuvchi tibbiyot muassasalarini erkin tanlash, ixtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha sug'urta badali, tibbiy xizmat bo'yicha tarif miqdorlarini belgilash hamda tibbiyot muassasalari va tibbiyot xodimlari tomonidan sug'urtalanuvchilarga keltirgan zarar yuzasidan sud ishini qo'zg'ash huquqlariga ega.

Tibbiy sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda o'zlarining zaxira jamg'armalaridan foydalanishlari mumkin. Faoliyat ko'rsatadigan barcha tibbiy sug'urta kompaniyalari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, o'z litsenziya va akkreditatsiyalariga

ega bo'lishlari kerak. Litsenziyalash davlat boshqaruv organlari tomonidan amalga oshirilib, tibbiy sug'urta kompaniyalarining yordam ko'rsatish faoliyatları qat'iy belgilanadi. Masalan, chet elga chiqayotgan sayyoohlar uchun ixtiyoriy tibbiy sug'urta joriy qilin-gan bo'lib, bunda tibbiy yordam ko'rsatishning tezkor amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Rivojlangan mamlakatlarda sug'urta «polney» bo'lgan sayyoohlarga chetga chiqish uchun ruxsat beriladi.

Bunday polisga ega bo'lgan sayyoohlarga quyidagi tibbiy yordam ko'rsatish uchun qilinadigan xarajatlar qoplanilishi ko'zda tu-tiladi: tibbiy shifoxonaga yotqizish; tez yordam xizmatida yetka-zish; dori-darmon sotib olish; baxtsiz hodisa sodir bo'lganda yoki to'satdan salomatligini yo'qotgan hollarda sarf-xarajatlar ham-da kamdan-kam hollarda yuz berishi mumkin bo'lgan, vafot etgan sayyooh jasadini chetdan o'zi yashab turgan davlatga yoki hududga olib kelish bilan bog'liq xarajatlar.

Tibbiy sug'urta jarayoni guvohsiz ham qo'llaniladi. Tibbiy sug'urta xarajatlari to'satdan sodir bo'ladigan tibbiy hodisalarni qoplash uchungina amalga oshiriladi.

Sayyoohlarning surunkali kasalliklarini davolash uchun tibbiy sug'urta tashkilotlari tomonidan xarajatlar qoplanmaydi (bu holat sug'urta guvohnomasini olgunga qadar aniqlangan bo'lsa). Aksari-yat sug'urta kompaniyalari o'z mijozlariga tibbiy sug'urtadan tash-qari, boshqa sug'urta turlarini ham taklif qiladilar. Shu jumladan, safarning qoldirilishi bilan bog'liq moliyaviy risk bo'yicha ham.

Sug'urta polisi bir qancha tibbiy xizmat turlari bilan ta'minla-nishi mumkin. Masalan, ambulatoriya va statsionar, stomatologik yordam, shifokor tomonidan tavsiya etilgan dori-darmonlar, qolaversa, bemorning ko'chib o'tishi bilan bog'liq bo'lgan xara-jatlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalqaro iqtisodiy faoli-yatni amalga oshirishdagi hisob-kitob munosabatlarida sug'urtaga bog'liq boshqa risklar ham mavjud. Bunday risklardan biri valuta riski deb yuritiladi.

3.3-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda javobgarlik sug‘urtasi bilan bog‘liq sug‘urta turlari

O‘zbekistonda keng qamrovli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirilishi turli mulkchilik shakllariga ega sug‘urta tashkilotlarini, vujudga kelishi bilan bir qatorda yangidan – yangi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishga shart-sharoit yaratdi. Ana shunday sug‘urta xizmatlaridan biri – javobgarlikni sug‘urta qilishdir.

Javobgarlik sug‘urtasini tashkil etishdagi asosiy jihatlardan biri, sug‘urtalanuvchining uchinchi shaxslarga yetkazgan zarari tuzilgan shartnomaga muvofiq, sug‘urtalovchilar tomonidan qoplanishidir. Bunda to‘langan sug‘urta qoplamasini aybdordan undirib olish huquqi sug‘urtalovchi ixtiyoriga o‘tishi mumkin. Ushbu huquq regress huquqi deyiladi va shartnomada shartlarida ko‘rsatiladi. Sug‘urtalovchining bunday huquqqa ega bo‘lishi «Fuqarolik kodeksi»ning 1001-moddasida ham o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra, «boshqa shaxs (mehnat majburiyatlarini bajarayotgan xodim, transport vositasini boshqaruvchi shaxs va hakozalar) tomonidan yetkazilgan zararni to‘lagan shaxs bu shaxsga nisbatan, agar qonunda boshqacha miqdor belgilangan bo‘lsa, to‘langan tovon miqdorida qayta talab qilishga haqli».

Fuqarolik javobgarligi deganda uchinchi shaxslarga zarar yetkazish va uni qoplash mexanizmi tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ning 918-moddasida quyidagilar belgilangan: «Boshqa shaxslarning hayoti, sog‘ligi va mol-mulkiga zarar yetkazilishi oqibatida yuzaga keladigan majburiyatlar yuzasidan javobgarlik xavfini sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchining o‘zi yoki bunday javobgarlik yuklanishi mumkin bo‘lgan boshqa shaxsning javobgarlik xavfi sug‘urtalanishi mumkin». Fuqaro o‘zining xatti-harakati natijasida bexosdan uchinchi shaxslarga zarar yetkazishi ehtimoldan xoli emas. Afsuski, amaliyotda yetkazilgan zarar ko‘p

holatlarda to‘liq qoplanmay qoladi. Fuqaroning uchinchi shaxslarga yetkazgan zarari sug‘urta himoyasiga olingan bo‘lsa, bunday holatda ko‘rilgan zarar miqdori sug‘urta tashkilotlari tomonidan qoplab beriladi.

Sug‘urta huquqida javobgarlik sug‘urtasini quyidagi turlarga bo‘lish qabul qilingan:

- fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish;
- kasbiy javobgarligini sug‘urta qilish;
- shartnomaga bo‘yicha majburiyatini bajara olmaslik javobgarligini sug‘urta qilish.

Fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilishda fuqarolik javobgarligi tushunchasi muhim o‘rin tutadi. Fuqarolik javobgarligi – bu qonun yoki shartnomada nazarda tutilgan yoki jabr ko‘rgan uchinchi shaxslarning buzilgan huquqlarni aybdor hisobidan qoplashda qo‘llaniladigan chora-tadbirlardir.

Fuqarolik javobgarligi mulkiy xarakterga ega bo‘lib, zarar yetkazgan shaxs, zarar ko‘rgan shaxsga ko‘rilgan zarar miqdorini to‘liq qoplashi shart. Fuqarolik javobgarligi sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha javobgarlik majburiyati sug‘urta tashkilotiga o‘tkaziladi. Yetkazilgan zarar uchun aybdor shaxs jinoiy ma’muriy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ammo, uchinchi shaxsga yetkazilgan mulkiy ziyon sug‘urta tashkiloti tomonidan qoplab beriladi. Ushbu sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta obyekti bo‘lib sug‘urtalovchining qonun yoki shartnomaga majburiyatlari bo‘yicha uchinchi shaxslarga zarar yetkazishi hisoblanadi.

Navbatdagi javobgarlikni sug‘urta qilish turlaridan biri yuk yoki yo‘lovchilar tashuvchilarning javobgarligini sug‘urta qilishdir.

Bunda transport tashkiloti, ya’ni yuk yoki yo‘lovchi tashilayotganda uchinchi shaxslarga zarar yetkazsa, yetkazilgan zarar miqdori sug‘urta tashkilotlari tomonidan qoplab beriladi. Xalqaro amaliyotda aviatsiya orqali tashuvchilarning fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish majburiy tusga ega bo‘lib, nisbatan taraqqiy

etgan. Rim Konvensiyasiga muvofiq havo kemalarining, aniqroq qilib aytganda, aviatsiya orqali yuk yoki yo'lovchi tashuvchi texnikalarini boshqaruvchilarining uchinchi shaxslar oldidagi fuqarolik javobgarligi, sug'urtalash bo'yicha shartnoma mavjud bo'lmasa havo kemalarini ishlatalish ta'qilanganadi. Varshava Konvensiyasiga muvofiq havo kemasи egasi – tashuvchi yo'lovchilarning hayoti va sog'ligiga yetkazilgan zarar uchun javob beradi.

Tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash dunyoning ko'pgina davlatlarida majburiy tusga ega. Odatda, tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash shartnomalarida quyidagi terminlar qo'llaniladi:

- sug'urtalanuvchi – sug'urta tashkiloti (sug'urtalovchi) bilan sug'urta shartnomasini tuzgan fuqaro yoki yuridik shaxs;
- sug'urtalovchi – tijorat tashkiloti hisoblanadigan va tegishli turdagи sug'urtalashni amalga oshirish uchun maxsus ruxsatnomaga ega yuridik shaxs (sug'urtalovchi tashkilot);
- sug'urta mukofoti – sug'urtalanuvchi sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan tartibda va muddatda to'lashi lozim bo'lgan, shartnomada belgilangan to'lov;
- sug'urta tariflari – sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan va u tomondan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotini belgilashda qo'llaniladigan tariflar;
- sug'urta summasi – uning doirasida sug'urtalovchi mulkiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha to'lashi lozim bo'lgan yoki shaxsiy sug'urtalash shartnomasi bo'yicha uni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga olgan summa;
- sug'urta o'mini to'ldirish – sug'urta voqeasi sodir bo'lganda sug'urtalovchi tomonidan sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanadigan summa;
- sug'urta voqeasi – sug'urta shartnomasi yoki qonunda ko'zda tutilan, u sodir bo'lganda sug'urtalovchining sug'urtalanuvchiga,

sug‘urta qilingan shaxsga yoki foydani oluvchi shaxsga sug‘urta to‘lovini to‘lash majburiyati vujudga keladigan voqeal;

– sug‘urta tavakkalchiligi – u sodir bo‘lganda, ya’ni sug‘urtalash amalga oshirilishi uchun taxmin qilinayotgan voqeal;

– sug‘urta badallari – sug‘urtalovchiga, sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta shartnomasi shartlariga muvofiq davriy ravishda to‘lab boriladigan sug‘urta mukofoti;

– sug‘urta zaxiralari – sug‘urtalovchi tomonidan olingan sug‘urta badallari hisobidan, o‘z zimmasiga olgan sug‘urta majburiyatlarini bajarish maqsadida sug‘urta turlari bo‘yicha shakllantiriladigan maxsus pul jamg‘armalari;

– foydani oluvchi – sug‘urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan shaxs;

– qayta sug‘urtalash – boshqa sug‘urtalovchi bilan tuzilgan shartnoma asosida sug‘urta o‘rnini qoplash tavakkalchiligini to‘liq yoki qisman sug‘urtalash. Bunda qayta sug‘urtalash shartnomasini tuzgan sug‘urta shartnomasi (asosiy shartnoma) bo‘yicha sug‘urtalovchi, qayta sug‘urtalash shartnomasida sug‘urtalanuvchi hisoblanadi;

– ikki yoqlama sug‘urtalash – bitta mulkni ikkita yoki bir necha sug‘urtalovchilarda sug‘urtalash;

– birgalikda sug‘urtalash – bitta obyektni bitta shartnoma bo‘yicha bir necha sug‘urtalovchilar bilan birga sug‘urtalash;

– franchiza – sug‘urtalovchini muayyan hajmdan oshmaydigan ziyonni to‘lashdan ozod qilish;

– javobgarlik limiti – bitta sug‘urta voqeasi bo‘yicha sug‘urtalovchi tomonidan to‘lanadigan sug‘urta o‘rnini qoplashning eng katta miqdori;

– tashuvchi – mulkchilik huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asoslarda temir yo‘l, suv, havo, avtomobil transportiga egalik qiluvchi hamda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq

yo'lovchilarni va ularning mulkini tashish huquqiga ega jismoniy yoki yuridik shaxs;

– yo'lovchi – uning nomidan yoki uning o'zi tomonidan tuzilgan tashish shartnomasini bajarish uchun tashuvchi tomonidan haq evaziga tashiladigan jismoniy shaxs;

– jabrlanuvchi – tashish paytida hayoti, sog'ligi yoki mulkiga zarar yetkazilgan yo'lovchi;

– yuk – yo'lovchilardan alohida tashiladigan, yo'lovchi tomonidan transport korxonasiiga topshiriladigan va, odatda, yo'lovchi transport vositalarining maxsus yukxonalarida, yuk avtobus tirkamalarida yoki yuk avtomobillarida tashiladigan, shuningdek, yo'lovchi tomonidan avtovokzalning (avtostansiyaning) omonatxonasiga topshiriladigan buyumlar;

– qo'l yuki – yo'lovchi tomonidan bepul tashiladigan, tashish uchun o'rالgan buyumlar;

– yo'nalish – muayyan maskanlar orasida transport vositasi uchun belgilangan harakatlanish yo'li;

– reys – yo'nalishning boshlang'ich nuqtasidan oxirgi nuqtasi-gacha bo'lган transport vositasining yo'li;

– tashish uchun tarif – masofa va vaqt birligi bo'yicha yo'lovchilarni tashish uchun to'lanadigan haqning hajmi;

– transport vositasi – yo'lovchilarni va yuklarni tashishda foydalilaniladigan har qanday transport vositasi;

– yo'lovchilarning hayoti va salomatligiga yetkazilgan zarar – yo'lovchini tashish paytida u duch kelgan sug'urta holati natijasida o'limi, jarohatlanishi yoki kasallanishi;

– yo'lovchining mulkiga yetkazilgan zarar – yo'lovchining yonida bo'lган yuk va buyumlarning (qo'l yukining) to'liq halokati yoki qisman shikastlanishi, shuningdek, o'g'irlanishi yoki yo'qotilishi;

Yo'lovchi tashuvchining yo'lovchilar oldidagi fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash obyekti deb, sug'urtalovchining har bir davlat fuqarolik qonunchiligi bilan belgilangan yo'lovchilarni

tashish paytida ularning hayotiga, salomatligiga va mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplashga doir majburiyatiga taalluqli mulkiy manfaat tushuniladi.

Tayanch tushunchalar

Tibbiy sug‘urta – aholi sog‘ligini himoya qilish vositalaridan biri. Sug‘urta hodisasi ro‘y berishi munosabati bilan, sug‘urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko‘rsatilishi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni sug‘urta kompaniyasi to‘laydi. Tibbiy sug‘urta majburiy yoki ixtiyoriy bo‘ladi.

Mulkiy sug‘urta – turli ko‘rinishdagi mol-mulklarni saqlash bilan bog‘liq manfaatlar sug‘urta munosabatlarining obyekti hisoblangan, sug‘urtaning mustaqil tarmog‘i. Sug‘urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog‘ida joylashgan mol-mulklar sug‘urtalanishi mumkin. Sug‘urtalanuvchi sifatida, nafaqat mol-mulkning sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas‘uliyatli bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo‘lishi mumkin.

Kargo – transport vositasida tashiladigan va sug‘urtalanishi mumkin bo‘lgan yukning nomlanishi.

Kasko – transport vositasining borti. Kasko sug‘urtasi transport vositasini boshqaruvchisining nobud bo‘lishi yoki shikastlanishini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy javobgarlik – chet el tajribasida vrachlarning, advokatlar, auditorlar, notariuslar, buxgalterlar, arxitektorlar va boshqa kasb egalari ning uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug‘uralash shartnomasini tasdiqlaydigan sug‘urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug‘ullanganlarida, ularda sug‘urta polisining bo‘lishi majburiydir.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro iqtisodiy faoliyat riskini boshqarish deganda nimani tushunasiz?
2. Riskni boshqarishdagi amalga oshiriladigan sug‘urta jarayonlari nimalardan iborat?

3. Xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq risklarni tasniflash qay tarzda amalga oshiriladi?
4. Xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq sug'urta javobgarligini sug'urta qilishni tushuntirib bering?
5. Xalqaro iqtisodiy faoliyatda valuta risklari qanday guruhlarga bo'linadi?
6. Xalqaro iqtisodiy faoliyatda valuta riskini sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?
7. Chet elda mavjud mol-mulkni sug'urtalash, norezidentlar mol-mulkini sug'urtalashni farqini tushuntirib bering?
8. Chet elga chiquvchilarni tibbiy sug'urtalash, sug'urta klassifikatorining qaysi sinfiga asosan amalga oshiriladi?
9. Chet elga chiquvchilarni tibbiy sug'urtalash qaysi sug'urta tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi?
10. Ushbu mavzu bo'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?

Mustaqil o'rghanish uchun topshiriqlar

1-masala

Sug'urta tashkiloti fuqarolarni baxtsiz hodisalardan sug'urtalashni amalga oshirmoqda. Risk sodir bo'lism ehtimoli $R = 0,05$, o'rtacha sug'urta summasi $S = 300$ ming so'm, o'rtacha sug'urta javobgarligi – 100 ming so'm, shartnomalar soni $K_0 = 5000$. Tarif stavkasidagi yuklama ulushi $N_0 = 30$ foiz, sug'urta javobgarligining o'rtacha taqsimoti = 50 ming so'm.

100 so'm sug'urta summasidan (brutto-stavka) tarif stavkasini aniqlang.

2-masala

50 yoshda va belgilangan toshga to'lash muddati 10 yil qolgan bo'lganda kechiktirib to'lash koeffitsiyenti 8,06 tashkil etadi.

Yillik tarif stavkasini aniqlang (so'mda).

3-masala

Xo'jalik subyekti o'z mol-mulkini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 800 million so'mga bir yilga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'ur-

ta summasidan 0,3 foiz. Sug'urta sharnomasi bo'yicha 1 foiz miqdorida shartli franshiza belgilangan, franshiza belgilanganligi sababli 2 foiz miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 12,5 million so'mga teng.

Sug'urta mukofoti summasi va sug'urta qoplamasini toping.

Test savollari

1. Xalqaro iqtisodiy faoliyatda sug'urtalash turlari?

- A) Mol-mulk, hayot, shaxsiy sug'urta
- B) Hayot, shaxsiy, javobgarlik sug'urtasi
- C) Majburiy, ixtiyoriy, shaxsiy sug'urta
- D) Mol-mulk, shaxsiy, javobgarlik sug'urtasi

2. Yuklarni sug'urtalash, havo transportlarini sug'urtalash, avtomohillarni sug'urtalash, eksport kreditlari sug'urtasi qaysi sug'urta turiga mansub?

- A) Shaxsiy sug'urta
- B) Hayot sug'urtasi
- C) Mol-mulk sug'urtasi
- D) Ixtiyoriy sug'urta

3. Javohgarlik sug'urtasining obyekti nima?

- A) Sug'urta kompaniyasining javobgarligi
- B) Sug'urtalanuvchining o'zi
- C) Sug'urtalanuvchining 3-shaxsga yetkazgan zarari
- D) To'g'ri javob yo'q.

4. Iason bayoti, sog'ligi va har bir odamning daromadi qaysi sug'urta turinig obyekti ho'lib hisohlanadi?

- A) Shaxsiy sug'urta
- B) Hayot sug'urtasi

- D) Ixtiyoriy sug'urta
- E) Javobgarlik sug'urtasi

5. Kompleks turdag'i sug'urthalash bu –

- A) Bitta sug'urta polisida bir necha sug'urta turlarini qayd etilishi
- B) Bir va undan ortiq sug'urta turlari bo'yicha sug'urta shartnomasiga ega bo'lish
- C) Bitta sug'urta turi bo'yicha bir necha sug'urta kompaniyalarida sug'urta polisiga ega bo'lish
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

IV BOB
**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SUG‘URTA
RISKLARI VA ULARNING TASNIFI**

**4.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda
sug‘urta risklari turlari**

Xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan risk tasnifi ikki guruhni tashkil etib, bular: korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lgan – ichki yoki korxona faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan – tashqi yo‘nalishlardir. Bu ikki guruhning bir-biridan farqi shundan iboratki, birinchi guruh bo‘yicha kelib chiqishi mumkin bo‘lgan risklarni bartaraf etish uchun korxonalar chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Ikkinci yo‘nalishdagi riskda korxonalar ta’sir o‘tkaza olmaydi, chunki u korxona faoliyatiga bog‘liq emas. Shuning bois, bu ikki ko‘rinishdagi riskning oldini olish uchun turli usuldan foydalananish mumkin. Masalan, avariya hamda yong‘in risklari yong‘inga qarshi chora-tadbirlarini amalga oshirilishini talab etadi. Reja topshiriqlari bo‘yicha ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati, hajmi bo‘yicha qo‘yilgan talablarning bajarilmaslik riskini kamaytirish maqsadida korxonalarda tashkiliy-texnologik ishlar amalga oshiriladi.

Bularning barchasi joriy reja va boshqarish tizimi orqali qayd etiladi. Yuqorida nazarda tutilgan yo‘nalishlarga qo‘sishimcha ravishida korxona rentabelligini ta’minlash va foyda olish bo‘yicha tashkiliy ishlar amalga oshiriladi. To‘lovning kechikishi riskini sug‘urta risklardan bo‘yicha sug‘urta xizmatlarni davlatlarning tegishli sug‘urta kompaniyalari amalga oshiradi. To‘lovning kechiktirilishini nazarda tutuvchi eksport kontraktlar bo‘yicha siyosiy va tijorat risklardan

sug‘urta qoplamasasi O‘zbekiston Respublikasi rezident tashkilotlari tomonidan beriladi.

Savdo tijorat risklardan sug‘urta qilish O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga binoan va «INKOTERMS» xalqaro qoidalariga muvofiq sug‘urta qilish huquqiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. To‘lovni kechiktirish shartlarida amalga oshirilayotgan birinchi darajali banklarning to‘lov majburiyatları bilan ta’milanmagan eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat risklaridan sug‘urtaviy himoyalashni «O‘zbekinvest» EIMSK, Rossiyada esa bunday xizmatlarni «Ingosstrax» ASK amalga oshiradi.

Sug‘urta kompaniyalari sug‘urtalanuvchilardan sug‘urta mu-kofotlarini olganlaridan keyin, sodir bo‘lishi mumkin bo‘ladigan sug‘urta risklarini o‘rganib chiqadi va barcha sug‘urtalanuvchi eksportyorlar hamda importyor kontragentlar bilan sug‘urta shartnomalarni imzolaydi, uning bajarilishida quyidagi sharoitlar inobatga olinadi:

- sug‘urtalovchi kontragenting to‘lov qobiliyatini o‘rganib chiqib;
- sug‘urta summasini belgilaydi. To‘lov amalga oshgan chog‘da, mazkur summa miqdorida sug‘urtalovchining sug‘urta javobgarligi nazarda tutiladi;
- sug‘urtalovchiga taqdim etiladigan sug‘urta qoplamlari su-g‘urta polisida qayd etilgan miqdordan yuqori bo‘lmaydi;
- sug‘urtalovchi tomonidan tovarni yetkazib berish va ko‘rsatiladigan xizmat turlari bo‘yicha, barcha shartnomadagi majburiyatlar bajarilganidan keyin hisobotlar taqdim etiladi hamda to‘lov ko‘rsatilgan sug‘urta muddatlarida amalga oshiriladi.

Sug‘urta shartlarida ko‘zda tutilgan tasodiflardan birontasi so-dir bo‘lgandagina, sug‘urtalovchi shartnomada kelishilgan sug‘urta summasini to‘lashga mas’ul. Ba’zi hollarda sug‘urtalovchi kontragent to‘lov qobiliyatining pasayishi to‘loving belgilangan mud-datdan kechikishiga sabab bo‘lishi mumkin. Agarda:

- bankrotlik to‘grisida ish ochilganda yoki sud tomonidan mol-mulkning yetarli emasligi bois rad etilganda;
- qarz beruvchi va qarz oluvchi tomonlar o‘rtasida bankrot-likning oldini olish maqsadida o‘zaro kelishuvlarga erishilganda;
- ikki tomon sudga murojaat qilmay qarzlarni qisman qaytarish bo‘yicha shartnomaga kelishuviga erishganda;
- sud qarori bo‘yicha sug‘urtalanuvchidan qarz undirilishi amalga oshirilganda, to‘lovga noqobililik davri boshlandi deyiladi.

Sug‘urtalovchilar to‘lov qobiliyatlarini ta‘minlash uchun aktivlar va o‘z zimmalariga olgan sug‘urta majburiyatları o‘rtasidagi me’yoriy nisbatlarga rioya etishlari shart.

Sug‘urta tashkilotining to‘lovga qobililik ko‘rsatkichlari o‘rganilganda, korxona barqaror muhitda ekanligiga ishonch hosil qilish muhim vazifalardan sanaladi. Sug‘urtalash amaliyotida shu narsa ma’lumki, sug‘urta faoliyatida majburiyatlar bo‘yicha to‘lov qobiliyatigina emas, balki vaziyat o‘zgargan yoki noxush hollarda ham majburiyatni bajarish imkoniyatini belgilovchi omil hisoblanadi.

Xalqaro savdo yo‘nalishida to‘lovga qobililik darajasi sug‘urta tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini yuzaga kelishini ta‘minlaydi, ya’ni har qanday vaziyatda sug‘urta tashkilotlari majburiatlarni ta‘minlashi lozim bo‘ladi. Xalqaro sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarilishi bilan belgilanadi.

4.2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug‘urta risklarini boshqarish

Xalqaro iqtisodiy faoliyatni boshqarishdagi risk muammolari korxona faoliyatiga tegishli bo‘limgan sabablarga bog‘liq bo‘lib, shuning uchun ham bu holat xalqaro risk deb ataladi.

Xalqaro risk bilan bog'liq zararlarni kamaytirishni quyidagi gruhlar ko'rinishida ifodalash mumkin:

- sug'urtalashda – turli sug'urta guvohnomalaridan foydalanish;
- sug'urta shartnomalarida hamda xalqaro savdo – iqtisodiy munosabatlarda qo'llaniladigan sug'urta shartnomalari;
- birjadagi fyucher shartnomalari va opsonlarni amalga oshirish usullari (xedjirlash),
- turli hisob-kredit munosabatlarini qo'llash uslubiyati. Bu yuborilgan tovarlar haqini to'lamaslik ehtimoli riskini kamaytirish yoki to'langan miqdorda tovarlarni olmaslik. Masalan, tasdiqlangan hujjatli akkreditiv, har xil bank kafolatlari, garov to'lovleri va boshqalar,
- xalqaro bozor konyunkturasining tahlili va bashorati (talab, taklif, baho). Bu korxona ko'radigan katta miqdordagi zararlar ehtimolining oldini oladi va o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda yoki amalda boshqa xomashyo resurslaridan foydalanish hisobiga yondashadi.

To'loving kechikishi riskini sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlarni davlatlarning tegishli sug'urta kompaniyalari amalga oshiradi. To'loving kechiktirilishini nazarda tutuvchi eksport kontraktlar bo'yicha siyosiy va tijorat risklardan sug'urta qoplamasi O'zbekiston Respublikasi rezident tashkilotlari tomonidan beriladi.

Tayanch tushunchalar

Risk – bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarning og'irligi, riskni ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutlaq tugatishni imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk-riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'inidisidir. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jum-

ladan, risk – bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamlalar to'laydi. Risk sug'urta obyekti bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Obyektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. Shu tufayli risk – bu yagona tasodify hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga, irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini hosil etadi. Risk bahosining puldag'i ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi. Bular sug'urta obyekti va sug'urta javobgarligining turini ifodalaydi.

Risk menejmenti – riskni kamaytirish hamda chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish.

Riskli holatlар – risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlар sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasining sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida, sug'urta qoplamlari va summlarini to'lashda muhim o'rinn tutadi. Riskli holatlар: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan; obyektiv va subyektiv turlarga bo'linadi.

Risklarni tanlash – sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatalish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejmenti sohasida olib boriladigan chora-tadbirlarning bir qismidir.

Riskni baholash – risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezoni hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda inson-

ning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan momentdan, sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida, mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta obyekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy-huquqiy munosabatlaraga kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

Nazorat savollari:

1. *Xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan risklarni tasnifi qanday amalga oshiriladi?*
2. *To'lovni kechiktirish riski deganda nimani tushunasiz?*
3. *Qanday sharoitlar kontragent to'lov qobiliyatining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin?*
4. *To'lovga noqobillik davri qachondan boshlanadi?*
5. *Sug'urtaovchilar to'lov qobiliyatlarini ta'mintash uchun qanday me'yoriy nisbatlarga rioya etishlari shart?*
6. *Risk-menejmenti deganda nimani tushunasiz?*
7. *Risklarni boshqarishdagi sistematik yondashuv nimalar asosida amalga oshiriladi?*
8. *Risklarni moliyaviy boshqarish algoritmi nimaga asoslanadi?*
9. *Texnogen risklarga nimalar kiradi?*
10. *Ushbu mavzu ho'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?*

Test savollari

1. **Sug'urta hodisasi natijasida ko'rilgan zararlarni qoplashda qanday usuldan foydalilanadi?**
A) yukni barcha risklardan sug'urta qilish usuli;
B) faqatgina qayd qilingan turlargagina taalluqli bo'lgan usul;
D) xalqaro va ichki yuklarni tashish usuli;
E) To'g'ri javob yo'q.

2. Xalqaro risk bilan bog'liq zararlarni kamaytirishda turli hisob-kredit munosabatlarni qo'llash uslubiyati nima?

- A) iqtisodiy munosabatlarda sug'urta shartnomalarini qo'llash;
- B) to'langan summadagi tovarlarni olmaslik;
- C) yuborilgan tovarlar haqini to'lamaslik ehtimoliga oid riskni kamaytirish;
- D) hamma javoblar to'g'ri.

3. Reja topshiriqlari bo'yicha ishlab chiqarilayotgan maxsulotlarning sisati, bajmi bo'yicha qo'yilgan talablarning bajarmaslik riskini kamaytirish uchun sug'urta tashkilotlari qanday tadbirlarni amalga oshiradilar?

- A) o'zaro kelishuv shartnomalarini imzolaydi;
- B) tashkiliy-texnologik ishlarni amalga oshiradi;
- C) sudga murojaat etadi;
- D) portfeli defersifikatsiyalaydi.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatda qanday risklar korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi?

- A) tashqi risklar;
- B) ichki risklar;
- C) ehtimolli risklar;
- D) sug'urtalanmaydigan risklar.

5. Xedjirlash nima?

- A) turli hisob-kredit munosabatlarni qo'llash usullari;
- B) birjadagi fyuchers va opson shartnomalarini amalga oshirish usullari;
- C) sug'rtalashda turli sug'urta guvohnomalaridan foydalanish;
- D) depozitariyning qimmatli qog'ozlarni hisobga olish va yuritish usullari.

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SAVDO YUKLARINI SUG‘URTALASH

5.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda savdo yuklarini sug‘urtalashni amalga oshirish tartibi

Yuklarning shikastlanishi, halokatga uchrashi, o‘g‘irlanishi va yetkazib berilmasligi azal-azaldan yuklarni tashish bilan bog‘liq risklar hisoblanadi.

Yuklarni sug‘urtalash, mol-mulk sug‘urtasining mustaqil ko‘rinishi sifatida XIX asrning ikkinchi yarmidan shakllana boshladi. XIX asrning 60–70-yillarida suv yo‘llari bo‘ylab tashilgan yuklar ni sug‘urtalash, shuningdek, eksport jo‘natmalarini sug‘urtalash intensiv rivojlandi.

Ko‘p asrlik xalqaro amaliyot va mamlakatda to‘plangan tajriba, yuklarni sug‘urtalash mol-mulk sug‘urtasining keng tarqalgan turlaridan biri ekanligi bo‘yicha aniq tasnifni belgilab berdi. Yuklarni sug‘urtalash mol-mulk sug‘urtasi turlarining ichida talab eng katta bo‘lgan va barqaror rivojlanib borayotgan turlaridan hisoblanadi. Dunyo bo‘yicha risklar bilan bog‘liq sug‘urtalar bo‘yicha umumiy mukofotlarning umumiy hajmida yuklar sug‘urtasi hissasi 15 foizni tashkil etadi. Yuklar sug‘urtasi bo‘yicha shartnoma tuzishning va zararlarni muvofiqlashtirishning asrlar davomida shakllangan tao-mili majud bo‘lib, ular maxsus qoidalar va ko‘rsatmalar yig‘indisi tarzida to‘plangan.

Transport amaliyotlari, agar ular eksport qiluvchi mamlakatning va import oluvchi mamlakatning chegarasidan olib o‘tish bilan bog‘liq bo‘lsa, xalqaro amaliyot bo‘lib hisoblanadi. Bunday trans-

port amaliyotlari chog‘ida yuklarni jo‘natuvchi va oluvchi o‘rtasida, shuningdek, ular bilan tashib beruvchilar o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar xalqaro xususiyatga ega bo‘lib, xalqaro kelishuv bitimlari asosida hal qilinadi.

Tashilayotgan yuklarning xususiyatlariga ko‘ra sug‘urtalash quyidagi turlarga ajratiladi:

- asosiy yuklar sug‘urtasi. Asosiy yuklar sug‘urtasi (tashqi savdo amaliyotlari atamasi) o‘z ichiga standart, umum qabul qilingan tarzga joylashtirilgan va tashishning alohida shartlarini talab qilmaydigan yuklar kiritiladi;
- quyma, sochma va uyma yuklar sug‘urtasi;
- qishloq xo‘jaligi va boshqa turdagи hayvonlar sug‘urtasi;
- «maxsus» sug‘urta (qimmatbaho metallar, bank banknotalari, tangalar).

Yuklarning eng ko‘p shikastlanishi ularni tashish chog‘ida sodir bo‘ladi. Yuklarning buzilish xavfidan hamda dengiz transportida tashish chog‘idagi dengiz suvining, samolyotlarda tashish chog‘ida havo bosimining ularga ta’siridan tashqari, yuklarni yo‘qotish va buzilishi transportning barcha turlari uchun ham xos bo‘lgan xavfli xususiyatdir.

Yuklarga yetkazilgan zararlarning, qoidaga ko‘ra, sug‘urtalash lozim bo‘lмаган turlari ham mavjud. Bunday zararlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- yukning avvaldan zararlangan holatda bo‘lishi;
- sug‘urtalangan yukning tayyorlashdagi konstruksiya xatoliklari;
- tashqi qutisi but bo‘lgani holda, yukda kamomad mavjudligi;
- oddiy qutidagi xatolik yoki kamchilik (nosozlik, yaroqsizlik);
- yukka zarar yetkazilishi avvaldan aniq bo‘lgan usulda ortish va tushirish.

Yuklarni sug‘urtalashning umumiy shartlaridan biri franchiza hisoblanadi, u zarami qoplashga oid summa bo‘yicha sug‘urtalovching javobgarligini cheklashga qaratilgandir. Bu shartga ko‘ra,

muayyan yuklarni tashish chog'ida amalda oldini olib bo'lmaydigan mayda zararlar uchun sug'urtalovchining javobgarligi istisno etiladi.

Mavjud bo'lgan barcha ichki qonunchilik hujjatlariga hamda xalqaro transport konvensiyalariga binoan tashish, ko'chirib o'tkazish va saqlash chog'ida yuklarga yetkazilgan zarar uchun yuk egasi oldida tashuvchilar, ekspeditorlar moddiy javobgar hisoblanadilar. Ammo tashuvchi yuklarga yetkazilgan halokat, zarar yoki yo'qotish yengib bo'lmas vaziyatlar oqibatida sodir bo'lganligini va ularni bartaraf etish unga bog'liq bo'limganligini isbotlasa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Sug'urtalanmagan yukning egasi tabiiy ofatlar natijasida hisob-siz yo'qotishlarga duch kelishi mumkin. Yuklarni sug'urtalashning standart qoidalariga ko'ra tabiiy ofatlar oqibatida yetkazilgan zarar avtomatik tarzda qoplanadi. Qolaversa, qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lovi bo'yicha sug'urta polisi ba'zi boshqa risklarni ham qoplashi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlarini tashish chog'ida o'g'irlik, talonchilik kabi risklardan tashqari turli boshqa risklarga ham yo'liqishi ehtimol. Havo haroratining o'zgarishi yukning butun partiyasini yaroqsiz holatga keltirishi mumkin. Sug'urtalanuvchining iltimosiga binoan, sug'urtalashning standart shartlari ichiga qo'shimcha ravishda yuk tashish tajribasida tez-tez qo'llaniladigan «refrijerator riskini» ham kiritishga yo'l qo'yiladi. Refrijerator riski tashish chog'ida sovutish uskunasining refrijerator haydovchisi (mexanigi) tomonidan o'z lavozim majburiyatlarini vijdonan bajarmaganligidan tashqari, barcha sabablar tufayli ishdan chiqishi oqibatida refrijeratordagи yuklarning buzilishini anglatadi. Yuklar muzlatkichdan tushirilishi jarayonida buzilishi oqibatida yetkazilgan zararni sug'urtalovchi faqat refrijerator uskunasi YTH (yo'l-tarsport hodisasi) yoki uchinchi shaxslarning tashish chog'idagi qonunga xiлоf xatti-harakati sababli ishdan chiqqan holatlarda qoplashi kuzatiladi. Qoplama faqat haqiqatda yetkazilgan zarar bo'yicha amalga oshiriladi.

Barcha mavjud ichki qonunchilik hujjatlariga va xalqaro transport konvensiyalariga muvofiq tashish, ko'chirib o'tkazish, saqlash chog'ida yukka yetkazilgan zarar uchun yuk egasi oldidagi moddiy javobgarlik tashuvchilar, ekspeditorlar zimmasida bo'ladi.

Shartli ravishda bunday vaziyatlar ikki toifaga ajratiladi:

- yuk jo'natuvchining yoki yukni qabul qilib oluvchining aybi;
- tashuvchi qabul qilib olish chog'ida sezishi mumkin bo'lma-gan yukning o'ziga xos, tabiiy xususiyatlari, taraning yoki qutining (o'rovning) kamchiligi kabilar.

«Barcha risklar javobgarligini olgan holda sug'urtalashda, yuk jo'natuvchining omboridan yukni qabul qiluvchining ombo-riга harakatlanishi chog'ida, ortish-tushirish ishlarini bajarilayot-ganda yukka yashirin zarar yetkazish holatlari sodir bo'ladi, bun-da ko'pincha tashqi qutining (o'rovning) butligi buzilmay qoladi. Bunday toifadagi zararlar, asosan ortish-tushirish chog'ida yukni ehtiyyotsizlik bilan tashish sababli sodir bo'ladi:

- insonning oqilona nazoratidan tashqari, ya'ni fors-major vaziyatlar (tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar, ish tashlashlar va sh.k.);
- talonchilik va bosqinchilik (yukka aloqasi bo'limgan begona shaxslar tomonidan zo'rlik bilan qo'rqtish yoki kuch ishlatish orqali yukni tortib olib qo'yilishi).

Xalqaro avtomobil transporti Nizomiga va Xalqaro temir yo'llari transport Nizomiga muvofiq yuk jo'natuvchi yukni tashuvchidan zararlangan, halokatga uchrangan yoki yo'qotilgan yukning to'liq qiymatini faqat ichki avtomobil va temir yo'l transportida tashil-ganda undirishi mumkin.

Yuk tashuvchilarning yuklarni aviatsiya orqali xalqaro yo'nalish-lar bo'yicha tashish chog'idagi javobgarligi, 1997-yildan boshlab, ichki yo'nalishlar bo'yicha tashish chog'ida ham xalqaro transport konvensiyalari va Xalqaro Havo yo'llari kodeksi bilan cheklangan bo'lib, bu cheklolvar brutto-yukning har bir kilogrammi uchun to'lanadigan summalar bilan belgilanadi.

Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomasi to'g'risida-gi konvensiyaning (YXYT) 23-moddasiga muvofiq yukni tashuv-chi yukning qisman yoki to'liq yo'qotilishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi shart, qoplash uchun undiriladigan summaning miqdori yukning, uni tashish uchun, qabul qilib olingan joydagi va vaqtagi qiymati orqali aniqlanadi.

Yukning qiymati birjadagi kotirovkasi orqali, yoki buning imkonni bo'lmasa, joriy bozor narxlari asosida, agar unisini ham, buningini ham imkonni mavjud bo'lmasa, xuddi shu turdag'i va sifatdagi tovarning oddiy narxi asosida aniqlanadi.

Ilgari yetishmayotgan bir kilogramm brutto og'irligi uchun qoplama to'lovi miqdori 25 Punkare frankidan (0,900 probadagi 10/31 g og'irlikdagi oltin frank) ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmas edi.

Bundan tashqari, tashuv to'lovlar, bojxona yig'imlari, shuningdek, yukni tashish bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha ham yuk butunlay yo'qotilgan taqdirda – to'lig'icha, qisman yo'qotilganda, yo'qotilgan qismiga mutanosib ravishda qoplama undirilishi lozim bo'lgan, boshqa zararlarning qoplanishi talab etilmagan.

Qiymatiga ko'ra bir muncha yuqoriroq bo'lgan qoplama to'lo-vini yuk tashuvchidan faqat YXYT Konvensiyasining 24–26- moddalariga muvofiq yukning qiymati e'lon qilingan, yetkazib berish yuzasidan maxsus manfaat mavjud bo'lgan holatda talab etilishi mumkin.

Gamburg qoidalarining (to'liq kuchga kirmagan) 26-moddasiga muvofiq O'MQ (o'zlashtirishning maxsus qoidalari) yuk tashuvchi javobgarligining hisoblash birligi sifatida olinadi. Xalqaro valuta fondiga (XVF) a'zo bo'lidan hamda qonunchiligi O'MQ dan foydalanishga yo'l qo'yaydigan mamlakatlar O'MQ da berilgan cheklar o'miga quyidagi: bir yuk o'rni uchun 12 500 Puankare franki yoki yuk jo'natishning boshqa birligi – yukning bir kilogramm brutto og'irligi uchun 37,5 Puankare franki cheklaridan foydalanishlari mumkin.

Cheklovlarini milliy valutada hisoblanishida bir xillikka erishish uchun Konvensiyaning 26-moddasida quyidagi qoidalar berilgan. O'MQ da ifodalangan summalar mazkur valutaning sud qarori chiqarilgan sanadagi yoki tomonlar o'zaro kelishuv orqali belgilangan sanaga bo'lган qiymatiga muvofiq o'tkazib berilishi shart. Xalqaro valuta fondiga a'zo bo'lган muayyan davlatning milliy valutasi O'MQ birligidagi ekvivalenti XVF tomonidan tegishli sanada qo'llanilayotgan qiymatni hisoblab topish usuliga binoan hisoblab chiqariladi. XVF a'zo bo'lмаган, qonunchiligi O'MQ birligini qo'llashga yo'l qo'ymaydigan hamda javobgarlik cheklovleri faqat Puankare frankida ifodalanadigan mamlakatlar uchun mazkur cheklovlarini milliy valutada hisoblash o'sha davlatda amal qilib turgan qonunchilik asosida amalga oshiriladi. XVFga a'zo bo'lмаган mamlakatlar uchun undan keyingi hisoblab chiqarish va hisob-kitob qilish chog'ida O'MQda ifodalangan cheklovlarining haqiqiy qiymatini milliy valutada imkon qadar aniq belgilash talab etiladi. Shartli ravishda bir O'MQ 15 Puankare frankiga teng deb olish mumkin.

Bojxona hududiga tovarlarni olib kirish va yetkazib berish joyi faqat har bir shaxs foydlanishi uchun imkon beruvchi ochiq turdag'i va Bojxona kodeksining tasdiqlangan «Vaqtinchalik saqlash to'g'risida»gi Nizomga muvofiq faqat muayyan shaxslarning tovarlarini saqlashga mo'ljallangan yopiq turdag'i bojxona omborlari bo'lishi mumkin.

Faqat tovarlar va yuklarning bojxonada rasmiylashtirish va bojxona idorasiga taqdim etish ishlari ular omborxonaga yetkazib berilganidan keyin uch soat o'tgan taqdirda vaqtinchalik saqlash qo'llanmasligi mumkin. Boshqa barcha holatlarda tovarlar va yulalar, ular omborxonaga yetkazib berilganidan va bojxona organi ularning yetib kelgani to'g'risida xabardor etilganidan keyin bir kecha-kunduz ichida vaqtinchalik saqlash omborxonalarga joylashtirilishi shart.

5.2-§. Yuklarni sug‘urtalashda xalqaro savdo palatasi talablari

Ko‘pincha yuklarni tashish bo‘yicha kontrakt tuzayotgan tomonlar boshqa manzlakatlardagi savdo yuritishning amaldagi tajribalari bilan tanish bo‘lmaydilar. Bu esa jiddiy kelishmovchiliklarni va buning oqibatida sud tortishuvularini keltirib chiqarishi mumkin. Bu kabi muammolarni hal etish uchun Xalqaro savdo palatasi 1936-yildayoq, savdo atamalari ma’nosini aniq ifodalanishi bo‘yicha xalqaro qoidalar to‘plamini nashr etgan. Bu qoidalar hozirgi kunda 2010-yildagi tahrirda amal qilib turgan va INKOTERMS qoidalari yoki shartlari nom bilan ataluvchi qoidalar sifatida nom qozongan.

INKOTERMS–2010 shartlarini qo‘llash kontrakt ishtirokchilarning roziligidagi bog‘liq. Agar bitimning shartlari INKOTERMS shartlariga mos kelmay qolsa, kontraktda qayd etilgan qoidalar ustuvorlikka ega bo‘ladi.

INKOTERMS–2010 ning 11 ta bazaviy atamasi to‘rt guruhga bo‘linadi.

E guruhi (ortib jo‘natish) – sotuvchi tovarni xaridorga bevosita o‘ziga tegishli binolarda taqdim etadi.

F guruhi (asosiy yuk tashish haqi to‘lanmagan) – sotuvchi tovari ni xaridor tomonidan ta’minlangan va sotuvchiga ko‘rsatilgan yuk tashuvchining ixtiyoriga taqdim etish majburiyatini oladi. Bunday shartga muvofiq keladigan shartnomalar ortib jo‘natish shartnomalari deb ataladi.

C guruhi (asosiy yuk tashish haqi to‘langan) – sotuvchi yukni tashib berish (o‘z hisobidan) shartnomasini tuzish majburiyatini oladi, ammo tovarning tasodifiy halokatga uchrashi yoki zararlanshi riskini, shuningdek, yuk ortilgan keyingi har qanday qo‘simcha xarajatlarni o‘z zimmasiga olmaydi. (Bu yetkazib berish shartnomasi emas, chunki yuk ortib jo‘natilgandan keyingi barcha

javobgarlik xaridor zimmasida bo‘ladi, bu ortib jo‘natish shartnomasidir).

D guruhi (yetkazib berish) – sotuvchi barcha xarajatlarni to‘laydi va jo‘natilgan mamlakatga yetkazib berilguncha bo‘lgan barcha risklarni o‘z zimmasiga oladi. Bu hamkorlik shartnomalari uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Tashishning turi va unga mos INKOTERMS–2010 atamasi quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Tashishning har qanday turi		
E guruhi	EXW	Franko zavod (...joyning nomi)
F guruhi	FCA	Franko perevozchik (...tayinlangan joyning nomi)
C guruhi	CRT CIP	Fraxt/tashuv (...tayinlangan joyning nomi) gacha to‘langan fraxt/tashuv va sug‘urta (...tayinlangan joyning nomi) gacha to‘langan
D guruhi	DDP DAT	Chegaragacha yetkazib berish (...yetkazib berish joyining nomi) Boj to‘lovisiz yetkazib berish (...tayinlangan joyning nomi)
Faqat dengiz va ichki suv transporti		
F guruhi	FAS FOB	Kema borti bo‘ylab erkin (...jo‘natish portining nomi) Bortda (franko) erkin (...jo‘natish portining nomi)
C guruhi	CFR CIF	Qiymati va fraxt (...tayinlangan portning nomi) qiymat, sug‘urta va fraxt (...tayinlangan portning nomi)
D guruhi	DAT	Kemadan yetkazib berish (...tayinlangan portning nomi) Pristandan yetkazib berish (...tayinlangan portning nomi)

Xalqaro tajribada yuklarni INKOTERMS CIF va CIP qoidalari asosida sug‘ortalash sug‘urtalanayotgan yuk summasini (yetkazib berish kontrakti summasining) 10 foizga oshirish bilan belgilangan.

Binobarin, sug‘urta summasi obyektning sug‘urta qiymatidan fraxt summasi miqdorida (yoki transport xarajatlari miqdorida), tashish jarayoni bilan bog‘liq boshqa xarajatlar va ko‘rsatilgan manzilga yetkazib berilganidan keyin mazkur yukning sotilishidan kutilgan foyda miqdorida farqli bo‘lishi mumkin.

Hozirda yuk tashuvchilar INKOTERMS–2010 shartlariidan foydalanadilar. Vaholanki, INKOTERMS–2010 2011-yilning 1-yanvaridan kuchga kirgan. INKOTERMS–2000 bilan INKOTERMS–2010 ning farqlarini ko'rib chiqamiz:

birinchidan, terminlar soni 13 tadan 11 taga kamaytirilgan;

ikkinchidan, DAF, DES, DEQ va DDU terminlari o'z kuchi ni yo'qotgan, masalan, DEQ shartlarining o'rniغا DAT shartlari dan foydalanimoqda. DEQ shartlarida sotuvchi tovarni importchi mamlakatga qadar yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni, shu jumladan, bojlar, soliqlar va boshqa yig'imlarni to'lashni o'z zimmasiga oladi. DAT shartlarida esa eksport bojxona xarajatlari sotuvchi zimmasida, import bojxona xarajatlari esa xaridor zimmasiga o'tmoqda. O'z o'zidan INKOTERMS shartlarining asosiy laridan biri bo'l mish sug'urtani amalga oshirishda sug'urtalanuvchi o'zgarmoqda. (DEQ shartlarida sotuvchi – sug'urtalanuvchi, DAT shartlarida xaridor – sug'urtalanuvchi);

uchinchidan, FOB, CFR va CIF shartlarida sug'urta shartnomasini tuzish vaqtি o'zgardi. Masalan INKOTERMS–2000 da sug'urta yukni franko prichalga olib borgandan keyin amalga oshirilar edi. Endi esa sug'urta shartnomasi yuk transport vositasiga joy lashtirib bo'lingandan so'ng amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Milliy qonunchilikda va original sug'urta qoidalariда nazarda tutilgan sug'urta shartlari bilan bir qatorda, tajribada milliy sug'urta polislarida qo'shimcha ravishda ayrim ingliz standart shartlari dan ham keng foydalanilishi kuzatilmоqda, bu muayyan sharoitlarda taraflarning u yoki bu munosabatlarini tartibga solib turuvchi London sug'urtalovchilar institutining izohlari (ICC – Institute Cargo Clauses) deb ataluvchi qoidalarning qo'llanilishida ifodalanmoqda. Masalan, London Sug'urtalovchilar institutining izohlarida kemalarning to'qnashuvi oqibatida vujudga kelgan zarar bo'yicha sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish tavsif etilgan. Muz izohi deb nomlanuvchi qoida, asosan, navigatsiya tartibiga aloqador bir qator standart ka-

folatlar va shartlardan iborat bo‘lib, unda sug‘urtalangan kemalarning ayniqsa qish mavsumida vujudga kelishi ehtimol bo‘lgan muz riski sababli, riskli suvlarga kirishi taqiqlanadi. Ko‘pgina hollarda sug‘urta shartnomasi savdo bitimining ajralmas qismi hisoblanadi. Sug‘urtani kim amalga oshirishi va kimning hisobiga amalga oshirishi masalalari boshqa bitimlarni tuzish chog‘ida hal qilib olinadi.

Izohlarda London sug‘urta bozorining ko‘p asrlik tajribasi o‘z ifodasini topgan va ular faqat dengiz transportida tashilayotgan yuklarni sug‘urtalash chog‘idagini qo‘llanib qolmasdan, temir yo‘l, havo va avtomobil transportlari bilan yuk tashish chog‘ida ham qo‘laniladi.

Mazkur izohlarga muvofiq ravishda sug‘urta shartnomasi, xususan, quyidagi shartlarda tuzilishi mumkin:

A shartlari – eng to‘liq sug‘urta qoplaması – «barcha risklardan sug‘urtalash» [ICC (A)];

B shartlari [ICC (B)] – faqat quyidagi risklar sug‘urta qoplama-si bilan ta’milnadi;

C shartlari [ICC (C)] – sug‘urta qoplaması faqat quyidagi risk-larga taqdim etiladi va shu kabi izohlar.

Zarar yetkazilgan yuklar falokatga uchragan yuklar deb ataladi. Adjaster tuzgan yuk sug‘urtasi shartnomasi asosida zarar muqarrar xususiyatga ega bo‘lganmi yoki tabiiy nuqsonlar (yukning hasharotlar, kanalar, kasallantiruvchi bakteriyalar, mog‘or qo‘ziqorin-lari va sh.k.) sababli vujudga kelgan ekanligini aniqlashga harakat qiladi. Yuklar tabiiy nuqsonlar bilan ularni yuklab tashilgunga qadar (ya’ni sug‘urtalanguncha) zararlanganmi yoki yo‘q degan savol zararni transportirovka qilishning zarur shartlarini, masalan, allelopatiyani bajarmaslik natijasida vujudga kelgan ekanligi aniqlanishini talab etadi.

Yukni transportirovka qilishning iqlim va ob-havo muhitlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tabiiy zarar (qurishi, vaznini yoki hajmini yo‘qotishi yoki qo‘shishi) e’tiborga olinadi. Tabiiy zarar sababli vujudga kelgan yo‘qotishlar, agar sug‘urta shartnomasi-

da boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, sug'urta hodisasi bo'lib hisoblanmaydi.

Ekspertlar zararning sabablarini aniqlashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladigan yuqori darajada zarar ko'rvuchi yuklar qatoriga quyidagi yuklarni kiritishadi:

- bog'lamga o'rالgan po'lat chiviqlar (zararning sababi – simni o'rab bog'lanishining buzilishi, markirlovchi lavhalarining yo'qolishi, navining adashtirilishi);
- qog'oz qopga solingan sement (zararning sababi – namlik sababli qumoqlanishi, qopning yirtilishi);
- toshko'mir (zararning sababi – o'z-o'zidan alangalanish);
- baliq uni (zararning sababi – o'z-o'zidan achishi);
- ruhlangan temir (zararning sababi – korroziya);
- deraza oynasi (zararning sababi – ishqalanish natijasida sinishi);
- quruq-ho'l-tuzlangan teri (zararning sababi – maxsus shamol-latish sharoiti yo'qligi sababli irishi va chirishi);
- toylangan tabiiy jun (zararning sababi – qizib ketishi, tovar ko'rinishini yo'qotishi);
- ruda (zararning sababi – vaznini kemaning o'tirishi hisobiga aniqlashdagi kamchilik yoki rudani kemaga ortishdan avval vagonlarda tortish chog'idagi xatolik).

Zarar yetkazilgan yuklarni falokatga uchragan yuklar deb ataladi. Sug'urtalovchining vakili (adjaster) tuzilgan yuk sug'urtasi shartnomasi doirasida zarar muqarrar xususiyatga ega bo'lgan yoki tabiiy nuqsonlar (yukning hasharotlar, kanalar, kasallantiruvchi bakteriyalar, mog'or qo'ziqorinlari va sh.k.) sababli vujudga kelgan ekanligini aniqlashga harakat qiladi. Sug'urta hodisasi sharoitga bog'liq ravishda e'tiroznomalar bilan, kema jurnalidan ko'chirma bilan, falokat, transport vositasining halokatga uchraganligi, uning bedarak yo'qolganligi to'g'risidagi dalolatnomalar asosida tasdiqlanadi. Bunda mol-mulkni (yukni) halokatga uchrashdan sug'urtalayotganda, sug'urtalovchining (naf oluvchining) sug'urtalangan

mol-mulkka nisbatan (agar kema (yuki bilan) bedarak yo‘qolgan yoki bosqิงa olinib 6 oydan ko‘proq vaqt ushlab turilgan holatda sug‘urta summasini to‘liq olish bo‘yicha o‘z huquqlaridan voz kechish (abandon) huquqini ham hisobga olish zarur. Bu holda sug‘urtalangan mol-mulkka bo‘lgan huquq sug‘urtalovchiga o‘tadi.

Sug‘urta hodisasi sharoitlarini tekshirishda avariya komissari (syurveyer) muhim o‘rin tutadi. U sug‘urtalangan mol-mulk bo‘yicha zararning sabablarini, tavsifini va miqdorini aniqlaydi, sug‘urta hodisasi hujjatlarni tasmiylashtiradi va sug‘urta qildiruvchining sug‘urta to‘lovi to‘g‘risidagi arizasini ko‘rib chiqish uchun hujjatlarni tayyorlaydi (sug‘urtalovchining bu arizasini, odatda, sug‘urtalanuvchining e’tiroznomasi deb ataladi).

Yuklarni sug‘urtalash tariflari, odatda, trasport vositasiga, yo‘nalishga, yukning turiga, tashishning mudatiga qarab, sug‘urta summasining 0,5-3 foiziga teng qilib olinadi.

Tayanch tushunchalar

Abandon – to‘liq miqdordagi sug‘urta summasini olish uchun sug‘urtalanuvchining sug‘urtalangan mol-mulkdan sug‘urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug‘urtalangan kema nobud bo‘lganda, u xabarsiz yo‘qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to‘g‘risidagi ariza voqeа-hodisa ro‘y bergandan keyin olti oy mohaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligidagi abandon sug‘urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat Angliya qonunchiligidagi abandon uchun sug‘urtalovchining roziligi talab etiladi.

Adjaster – sug‘urta hodisasi ro‘y berishi munosabati bilan sug‘urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e’tirozni tartibga solishda sug‘urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki huquqiy shaxs. U sug‘urtalanuvchi bilan unga to‘lanadigan sug‘urta qoplamasini miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjaster sug‘urta hodisasini ro‘y berish sabablarini o‘rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo‘yicha sug‘urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funk-

siyasini bajaradi. Adjaster vazifasini sug'urta kompaniyasining tarkibiy bo'limi yoki ixtissoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

Franshiza – sug'urta shartnomasi shartlarida ko'zda tutiladigan, sug'urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug'urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franchizalarga bo'linadi. Shartli franchizada sug'urtalovchi belgilangan franchiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko'rilgan zarar miqdori franchiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug'urta kompaniyasi zarami to'liq qoplaydi. Shartsiz franchizada ko'rilgan zarar franchiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Fraxt – dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

Dispasher – dengiz transportida umumiya avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher funksiyasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotih oluvchi shaxs) to'laydi.

Nazorat savollari

1. Yuklarni sug'urtalashda halqari o'savdo palatasi talablari qachon amalga kiritilgan?
2. INKOTERMS-2010 bo'yicha tovar yetkazib berishning tijorat shartlari, yuk sug'urtasining ta'minlanishi nimalar dan tashkil topgan?
3. Xalqaro savdo tijorat yo'nalishida sug'urta shartnomalarini tuzish qanday amalga oshiriladi?
4. Xalqaro savdo yo'nalishidagi kelishuvlarda London sug'urta instituti tomonidan ishlab chiqilgan «A», «B» va «C» tamoyillarini tushuntirib bering.

5. Sug'urta hodisasidan ko'rilgan zararlarni qoplash usullarini sanab berling.
6. Dengiz transport vositalarini sug'urtalashda zararlarni qoplash qanday amalga osiriladi?
7. Sotivchi va xaridor ko'rishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash qaysi hujjat asosida amalga oshiriladi?

Mustaqil o'rghanish uchun topshiriqlar

1-masala

Yukning haqiqiy narxi 15 million so'm, sug'urta summasi 3,5 million so'm, obyektning sug'urta hodisasi natijasida ko'rgan zarari 7,5 million so'm.

Nisbiy javobgarlik tizimi bo'yicha sug'urta qoplamasini summasini toping.

2-masala

Xo'jalik subyekti eksport qilayotgan yukini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 150 million so'mga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'urta summasidan 0,3 foiz. Sug'urta shartnomasi bo'yicha 2 million so'm miqdorida shartsiz franshiza belgilangan, franshiza belgilanganligi sababli 4 foiz miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 8,5 million so'mga teng.

Sug'urta mukofoti summasi va sug'urta qoplamasini summasini toping.

3-masala

Xo'jalik subyekti eksport qilayotgan yukini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 800 million so'mga bir yilga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'urta summasidan 0,3 foiz. Sug'urta shartnomasi bo'yicha 1 foiz miqdorida shartli franshiza belgilangan, franshiza belgilanganligi sababli 2 foiz miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 12,5 million so'mga teng.

Sug‘urta mukosoti summasi va sug‘urta qoplamasi summasini toping.

4-masala

Birinchi risk sistemasi bo‘yicha yuk 50 million so‘mga sug‘urtalangan, yukning haqiqiy narxi 70 million so‘m. Sug‘urta hodisasi natijasida yuk 34 million so‘m miqdorida zarar ko‘rdi.

Birinchi risk sistemasi bo‘yicha sug‘urta qolamasi summasini toping.

Test savollari

1. Yuklarni sug‘urtalash, havo transportlarini sug‘urtalash, avtomobillarni sug‘urtalash, eksport kreditlari sug‘urtasi qaysi sug‘urta turiga mansub?

- A) Shaxsiy sug‘urta
- B) Hayot sug‘urtasi
- C) Mol-mulk sug‘urtasi
- D) Ixtiyoriy sug‘urta

2. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug‘urta risklari va ularning tasnifi, savdo tijorat risklarini sug‘urta qilish qaysi qonun-qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi?

- A) «INKOTERMS» qoidalari muvofiq
- B) O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq
- C) Yetakchi reyting tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalarga muvofiq
- E. Barcha javoblar to‘g‘ri.

3. «INKOTERMS» qoidalari qaysi tashkilot tomonidan ishlab chiqilgan?

- A) RMT tomonidan
- B) Butun Juhon Savdo Tashkiloti
- D) FIATA tomonidan
- E) Butun Juhon Savdo va Sanoat Birlashmasi tomonidan

4. Halqaro savdo palatasi qanday ataladi va qachon tashkil topgan?

- A) «International Chamber of Commerce – ICC», 1937-yil
- B) «INKOTERMS», 1937yil
- C) «International Chamber of C. Commerce – ICC», 1936-yil
- D) To‘g‘ri javob yo‘q.

5. CIF va CIP sharti bo‘yicha sug‘urta mukofotini kim to‘laydi?

- A) Sotuvchi
- B) Xaridor
- C) Sug‘urta kompaniyasi
- D) Sotuvchi, xaridor

7. Yuklarni sug‘urtalashda keng qo‘llaniladigan «A», «B» va «C» tamoyillari qayerda ishlah chiqilgan?

- A) AQSHda
- B) Angliyada
- C) Kanadada
- D) Germaniyada

VI BOB
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA EKSPORT
KREDITLARINI SUG'URTALASH

**6.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda kreditni
qaytarmaslik riskini sug'urtalash**

To'lovning kechikishi riskini sug'urtalash bo'yicha sug'urta xizmatlarni davlatlarning tegishli sug'urta kompaniyalari amalga oshiradi. To'lovning kechiktirilishini nazarda tutuvchi eksport kontraktlar bo'yicha siyosiy va tijorat risklardan sug'urta qoplamasi O'zbekiston Respublikasi rezident tashkilotlari tomonidan beriladi.

Savdo tijorat risklardan sug'urta qilish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga binoan va «INKOTERMS» xalqaro qoidalariga muvofiq sug'urta qilish huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. To'lovnin kechiktirish shartlarida amalga oshirilayotgan birinchi darajali banklarning to'lov majburiyatları bilan ta'minlangan eksport kontraktlarini siyosiy va tijorat risklaridan sug'urtaviy himoyalashni ushbu sug'urta turini amalga oshirish bo'yicha litsenziyasini bo'lgan sug'urta tashkilotlar amalga oshiradi.

Sug'urta kompaniyalari sug'urtalanuvchilardan sug'urta mu-kofotlarini olganlaridan keyin sodir bo'lishi mumkin bo'ladigan sug'urta risklarini o'r ganib chiqadi va barcha sug'urtalanuvchi eksportyorlar hamda importyor kontragentlar bilan sug'urta shartnomalarni imzolaydi, uning bajarilishida quyidagi sharoitlar inobatga olinadi:

- sug'urtalovchi kontragenting to'lov qobiliyatini o'r ganib chiqib, sug'urta summasini belgilaydi. To'lov amalga oshgan

chog'da, mazkur summa miqdorida sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi nazarda tutiladi,

- sug'urtalanuvchiga taqdim etiladigan sug'urta qoplamlari sug'urta polisida qayd etilgan miqdordan yuqori bo'lmaydi;
- sug'urtalovchi tomonidan tovarni yetkazib berish ko'rsatiladigan xizmat turlari bo'yicha barcha shartnomadagi majburiyatlar bajarilganidan keyin hisobotlar taqdim etiladi hamda to'lov ko'rsatilgan sug'urta muddatlarida amalga oshiriladi.

Sug'urta shartlarida ko'zda tutilgan tasodiflardan birontasi sodir bo'lgandagina sug'urtalovchi shartnomada kelishilgan sug'urta summasini to'lashga mas'ul. Ba'zi hollarda sug'urtalovchi kontragent to'lov qobiliyatining pasayishi to'loving belgilangan muddatdan kechikishiga sabab bo'lishi mumkin. Agarda:

- bankrotlik to'g'risida ish ochilganda yoki sud tomonidan mol-mulkning yetarli emasligi bois rad etilganda;
- qarz beruvchi va qarz oluvchi tomonlar o'rtasida bankrotlikning oldini olish maqsadida o'zaro kelishuvlarga erishilganda;
- ikki tomon sudga murojaat qilmay qarzlarni qisman qaytarish bo'yicha shartnomada kelishuviga erishganda;
- sud qarori bo'yicha sug'urtalanuvchidan qarz undirilishi amalga oshirilganda, to'lovga noqobillik davri boshlandi deyiladi.

Sug'urtalovchilar to'lov qobiliyatlarini ta'minlash uchun aktivlar va o'z zimmalariga olgan sug'urta majburiyatları o'rtasidagi me'yoriy nisbatlarga rioya etishlari shart.

Sug'urta tashkilotining to'lovga qobililik ko'rsatkichlari o'rganilganda, korxona barqaror muhitda ekanligiga ishonch hosil qilish muhim vazifalardan sanaladi. Sug'urtalash amaliyotida shu narsa ma'lumki, sug'urta faoliyatida majburiyatlar bo'yicha to'lov qobiliyatigina emas, balki vaziyat o'zgargan yoki noxush hollarda ham majburiyatni bajarish imkoniyatini belgilovchi omil hisoblanadi.

Xalqaro savdo yo'nalishida to'lovga qobililik darajasi sug'urta tashkilotlarning moliyaviy barqarortligini yuzaga kelishini ta'min-

laydi, ya'ni har qanday vaziyatda sug'urta tashkilotlari majburiyatlarni ta'minlashi lozim bo'ladi. Xalqaro sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi sug'urta shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi bilan belgilanadi.

To'lamaslik riski bo'yicha ehtimoldagi zararni yo'qotishda sug'urtalanuvchining o'zi ham qatnashishi mumkin. Bunday sug'urtalash usuli franshiza deb ataladi. Bunda sug'urta summasi foizlarda qayd etiladi. Ko'rilgan zararning o'z tomonidan qoplanishi 20–30 foizni tashkil etadi. Franshiza boshqa sug'urtalanuvchi hisobidan sug'urtalanishi mumkin emas. Bu turdag'i sug'urtalashni amalga oshirishda sug'urtalanuvchi barcha ehtimollar ko'rinishidagi ko'rsatkichlarni tahlil qilib chiqishi shart.

Buning oqibatida u ehtimoldagi zararga immunitet hosil qilib turadi. Bundan tashqari, sug'urtalanuvchi sug'urtalovchi tashkilotga o'zining faoliyati to'g'risidagi barcha ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'ladi.

Faoliyatning tahlil qilinishi natijasida sug'urtalovchi kamchiqim-lilikning yo'llarini o'rganib chiqadi. Zero, bunday holatlarning iqtisodiy yo'naliishlarda chuqur tahlil qilinishi eksportyor va importyor o'rtaida kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchiliklarning oldini oladi.

Zararlarni to'lamaslik riskini sug'urtalashni amalga oshirish bilan sug'urta kompaniyalari va eksportyorlar o'rta sidagi uzoq muddatli munosabatlar shakllantiriladi. Bu esa sug'urta kompaniyalariiga, barcha sug'urtalanuvchi eksportyor-importyorlarga yillik sug'urta guvohnomasini berish imkoniyatini yaratadi. Eksportyor chet ellik kontragent bilan shartnomada kelishilgan summani sug'urtalovchi tashkilotga taqdim etadi.

Sug'urtalovchi tashkilot, o'z navbatida, chet ellik hamkorining moliyaviy va to'lovga qobililik holatlarini o'rganib chiqadi hamda ko'rsatilgan tijorat kredit summalarini sug'urtalash masalasini tahlil qilgan holda, masalani ijobjiy hal qilishi yoki u summani sug'urta qilmasligi mumkin.

Shuning uchun ham sug‘urta kompaniyalari eksportyor va importyor hamkorlarning ishlab chiqarish hamda iqtisodiy faoliyatini o‘rganib chiqishga harakat qiladi. Bu esa ehtimoldagi zararlarni kamaytirish imkonini vujudga keltiradi.

Sug‘urtalovchi tomonidan belgilangan eksportyor-importyrlarning mol-mulki qiymati sug‘urtalanuvchiga sug‘urta obyekti hisoblanadi va shu miqdorda sug‘urtalanuvchiga sug‘urta guvohnomasi beriladi.

Shartnomada ko‘rsatilgan sug‘urta summasi asosida sug‘urtalovchi hamda eksportchi sug‘urtalanuvchi o‘rtasida, iqtisodiy, ishlab chiqarish va xizmatlar yo‘nalishidagi ishlar amalga oshiriladi. Sug‘urtalovchi kredit limiti miqdoridagi summa bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, sug‘urta javobgarligini o‘z zimmasiga oladi.

Sug‘urtalovchining majburiyati sug‘urtalanuvchi tomonidan shartnomada belgilangan sug‘urta mukofoti to‘langan daqiqadan boshlab amal qiladi.

Sug‘urtalanuvchi ish jarayonida sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha hisob raqamlarini o‘zining kontragentiga alohida berishi lozim bo‘ladi.

Sug‘urtalovchi tashkilotlar barcha turdagি berilgan hisob raqamiga asosan sug‘urta summalarini belgilaydi. Agarda berilgan hisobotlarda savdo sug‘urta summasidan oshib ketgan taqdirda, sug‘urtalovchi tashkilot darhol sug‘urtalanuvchiga xabar berishi kerak bo‘ladi.

Barcha shartnomalar bo‘yicha belgilangan sug‘urta qoplamasi sug‘urtalanuvchiga belgilangan limit asosida qaytarilishi mumkin. Keyingi tovar va xizmatlar bo‘yicha olinadigan hisobot davrigacha:

- shartnomaga nisbatan sug‘urta shartnomasi bekor qilinganda;
- tijorat qarzlarining muddati o‘tib ketganda;
- sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda, oldingi faoliyat bo‘yicha berilgan limit to‘xtatilganda yuqoridagi talabga amal qilinadi.

Bunda barcha sug‘urta hodisasining kelib chiqishi va uning sabablari o‘rganib chiqiladi. Shuning asosida barcha eksport aylanmasi bo‘yicha sug‘urta mukofotlari summasi aniqlanadi. Har yilning boshida sug‘urtalanuvchi sug‘urtalovchi tashkilotga sug‘urta summasiga nisbatan avans badali o‘tkazib turadi va shu tariqa faoliyat amalga oshiriladi.

Ichki va xalqaro bozorlarda ko‘rilgan zararlarni to‘lamaslik riskini sug‘urtalash bo‘yicha xizmat turlarini «O‘zbekinvest» amalga oshirmoqda. Kompaniya xalqaro dasturlarni ishlab chiqqan. Kompaniya ko‘plab rivojlangan davlatlar bilan bosh shartnomalarga ega bo‘lib, eksportyorlarning tovarlarini barcha sug‘urta riskidan himoyalaydi.

Natijada mazkur kompaniya eksportni sug‘urtalash tizimi shakllanishining xalqaro tajribasiga asoslanilgan qator xalqaro universal dasturlarni ishlab chiqqan. Dastur jahonning eng yirik sug‘urta tashkilotlari (Gerling konsern, Lloyd, SKOR va boshqalar) bilan sug‘urta xizmatlari dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

Sug‘urta xizmatlari dasturini tatbiq qilishda chet el kompaniyalarining xizmati salmoqli. Chunki ularning ishtirokisiz buni amalga oshirib bo‘lmaydi. Sug‘urta kompaniyalari to‘lov qobiliyatining yaxshilanib borayotganligi ishonchni oshirmoqda.

Xalqaro yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan sug‘urta kompaniyalari zararning kelib chiqish sabablarini va uning olidini olishdagi chora-tadbirlarni o‘rganib chiqishga harakat qiladi. Bu esa tovar va xizmat eksport qiluvchilarining zararlarni to‘lash darajasini baholash uchun imkoniyat yaratadi.

Ko‘rilgan zararlarni to‘lamaslik riskini sug‘urtalash hamkorlar tomonidan sodir etiladigan zararlarni to‘lamaslik riski bo‘yicha olgan javobgarligini bajarmasa, unda mazkur javobgarlikning sug‘urta tashkilotlari o‘z zimmasiga oladi. Bu hol zararlarni to‘lamaslik riski bo‘yicha sug‘urtalashga ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonning e’tiborga sazovor sug‘urta kompaniyalari tomonidan berilgan sug‘urta guvohnomasi eksportyorlar uchun qulaylik

yaratadi, chunki bu holda tovar uchun oldindan pul o'tkazish yoki akkreditiv ochish shart bo'lmay qoladi.

6.2-§. Eksport kreditlarini sug'urtalashning tamoyillari

Xalqaro iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonining aksariyat hollarida chet ellik hamkorlarning kreditni qaytarmaslik riski sodir bo'lib turadi. Eksport kreditlarining o'z vaqtida qaytarmasligini ta'minlovchi vosita sifatida kafolatlar (oldindan pul o'tkazish, yoki rasmiy tasdiqlangan akkreditiv) bilan bir qatorda, sug'urtalash keng qo'llanilmoqda. Bunday sug'urtada quyidagi asosiy tamoyillarga rivoja qilinadi:

- sug'urta kredit riski yuzaga kelishini aks ettirish lozim;
- kredit sug'urtasi savdo operatsiyasida favqulodda risklarning yuzaga kelishini ham hisobga oladi;
- risk sug'urtasida eksport qiluvchi o'z xorij mijozining to'lova qobilligi bilan xar doim ham qiziqmaydi;
- sug'urta, jamiyati yordam beruvchi tashkilot bo'lib, kafolatli veksellarni sotshiga yordam beradi,
- sug'urta qiymati risk miqdoriga bog'liq bo'ladi;
- eksport qiluvchining muvaffaqiyatsiz operatsiyasidagi ko'rgan zarar miqdori hisoblab chiqilgandan so'ng to'lanadi.

Buning natijasida tijorat va bank tuzilmasi yordamida xalqaro savdoga ta'sir etuvchi kreditlar sug'urtasini amalga oshiruvchi xussiy va davlat tashkilotlari tizimi barpo etiladi. Sug'urta tashkilotlari ishlab chiqilgan shartnomalar asosida sug'urta operatsiyalarini amalga oshiradilar. Kredit sug'urtasi keyingi yillarda kredit riskining kamaytirish usullaridan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda «O'zbekinvest» kompaniyasi eksport kreditlari va investitsiyalari xalqaro uyushmasi (Bren ittifoqi) bilan yaqin hamkorlikni amalga oshirmoqda. 1998-yildan boshlab «O'zbekinvest» Markaziy eksport kredit agentligi Praga klubining teng huquq-

li a'zosi bo'lib, uning doirasida xorijiy eksport-kredit agentliklari bilan eksport kreditlarini sug'urtalashni amalga oshirish yo'llarini o'zlashtirmoqda.

Kompaniya «Ingosstrax», Fransiya tashqi tijorat sug'urta kompaniyasi, Vengriya eksport – kredit agentligi, Bolgariya eksport sug'urtasi agentligi, Sloveniya eksport korporatsiyasi, Polsha Respublikasi eksport kredit sug'urta korporatsiyasi, Hindiston eksport-import banki, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq qaltisliklarni sug'urtalash unitar sug'urta korxonasi va boshqalar bilan hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolangan. Imzolangan bitimlar doirasida sug'urta dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, axborot almashinuvi, qo'shma sug'urtalashda, parallel sug'urtalashda, qayta sug'urtalashda va da'volarni tartibga solishda yordam ko'rsatish bo'yicha o'zaro hamkorlik borasida faol ish olib bormoqda.

Buning natijasida sug'urta va bank faoliyati uyg'unlashib bir tomonidan, kredit ehtiyojlari uchun kapitalni jalb etuvchi hamda ikkinchi tomonidan, bunday kreditlarni sug'urta qiluvchi ixtisoslashgan tashkilotlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Kredit sug'urtasi eksport qiluvchilar va import qiluvchilar o'rta-sida tijorat hamda moliyaviy intizomni rag'batlantiruvchi bo'lib hisoblanadi. Kreditni to'lay olmaslik riski ushbu sug'urtaning obyekti bo'lib, kredit yoki ssuda oluvchining bank oldidagi kreditni o'z vaqtida va to'laligicha, foizi bilan qaytarish javobgarligi hisoblanadi.

Eksport kreditini qaytarish javobgarligi bo'yicha sug'urta qoplamasini berishda quyidagilar chegirib tashlanadi:

- qarz muddatining o'tganligi uchun to'langan foizlar, shart-noma shartlarini bajarmaganligi bo'yicha undiriladigan to'lovlar, qoplash uchun qilingan xarajatlar, sud xarajatlari hamda valuta kursi bo'yicha hosil bo'lgan farq;

- davlat hamda munitsipal korxonalar va tashkilotlar hisobotiga o'tkazilishi lozim bo'lgan kapital summasi;

– tovarni qabul qilish hamda xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan lit-senziyalarning yo‘qligi yoki jo‘natilgan eksport tovarlar, import qilinadigan mam'lakatda ta’qiqlangan harakatlar tufayli ko‘rilgan zararlar;

– sug‘urtalovchi tomonidan urush (harbiy kelishmovchilik, qo‘zg‘olon, musodara, tovar va valuta operatsiyalarida davlatlar o‘rtasidagi chegaralanish)lar va tabiiy ofatdan ko‘rilgan zararlar aniqlansa.

Shartnoma sug‘urta kompaniyasi va banklar yoki boshqa kredit muassasalari o‘rtasida tuziladi. Bunday kredit sug‘urtasida sug‘urtalanuvchining kreditni to‘lash qobiliyati, ya’ni kredit riski darajasi hisobga olinadi. Hozirda tovarlarning eksport qilinishi ko‘p hollarda tijorat qarzlari bilan bog‘liq bo‘lmoqda. Shuning uchun ham tijorat yo‘lida olingan qarzlar ayrim hollarda tovarlarning jahon bazaarida sotilishi evaziga qoplanmasligi, ya’ni qoplanmaslik riski sodir bo‘lishi mumkin.

Masalan, G‘arbiy Yevropada har yili ko‘plab firmalar bankrot bo‘ladi. Buning asosiy sababi xarajatlarning ko‘payib ketishi, narxlarning tushishi va pirovard natijada, firmalarning foyda ololmaslidir. Shuning uchun ham bugungi kunda eksport qarzi yoki debtorlik qarzlarni sug‘urtalash amalga oshiriladi.

Bu turdagи sug‘urtalashning maqsadi tovar eksport qiluvchilarning eksport qilingan tovarlarga chet el iste’molchilari tomonidan o‘z vaqtida haq to‘lanishini kafolatlashdan iboratdir.

Eksportyordarni sug‘urtalashning ikki xil usuli mavjud:

– chet ellik xaridorda to‘lov qobiliyatining mavjud emasligidan, ya’ni (bankrotlik holatidan);

– to‘lov qobiliyatini yo‘qotish holati vujudga kelgunga qadar bo‘lgan riskni sug‘urtalash.

Tijorat qarzlar sug‘urta obyekti hisoblanadi. Eksportchi sug‘urtalanuvchi – import tovarlarni kontragent uchun qabul qiluvchi. Kontragent shartlariga ko‘ra tijorat qarzlar tovar yoki xizmat ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

Tayanch tushunchalar

Franshiza – sug‘urta shartnomasi shartlarida ko‘zda tutiladigan sug‘urtalovchining zararni qoplashdan ozod etiladigan qismi. Franshiza sug‘urta summasiga nisbatan foizlarda belgilanadigan shartli va shartsiz franshizalarga bo‘linadi. Shartli franshizada sug‘urtalovchi belgilangan franshiza summasidan oshmaydigan zararni qoplash javobgarligidan ozod etiladi. Bu holda, agar ko‘rilgan zarar miqdori franshiza summasi miqdoridan oshib ketsa, sug‘urta kompaniyasi zararni to‘liq qoplaydi. Shartsiz franshizada ko‘rilgan zarar franshiza summasidan chegirilib qoplanadi.

Sug‘urtalovchilar uyushmasi – sug‘urta faoliyatini muvofiqlashtirish, uyushma a’zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug‘urta kompaniyalari va xorijiy sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida o‘zaro foydali aloqalarни o‘rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug‘urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o‘zaro sug‘urtalash jamiyatlarini xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug‘urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya Sug‘urtalovchilar uyushmasini misol keltirish mumkin. Hozirgi paytda O‘zbekistonda sug‘urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug‘urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sug‘urta hodisasi – stixiyali, ya’ni tabiiy yoki oldindan ko‘rib bo‘lmaydigan voqeа-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug‘urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug‘urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi.

Mulkiy sug‘urtada sug‘urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong‘in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqa tabiiy ofatlar tushuniladi. Shaxsiy sug‘urtada esa sug‘urta hodisasiga fuqarolarning ma’lum bir muddatgacha yashashi, ularning hayotida baxtsiz hodisalarning ro‘y berishi yoki o‘limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug‘urta hodisasi ba’zan «fors-major» deb yuritiladi.

Riskni baholash – risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli hollatlarni natura va qiymat ko‘rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisi-

ga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezonini hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan vaqtidan, sug'urtalananuvchining o'llimiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki, tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta obyekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalananuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishini maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa heradi.

Nazorat savollari:

1. *Eksport kreditlarini sug'urtalashning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?*
2. *Eksport kreditlari va investitsiyalari xalqaro uyushmasi (Bern ittifoqi) qachon tashkil topgan?*
3. *Markaziy eksport agentligi Praga klub qanday faoliyatni amalga oshiradi?*
4. *Eksport kreditini qaytarish javobgarligi bo'yicha sug'urta qoplamasini berishda qanday chegirmalar taqdim etish mumkin?*
5. *To'loving kechikishi bilan bog'liq bo'lgan riskni sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?*
6. *Sug'urtalananuvchi eksportyorlar hamda importyor kontragentlar bilan tuziladigan shartnomalar va ularning shart-sharoitlarini izohlab bering?*
7. *Xalqaro sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hargarortligini tasdiqlavchi asosiy omil qaysi deb o'ylaysiz?*
8. *Zararni to'lamastlik riski bo'yicha sug'urtalash qay tartibda amalga oshiriladi?*
9. *Eksporini sug'urtalash tizimi shakllanishining xalqaro tajribasiga asoslangan qanday xalqaro universal dasturlarlarni bilasiz?*
10. *Ushbu mavzu bo'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?*

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1-masala

Eksport shartnomasining summasi 100 million so'm. Sug'urta tashkilotining maksimal javobgarligi 80 foiz. Sug'urta hodisasi ro'y bergandan keyin 50 million so'mlik zarar yetkazildi.

Eksport shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini summasini toping.

2-masala

Bankdan 50 million so'm miqdorida 1 yilga kredit olingan. Kredit yillik 18 foiz. Sug'urta shartnomasi muddati 10 oy. Sug'urta tashkilotining maksimal javobgarligi 90 foiz. Sug'urta tarif stavkasi 2 foiz.

Kreditni qaytarilmaslik riski bo'yicha sug'urta mukofoti summasini toping.

3-masala

Bankdan 70 million so'm miqdorida 1,5 yilga kredit olingan. Kredit yillik 24 foiz. Sug'urta shartnomasi muddati 8 oy. Sug'urta tashkilotining maksimal javobgarligi 70 foiz. Sug'urta tarif stavkasi 3 foiz.

Kreditni qaytarilmaslik riski bo'yicha sug'urta mukofoti summasini toping.

4-masala

Eksport shartnomasining summasi 150 million so'm. Sug'urta tashkilotining maksimal javobgarligi 90 foiz. Sug'urta hodisasi ro'y bergandan keyin 70 million so'mlik zarar yetkazildi.

Eksport shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasini summasini toping.

Test savollari

1. Hozirgi kunda O'zbekiston qaysi xalqaro yo'nalishdagi sug'urta kompaniyalari bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi?

- A) AXA (Fransiya), Alliance(Germaniya)
- B) Elvia(Shveytsariya), International SOS(AQSH)
- D) BTA (Latviya), AXA (Fransiya)
- E) Elvia (Shveytsariya), Koris (Fransiya)

2. Eksport kontraktalari qanday risklardan sug‘urtaviy himoyalanadi?

- A) ijtimoiy va iqtisodiy risklar
- B) tabiiy
- D) tabiiy va texnik
- E) siyosiy va tijorat

3. Sug‘urtalovchilar to‘lov qobiliyatlarining asosi bo‘lib nima hisoblanadi?

- A) aktivlar va inajburiyatlar o‘rtasidagi me’yoriy nisbatlarga rioya qilish
- B) sug‘urta qoplamalarini o‘z vaqtida to‘lash
- D) sug‘urta zaxiralarini belgilangan me’yorlarga muvofiq shakllantirish
- E) riskni samarali boshqarish

4. Qanday holatlarda eksport shartnomalari bo‘yicha kontragentning to‘lovgaga noqobillik davri boshlandi deb hisoblanadi?

- A) bankrotlikga uchraganda
- B) sud qarori bo‘yicha sug‘urtalanuvchidan qarz undirilishi amalga oshrilganda
- D) sud tomonidan mol-mulkning yetarli emasligi aniqlanganda
- E) davlat tasarrufiga o‘lib ketishi yuz berganda

5. Nechanchi yilda «O‘zbekinvest» EIMSK markaziy eksport kredit agentligi Praga klubining teng huquqli a’zosiga aylandi?

- A) 1996-yilda
- B) 1997-yilda

D) 1998-yilda

E) 1999-yilda

6. Kredit sug‘urtasi:

- A) eksport va import qiluvchilar o‘rtasidagi vositachi bo‘lib hisoblanadi
- B) eksport va import qiluvchilar o‘rtasida tijorat hamda moliyaviy intizomni rag‘batlantiruvchi hisoblanadi
- D) eksport va import bilan shug‘ullanuvchilarga yo‘lga ketadigan xarajatlarini to‘laligicha qoplab beradi
- E) eksport va import bilan shug‘ullanuvchilarga hamma sarflangan xarajatlarini to‘laligicha qoplab beradi

7. Kredit sug‘urtasi obyekti bo‘lib:

- A) kredit oluvchi hisoblanadi
- B) kredit beruvchi hisoblanadi
- D) kreditni to‘lay olmaslik riski hisoblanadi
- E) sug‘urta kompaniyasi hisoblanadi

8. Eksport kreditini qaytarish javobgarligi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini berishda, quyida keltirilgan chegirmalarning qaysi biri qo‘llaniladi?

- A) davlat hamda munitsipal korxonalar va tashkilotlar hisobotiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan kapital summasi
- B) sug‘urtalovchi tomonidan urushlar va tabiiy ofatdan ko‘rilgan zararlar aniqlansa
- D) sug‘urtalovchi to‘lov qobiliyaiga ega bo‘lmasa
- E) sug‘urta tashkiloti offshor zonada joylashgan bo‘lsa

VII BOB
TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
INVESTITSIYA BILAN BOG'LIQ
RISKNI SUG'URTALASH

**7.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda
investitsiya bilan bog'liq riskni
sug'urtalashning ahamiyati**

Investitsiyani sug'urtalashda sug'urta obyekti bo'lib sug'urtaluvchining va sug'urtalovchi ehtimolidagi yoki uchinchi shaxs tomonidan keltiriladigan zararlar nazarda tutiladi. Bunda qonun va shartnoma majburiyatlari muammoning yechimini tashkil etadi. Agar ko'rsatilgan hodisalardan birortasi yuz bersa, u holda sug'urta kompaniyalari o'z zimmasiga olgan majburiyat asosida sug'urta qoplamasи to'laydilar.

Ko'rilgan zarar uchinchi shaxs tomonidan sodir etilmaganligini isbotlovchi dalillar bilan asoslanilmasa (keltirilgan zarar kutilmagan tasodifiy kuchlar ta'sirida sodir etilsa va h.k), javobgarlikdan ozod etish qonuni amal qilishi mumkin.

Keltirilgan zararlarning qoplanishi ikki tomonlama tasdiqlangan shartnomalarda nazarda tutilgan bandlar asosida amalga oshiriladi. Imzolangan shartnomalar asosida, sug'urtalovchi barcha sug'urta hodisasi sodir bo'lishi oqibatida ko'rilgan zararlarning qoplanish majburiyatini o'z zimmasiga oladi (hayot, salomatlik, mulk).

Quyidagi ko'rilgan zararlar sug'urta javobgarlig'i doirasida qoplanadi:

- mulkiy zarar harakatdagi va ko'chmas mulklarni tiklash uchun ta'mirlash xarajatlari qiymati, boshqa xarajatlar (jo'natish xarajatlari, qarz olish, foydani o'zlashtirish va h.k);
- moddiy zarar, davolanish va iste'mol xarajatlari;

- manaviy zarar (azob chekishni qoplash);
- boquvchisini yo'qotganlik sababli ko'rilgan zararning qoplanishi.

Kompaniya xorijiy banklar tomonidan investitsion loyihamalar va tashqi savdo shartnomalarini moliyalashtirish uchun qulay sharoit yaratish maqsadida hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarning jalb etishni rag'batlantirish maqsadida O'zRVM 23.XI. 1994-y, № 565-sonli qarori bilan «O'zbekinvest International» siyosiy riskdan sug'urtalash qo'shma kompaniyasi tashkil etildi.

«O'zbekinvest International» qo'shma kompaniyasi siyosiy risklarning quyidagi turlari bo'yicha sug'urta qoplamlarini taqdim etadi:

- investitsiyalarni sug'urtalash;
- shartnomani bekor qilishdan sug'urtalash;
- kafolat bo'yicha majburiyatlarni bajarishni noqonuniy talab qilishdan sug'urtalash;
- ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini umumiy risklardan sug'urtalash.

Investitsiyani bevosita sug'urtalashda turli subyektlar bilan zarur shartnomalar tuziladi.

Bevosita beriladigan investitsiyalar bilan bog'liq risk quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tabiiy ofat, bo'ron, kuchli to'lqin, er qimirlashi, suv toshqini, kuchli sovuq, do'l, sel, sayoz suvda turib qolish kabi tabiat hodisalarga;
- yong'in riski. Bunga tabiiy ofat (masalan, yashin urish)lar va shu bilan bir qatorda ishlab chiqarishdagi holat (texnologik nosozlik)lar ham sabab bo'lishi mumkin;
- texnik risk. Bunday sug'urta risklari qurilish, inshootlar manbai, tekshiruvdagi nosoz qurilgan inshootlardan foydalanish davridagi sodir bo'lgan favqulodda sabablar;

– siyosiy risk bo‘yicha ishlab chiqarishni milliylishtirish, sarmoyani millylashtirish, umummilliy qo‘zgalonlar, fuqarolar namoyishlari, harbiy harakatlar, davlat va mahalliy hokimiyatlarning ta’siri;

– uchinchi shaxsning ta’siri. O‘girlik, talonchilik, ta’magirlik va shunga o‘xhash holatlar;

– xo‘jalik riski. Bozor konyukturasining o‘zgarishi natijasida ko‘rilgan sug‘urtaviy zararlar. Ular maxsus sug‘urta fondlari hisobidan qoplanadi.

Mulk sug‘urtasi bo‘yicha sug‘urtalashda korxonaning asosiy fondlari, ko‘chmas mulki, qurilmalari, ombordagi mahsulotlarni yo‘qotish yoki buzilishi natijasida ko‘rilgan zararlarni qoplashdan iborat.

Buning uchun mijozning xohishiga ko‘ra sug‘urta himoyasi alohida risklar bo‘yicha taqdim etilishi mumkin:

– korxonaning asosiy fondlari, ko‘chmas mulki va qurilmalarni avariyadan, buzib o‘girlab ketishdan, yong‘in, tabiiy ofatdan sug‘urtalash;

– mashina va uskunalarni buzilishdan sug‘urtalash;

– ishlab chiqarishda uzilish natijasida ko‘rilgan zararlarni sug‘urtalash.

Turli texnologik tavsifdagi risklar ehtimolini oshiruvchi keng miqiyosli zamонавиј ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida texnika risklarini sug‘urtalash tobora dolzarblashib bormoqda.

Siyosiy risk bo‘yicha ko‘riladigan zararlar mulk sug‘urta-si bo‘yicha sug‘urta shartnomasida nazarda tutilmasligi mumkin. Shu bilan bir qatorda, siyosiy risk o‘zining aniq statistik bazasiga ega emas. Zararlarning kelib chiqishini oldindan aniqlash murakkab. Mazkur holatlarning kelib chiqishi investor uchun halokatli xarakterga ega. Ana shuning uchun ham ularidan yuqori miqdorda kompensatsiya summasi talab qilinadi.

Bu kabi sharoitlarda investorlarni himoya qilishda davlat muhim rol o‘ynaydi.

Davlat investorlarga o‘z sarmoyalarini kiritishda kafolat, ishonchli himoya funksiyasini bajaradi, ayni paytda, shu bilan investorlar faoliyati davlat tomonidan himoyalangan bo‘ladi. Bunda davlatlar o‘zlarining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda yondashadilar.

Masalan, chet ellik investorlar mamlakatning o‘z investorlari bilan teng ravishda hududda qonuniy amal qilayotgan har qanday sug‘urta himoyasi huquqidan foydalanadilar. Chet el investitsiyalari siyosiy va boshqa risklardan sug‘urta qilish, xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlarning eksport-kredit agentliklari, boshqa sug‘urta kompaniyalari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

«Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida, chet el investitsiyasi milliy lashtirilmasligi, musodara qilinmasligi qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda, noqonuniy olib keltingan investitsiya tovar yoki tovar kredit ko‘rinishida amalga oshirilgan bo‘lsa, bu holatda investitsiyalar musodara qilinishi mumkin. Investitsiyani milliy lashtirish yoki rekvizitlashtirish holatlari jinoiy tusga ega bo‘lmasa, u holda investor uchun musodara qilin-gan o‘z investitsiyasi miqdorini qaytarib olish huquqi qonuniy kafolatlanadi.

7.2-§. Investitsiya riskini sug‘urtalovchi xalqaro tashkilotlar

Hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining rivojlanishini globallashirishda asosiy yo‘llaridan biri chet el investitsiyasi ko‘rinishidagi kapital oqimiga berilgan imkoniyatdadir. Investitsyaning o‘ziga xos tomoni shundan iboratki, kapital egasi o‘z investitsiyasini boshqa davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga yo‘naltiradi. Chet el investitsiyasining boshqa davlat hududida joylashtirilishi aksariyat hollarda turli xavf-xatarlarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati qarorlari

bilan o'ziga xos risklarni sug'urtalashni ta'minlovchi yirik ixtisos-lashgan tashkilotlar tuzildi.

«O'zbekinvest International» qo'shma kompaniyasi O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini siyosiy risklardan sug'urtalash maqsadida tashkil etilgan bo'lib, u sarmoyalarni musodara qilishdan, ekspropriatsiya (mulkni tortib olish)dan, mulkni milliylashtirishdan, mulkdan mahrum qilishdan, qo'shimcha ravishda tanlovli diskriminatsiyadan, aktivlardan majburan mahrum etilishidan, eksport-import embargosi(ta'qiqlash) dan, litsenziyaning bekor qilinishidan, urush va fuqarolar g'alyonidan, hukumat shartnomasi bekor qilinishidan, hukumat kaflatlari noqonuniy yo'q etilishidan, savdo shartnomasi bekor qilinishidan sug'urtalaydi.

Respublikada investitsiya siyosatining olib borilishi, barcha sohalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb etish uchun keng yo'l ochib berib, bu iqtisodiyotni rivojlantirishda ijobjiy natijalarga olib kelmoqda.

O'zbekiston hududida investitsiya faoliyatining asosi O'zbekiston Respublikasining qabul qilingan «Investitsiya faoliyati to'g'-risida»gi Qonuni hisoblanadi. Mazkur Qonunga ko'ra, sarmoyalalar pul mablag'lari, maqsadli bank jamg'armalari, paylar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiya, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziya (faoliyat yuritish uchun ruxsatnoma) lar, kreditlar, turli mulklar va mulkiy huquqlar, aqliy boylik kabilardan iborat bo'ladi.

Foyda hamda ijobjiy-ijtimoiy samaralar olish maqsadida tadbir-korlik va boshqa faoliyat uchun yo'naltirilgan aqliy boyliklar (ixtiro, kashfiyat, «nou-xau» va boshqalar) ham investitsiya tarkibiga kiritiladi.

«Investitsiya faoliyati to'g'-risi»dagi qonunga va O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra belgilangan ekologik sanitariya-gigiyena va boshqa me'yorlar talabiga javob bermaydigan obyektlar uchun investitsiyalar yo'naltirish taqiqilanadi.

Kompaniya investitsion faoliyati yo'nalishlarining ishonchliligini baholashni hisobga olgan holda rezervlarni faol joylashtiradi. Kompaniyaning investitsion siyosati sug'urta rezervlarini joylash-tirish vazifasini tizim va baho qaltisliklarining diversifikatsiyasini hisobga olgan holda amalga oshirish bo'lib, bunday dastaklarning yuqori likvidligida inflatsiyaga nisbatan musbat bo'lgan, sezilarli daromad olishga imkon beradigan moliyaviy manbalar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi.

Sug'urta kompaniyalarining aktiv investitsiya faoliyati iqtisodiyotda amal qilayotgan investitsiya siyosatiga asosan olib boriladi.

Chet el investitsiyasidan foydalanishning turli shakllari mavjud.

Masalan, qabul qilingan qonunga asosan har bir investor davlat hududiga investitsiya kiritish huquqiga ega. Investitsiya kiritish:

- birgalikda tashkil etiliyotgan korxonaning nizom kapitalida pay, aksiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlar chiqarish kabilarda qatnashish;
- korxonani mutloq chet ellik sarmoyadorning sarmoyasi hisobi-ga tashkil etish yoki chet ellik huquqiy shaxsning bo'limini ochish,
- portfelli sarmoya yoki qimmatbaho qog'ozlarni o'zlashtirish;
- tovar kreditini joriy etish (bunda tovarni eksport va import qiliш muddati 60–90 kunni tashkil etishi kerak).

Investitsiya joylashda, uning faoliyati davomida ko'rildigan zararlarni bartaraf qilishning turli yo'llari mavjud (tovar va moliyaviy kreditlar sug'urtalanadi). Portfelli investitsiya yo'qotish ehitimolidan, aksiya va obligatsiya narxlarini rejalashtirish usulida himoyalashdan iborat bo'ladi.

Chet el investitsiyalarining sug'urta kafolatini Xalqaro Tiklanish va Taraqqiyot Bankiga a'zo bo'lgan xalqaro agentlik (MIGA) amalga oshiradi. Xalqaro agentlikning vazifasi rivojlanayotgan davlat-larga olib kirilayotgan investitsiyalarni turli yo'llar bilan rag'bat-lantirishdan iborat Investitsiya riskiga qarshi kafolatlash imkoni:

- valutalarni o'tkazish, urush, ichki tartibsizliklarda davlat tomonidan shartnomalar shartlari buzilganda;

– kengash xizmatlarining agentlik a’zolari tomonidan chet el kapitali to‘gri joylanishi yuzasidan maslahat xizmatlari olib borishda amal qiladi.

Valuta o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan sug‘urta riski investorni ehtimoldagi zarardan himoya qiladi.

Xalqaro agentlik (MIGA) tomonidan kapitalni to‘liq ekspropriatsiya qilganda sug‘urtalangan investitsiyaning nominal qiymati to‘lanadi.

Ssuda sug‘urtasi va ssuda sug‘urtasini kafolatlashni «Xalqaro sug‘urtaviy izlanish assotsiatsiyasi» (MASI) amalga oshiradi. Agarda ko‘rilgan zarar to‘g‘ridan to‘g‘ri urush va ichki tartibsizliklar oqibatida sodir etilgan bo‘lsa, MIGA hamda MASI ularga a’zo bo‘lgan rivojlanayotgan davlatlar uchun qo‘srimcha investitsiyalarini sug‘urtalashni amalga oshiradi.

Rivojlanayotgan davlatlar uchun qo‘srimcha investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarga, ya’ni ishlab chiqarishni kengaytirish, modernizatsiyalash yoki korxonalarini xususiylashtirish uchun beriladi.

Kompaniya tomonidan Yevropa Hamjamiyati, AQSH, Rossiya va Janubiy Sharqiy Osiyoning qator yirik sug‘urta va qayta sug‘urtalash kompaniyalari, moliyaviy institutlari bilan yaqin aloqalar yo‘lga qo‘yilgan.

Masalan, AQSHda chet el investitsiyasi bilan shug‘ullanuvchi korporatsiya – OPIK (OPIC – Overseas Private Investment Corporation) ixtisoslashgan agentligi mavjud bo‘lib, u 1969-yilda tashkil etilgan. Bu tashkilot, o‘z navbatida, Amerika Qo‘shma Shtatlari investitsiyalarini boshqa mamlakatlarga joylashtirishda sug‘urtaviy himoyani amalga oshiradi. «Tashqariga yordam» yo‘nalishi bo‘yicha 140 ta davlat bilan aloqa o‘rnatgan OPIK investorlarni uch xil dastur yo‘nalishi bo‘yicha himoya qiladi:

Birinchisi, Mulk sug‘urtasi bo‘yicha ekspropriatsiya yoki milliy-lashtirish bo‘yicha siyosiy risk, milliy valutaning barqarorligini ta’minlash, mulk shikastlanishi, xalq qo‘zg‘aloni tufayli ko‘rilgan zarar, siyosiy rejim o‘zgarishidan.

Ikkinchisi, loyihalarni moliyalashtirish hamda qisqa va uzoq muddatli zayomlarni taqdim etish bilan xususiy investorlarni kreditlash.

Uchinchisi, investorlar uchun investitsiya kiritadigan mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy holatiga oid maslahat xizmatlarini amalgalashiradi.

OPIK sug'urta kompaniyasi dasturida qayd etilishicha, AQSH qonunchiligi asosida huquqiy shaxs sug'urtalangan kapital miqdorining 95 foizini sug'urta qoplamasida tariqasida olish huquqiga ega.

Quyidagi investitsiya turlari sug'urta obyekti bo'lishi mumkin:

- bevosita investitsiya, shu julmadan, qurilish-montaj ishlari, ishlab chiqarish modernizatsiyasi;
- aksiya va qimmatbaho qog'ozlarda ishtirok etish huquqi;
- savdoni xalqaro lizing asosida litsenziyalashga bog'liq bo'lgan multk huquqi;
- ssudalar va qarzlar;
- boshqa xildagi sarmoyalar.

OPIK bo'yicha, sug'urtalashning alohida xususiyati, davlatlarining kelishivi asosida kapital qo'yilmalar bo'yicha amalgalashiradigan ikki tomon manfaatlarini ko'zlovchi shartnomalarning rasmiylashuvdir.

OPIK va O'zbekiston o'ttasida 1998-yildan boshlab o'rnatilgan hamkorlik munosabatlariga muvofiq, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan xususiy investorlarni siyosiy xavfdan himoya qilish imkoniyati vujudga keldi.

Bu tashkilot bilan sug'urta shartnomalari uzoq muddatga, ya'ni 12-yildan 20-yilgacha imzolanishi mumkin. Shartnomalarning sug'urta summasida bitta loyiha 150 million AQSH dollariga teng. Bunda sug'urta summasi loyiha qiymatining 90 foizini tashkil etadi. Qolgan 10 foizi sug'urtalovchining hisobidan qoplanadi.

Valuta almashtirish bo'yicha sug'urta xavfi sodir bo'lganida, ya'ni olingan foyda va kapitalni aniq, barqaror valutaga almashti-

rish imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda o'zgarmas kurs bo'yicha sug'urta qoplamasi berilishi ko'zda tutilgan.

Investitsiyani ekspropriatsiya va moliyalashtirish xavfidan sug'urtalashda sug'urta himoyasining amal qilishi davlat organlari tomonidan yuzaga chiqarish imkoni bo'lmagan taqdirdagina amalga oshiriladi.

OPIKning butun faoliyati davomida chet elda faoliyat ko'rsatayotgan amerikalik sarmoyadorlarning 1 foizigina sug'urtalangan.

Tayanch tushunchalar

Siyosiy risk – davlat organlarining xatti-harakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab bo'yicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush harakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumning o'zgarishi, qonun hujjalardagi o'zgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish tashlashlari, milliylashtirish, konfiskatsiya kabilalar kiradi. Siyosiy risk ro'y bergan vaqtida sug'urta kompaniyasi javobgarlikdan ozod bo'ladi. Chunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta lanishi mumkin.

O'zaro sug'urtalash jamiyati – foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSH va Yaponiyada, asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidadir. Hozirgi paytda Yaponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4 foizni tashkil etadi.

Nazorat savollari:

1. *Investitsiya risklari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Invetitsiyalarni qaysi risklardan sug'urtalasa bo'ladi?*
3. *Investitsiya riskini sug'urtalovchi qaysi xalqaro tashkilotlarni bilasiz?*

4. AQSHda chet el investitsiyasi bilan shug'ullanuvchi korporatsiyani qanday nomlanadi?
5. OPIK (OPIC - Overseas Private Investment Corporation) ixtisoslashgan agentligi qachon tashkil topgan?
6. Investitsiya sug'urta riskining asosiy tamoyillarini izohlab bering?
7. Bevosita heriladigan investitsiyalarda risk sug'urtasi qanday amalgalashiriladi?
8. Investitsiya sug'urta riskini amalgalashiruvchi xalqaro tashkilotlarning vazifasi nimada?
9. Investitsiya sug'urta javohgarligida qo'llaniladigan franchiza usulining mohiyati nimadan iborat?
10. Xedjirlashtirish qaysi holatda qa'llaniladi?
11. Ushhu mavzu bo'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?

Mustaqil o'rghanish uchun topshiriqlar

1-masala

Investitsiya shartnomasi, shartnomasining summasi 500 million so'm. Sug'urta summasi 300 million so'm. Sug'urta shartnomasi faqat valuta kursini o'zgarishidan sug'urta qilingan. Sug'urta hodisasi ro'y bergandan keyin 100 million so'mlik zarar ko'rildi. 10 foiz tabiiy ofatlardan, 20 foiz xalq g'alayonlaridan va 70 foiz valuta kursini o'zgarishidan.

Investitsiya shartnomasi bo'yicha sug'urta qoplamasi summasini toping.

2-masala

Investitsiya tashkiloti bitta dasturga 700 million so'mlik sarmoya qildi. Sug'urta shartnomasi summasi 700 million so'm. Sug'urta tarif stavkasi 5 foiz. Shartsiz franchiza 2 foiz, sug'urta tarifiga chegirma 2 foiz. Zarar 200 million so'm.

Sug'urta mukofoti va sug'urta qoplamasi summasini toping.

3-masala

Investitsiya tashkiloti yangi qurilishga 500 million so'mlik sarmoya qildi. Sug'urta shartnomasi summasi 400 million so'm. Sug'urta tarif

stavkasi 4 foiz. Shartli franshiza 1,5 foiz, sug‘urta tarifiga chegirma 2 foiz. Zarar 100 million so‘m.

Sug‘urta mukofoti va sug‘urta qoplamasini summasini toping.

Test savollari

1. O‘zbekistondagi qaysi sug‘urta tashkilotlarining Londonda qo‘shma korxonasi mavjud?

- A) «O‘zbekinvest» EIMSK
- B) «ALSKOM» sug‘urta tashkiloti
- C) «Madad» sug‘urta agentligi
- E) «Kafolat» DASK

2. O‘zhekiston hududida investitsiya faoliyatining asosi bo‘lib qaysi qonuniy hujjat hisoblanadi?

- A) «Investitsiya to‘g‘risidagi» qonun
- B) «Tashqi iqtisodiy faoliyat» to‘g‘risidagi qonun
- D) «Bank va bank faoliyati» to‘g‘risidagi qonun
- E) «Sug‘urta faoliyati» to‘g‘risidagi qonun

4. Chet el investitsiyalarining sug‘urta kafolatini qanday agentlik amalga oshiradi?

- A) MIGA
- B) OPIK
- D) MASI
- E) ICC

5. AQSHda chet el investitsiyasi bilan shug‘ullanuvchi korporatsiyaqaysi?

- A) MIGA
- B) OPIK
- D) MASI
- E) ICC

6. Qaysi qo'shma sug'urta tashkiloti hukumat qaroriga asosan tashkil etilgan?

- A) ALSKOM
- B) UzAIG
- C) O'zbekinvest
- D) Kafolat

7. Xalqaro sug'urta nazorati assotsiatsiyasi qachon tashkil etilgan?

- A) 2001-yil
- B) 1994-yil
- C) 2005-yil
- D) 1936-yil

8. O'zaro sug'urtalash jamiyatlarining assotsiatsiyasi qayerda joylashgan?

- A) Amsterdamda
- B) Jenevada
- C) Tsyurixda
- D) Londonda

9. Kreditlarni sug'urta qilish halqaro assotsiatsiyasi qayerda joylashgan?

- A) Amsterdamda
- B) Jenevada
- C) Tsyurixda
- D) Bryusseldda

10. Xalqaro aktuariylar tashkiloti qachon tashkil topgan?

- A) 2001-yil
- B) 1994-yil
- C) 1895-yil
- D) 1941-yil

VIII BOB
**TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA
BOSHQA SUG'URTA TURLARI
VA ULARNING SHARTLARI**

**8.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda
boshqa sug'urta turlari**

Ma'lumki, savdo munosabatlarini hududiy o'zaro yaqin joylashgan mamlakatlar o'rtasida takomillashtirish maqsadida yuklarni yetkazib berishda, avtomobil transportidan foydalanish – jahon mamlakatlari iqtisodiy munosabatlarida xarakterli hol. Avtotransport sug'urtasida transport vositalarining mexanizmlari va boshqa qismlari sug'urta obyekti sifatida ishtirok etadi. Ushbu sug'urta da sug'urtalanuvchi o'z mulki yoki ijara qilganda olgan transport vositasini sug'urta qilishi nazarda tutiladi. Bunda, sug'urtalanuvchi mulkiy manfaatlar nuqtayi nazaridan transport vositasini sug'urta qiladi. Transport vositalarini sug'urtalash amaliyotida turli usullar qo'llaniladi. Har bir usulda sug'urtalovchining majburiyati o'ziga xos ko'rinishda bo'ladi. Variantlar bir-biridan sug'urta shartnomalarini va risk hajmi bilan farq qiladi. Sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan turlariga ko'ra ko'rilgan zararlar, yo'qotishlar qisman yoki to'la qoplanadi.

Shartnomada ko'rilgan zararni to'liq qoplash ko'rsatilgan bo'lishi mumkin, ammo hodisa texnik holatlar (shinalar ishdan chiqsa yoki ishlab chiqaruvchi zavod transportni texnik nosozlik bilan chiqarganligi aniqlansa) bilan bog'liq bo'lsa, u holda ko'rilgan zararlar to'liq qoplanmaydi. Sug'urta shartnomalarida tabiiy ofat, yong'in, portlash, yo'l transporti hodisasi sodir bo'lganida, yuk utilansa, detallari olib ketilgan hollarda ko'rilgan zarar qisman qoplanishi mumkin.

Avtomobil va boshqa transport vositalari, ularning haqiqiy bahosi bo'yicha sug'urtalanadi. Avtotransport sug'urtasi bo'yicha shartnomalar bir necha guruhga bo'linadi:

- avtotransport vositalarining alohida sug'urtasi dunyo mammalakatlari o'rtasida keng tarqalgan bo'lib, «Kasko sug'urtasi» deya ataladi. Undan tashqari, transport vositalarida tashiladigan barcha yuklarni transport vositalarisiz sug'urta qilishning «Kargo sug'urtasi» ham mavjud;
- ba'zi hollarda bir vaqtning o'zida ikki xil sug'urta turlaridan foydalanish mumkin. Unda transport vositasi, yuk va haydovchi birgalikda sug'urta qilinadi;
- transport vositalari egalarining uchinchi shaxs tomonidan keltililgan zarar uchun fuqarolik javobgarligi sug'urtasi.

Ba'zan avariya sababchisi bo'lgan shaxsn ni aniqlash imkoniyati bo'limganda yoki avariya ataylab sodir etilganida va, shu bilan birga, sug'urta shartnomasi muddati tugagan bo'lsa, u holda jabrlanuvchini himoyalash uchun Germaniyada maxsus fond tashkil etilgan. Bu fond hisobidan sug'urta qoplamasni beriladi.

Transport vositalarini sug'urtalashdagi muhim ko'rsatkichlardan biri dvigatel quvvatiga ko'ra belgilangan tarif stavkalaridir. Barcha sug'urta kompaniyalari sug'urta tarifini belgilashda bir necha sabablarni hisobga oladilar. Masalan, texnik holati, silindr hajmi, yuk ko'tarish darajasi, o'rindiqlar soni. Xalqaro savdo munosabatlari rivojida avtotransport vositalarining o'rni beqiyos. Bu esa bugungi kunda avtotransport sug'urta tizimini xalqaro talablar darajasiiga olib chiqishni taqozo etadi. Avtotransport vositalarini xalqaro miqyosda sug'urtalash tizimi joriy etilgan bo'lib, bu «Yashil karta» tizimi deb nomlanadi. «Yashil karta» tizimi 1953-yil 1-yanvardan boshlab kuchga kirgan.

O'zbekistonda Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi, o'z navbatida, O'zbekistonning boshqa xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirmoqda. «Yashil karta» tizimida faoliyat olib borish uchun talab etiladigan asosiy shartlardan

biri «majburiy avtofuqarolik javobgarligini sug‘urtalash» bo‘yicha qonunning qabul qilinishi, «Yashil karta» tizimida ishtirok etishni istagan davlatlarning har birida Milliy byuro tashkil etilishi, bunga barcha chetga chiqadigan avtoulovli fuqarolari a’zo bo‘lishlari kerak bo‘ladi.

O‘z vaqtida sotsialistik davlatlarda majburiy avtofuqarolik javobgarligini sug‘urtalash amalga oshirilgan va u «Ko‘k karta» nomi bilan faoliyat olib borgan. Uning faoliyati ham «Yashil karta» faoliyatiga o‘xshashdir. Hozirgi kunda Polsha, Vengriya, Chexiya, Slovakiya va, shuningdek, Boltiqbo‘yi respublikalari (Litvadan tashqari) «Yashil karta» ning ishtirokchisi.

«Yashil karta» shartnomasida ishtirok etayotgan davlatlarda avtotransport vositalarining sug‘urta javobgarligi sug‘urta polisida qayd etilganidek, ehtimoldagi hodisa uchun javobgarlik teng olib borilishi ko‘zda tutilgan. «Yashil karta»ning asosiy elementi «Milliy byuro» hisoblanadi. Bu byuro orqali barcha transport harakatlari nazorat qilib turiladi. Sug‘urta hodisalari ro‘y berгganda «Milliy byuro» sug‘urta kompaniyaлari bilan hamkorlikda muayyan miqdorda sug‘urta qoplamlari berilishini tashkil etadi. Milliy byuro, o‘z navbatida, xalqaro byuroga birlashgan bo‘lib, ularning qarorgohi Londonda joylashgan.

Dengizlar orqali yuk tashish hajmi kengayib borayotganligi sababli, kemalarni turli sug‘urta hodisalaridan sug‘urtalash muhim rol o‘ynamoqda. Shu sababli bunday sug‘urtada sug‘urta javobgarligining quyidagi turlari inobatga olingan: barcha keltirilgan zarar, shu jumladan, yo‘lovchilar hamda kema ekipaji a’zolarining hayoti, salomatligiga keltirilgan zarar, shuningdek, boshqa shaxslarning mulklari bo‘yicha sug‘urta javobgarligi. Dengiz sug‘urtasi kemalar, yuklar va fraxt sug‘urtasi, kema ekipajlarining uchinchi shaxs oldidagi javobgarlik sug‘urtasi shaklida amalga oshiriladi. «Fraxt» uchinchi shaxs oldidagi javobgarlik ma’nosini anglatadi.

Yevropa mamlakatlarida, dengiz sug‘urtasi bo‘yicha o‘ziga xos qoidalar mavjud. Dengiz transporti (kema)ni sug‘urtalashda bir

necha sug‘urta kompaniyalari bir vaqtning o‘zida qatnashishlari mumkin. Bunda, asosan, yetakchilik qilayotgan sug‘urta kompaniyasi bilan kelishib olinadi. Boshqa sug‘urta kompaniyalari esa yetakchi kompaniya rahbarligida faoliyat yuritadi.

Kema egalarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida, hamkorlikda sug‘urtalashni amalga oshiruvchi klublar tashkil etilgan. Sug‘urta hodisasi natijasida ko‘rilgan zarar sug‘urtalovchi bilan sug‘urtalanuvchi o‘rtasida imzolangan shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Bunday klublar ko‘pgina iqtisodiy rivojlangan davlatlarda faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zaro sug‘urtalash kompaniyasi 1720-yilda Londonda tashkil etilgan. Unga ko‘ra, sodir etilgan zararlarni «O‘zaro sug‘urtalash» kompaniyasi kafolatlaydi. Hozirda dunyoning 70 ga yaqin davlatlarida kema egalarining o‘zaro sug‘urtani amalga oshiruvchi klublari faoliyat ko‘rsatmokda, mazkur shoxobchalar qarorgohlari Buyuk Britaniya, AQSH, Shveysariya, Norvegiya, Yaponiya kabi davlatlarda joylashgan.

Eng yirik o‘zaro sug‘urta kompaniyalaridan biri «Bermud assotsiatsiya»sidir. Bu tashkilotning faoliyati baynalmilal ko‘rinishda bo‘lib, tashkilot kema egalarining millatidan, kemalarining hajmidan qat‘i nazar, shartnomalar tuzadi. «Bermud assotsiatsiyasi» yo‘nalishi bo‘yicha «Ingosstrax» ASK faoliyat olib boradi. Bu tashkilotlarning sug‘urta fondi kema egalarining o‘tkazgan sug‘urta mukofotlari hisobidan tashkil etiladi. Jamg‘arma hisobidan kema, yuk bo‘yicha sodir bo‘ladigan sug‘urta hodisasi qoplanadi. Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy asoslari sug‘urta badallari hisobidan shakllanadi. To‘lanadigan mukofotlar kemalarining hajmiga, ortilgan yuklarning miqdoriga (tonna), masofasiga, sug‘urta javobgarligi miqdoriga hamda milliy qoidalar talabiga bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Sug‘urta risklarida yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillardan tashqari, atrof muhitni ifloslantirishning oldini olish bo‘yicha ham sug‘urta javobgarligi amalga oshiriladi. Buning asosiy sababi shundaki, ho-

zirda neft mahsulotlarining katta qismi dengiz suv yo'llari orqa-li tashilmoqda. Ba'zan texnik nosozliklar tufayli neft mahsulotlari okean va dengizlarga oqib ketish hollari sodir bo'lmoqda. Shu bois, bunday holatlarning oldini olish maqsadida fuqarolik javobgarligi bo'yicha xalqaro konvensiya (1969-yil Bryussel) qabul qilingan bo'lib, u 1975-yildan to'liq kuchga kirgan. Bu konvensiya talabiga ko'ra ikki ming tonnadan ortiq neft mahsuloti bo'lgan har bir kemaga tegishli sertifikat hamda sug'urta javobgarligi «polney» berilishi nazarda tutilgan. Bunday sertifikatga ega bo'lmagan kemalar, neft va neft mahsulotlarini konvensiyaga a'zo davlatlar hududidan olib o'tish huquqiga ega emaslar.

Dunyo miqyosida neft va neft mahsulotlarini tashishga bo'lgan talabning ortib borayotganligi bois, tankerga ega bo'lgan tashkilotlar o'zaro xalqaro kelishuvlarga asoslanib faoliyat ko'rsatmoqlardar. Bunday tashkilotlarning maqsadi – suv sathining neft va neft mahsulotlari bilan ifloslanishini oldini olishdir.

Shartnomalariga asosan kema egasi barcha keltirgan zararni qoplashi kerak. Bugungi kunda xalqaro yo'nali shda xizmat ko'rsatayotgan tankerlarni sug'urtalovchi xalqaro sug'urta assotsiatsiyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

8.2-§. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda qayta sug'urtalashning roli

Qayta sug'urtalash bozorini jahon talablariga mos ravishda rivojlantirish, xalqaro sug'urta bozorida faoliyat olib borish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim rol o'ynaydi. Xalqaro sug'urta bozorida dunyoning yirik sug'urta kompaniyalarini birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urtalash operatsiyalarini amalga oshirish uchun birlashadilar. Dunyoning yetakchi sug'urta va qayta sug'urtalash hamda risklarni diversifikatsiya qilish brokeri «Aon benifield» ning so'ngi tahlil ma'lumotlariga ko'ra, yalpi

qayta sug‘urtalash kapitali dunyo bo‘yicha 2012-yilda 505 milliard AQSH dollariga yetgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 11 foizga oshgan. Inqiroz davrini hisobga olmaganda barcha yillarda qayta sug‘urtlaash mukofotlarining yildan yilga o‘sib borishi kuzatilgan. Hozirgi kunda tahlilchilar fikriga ko‘ra jami sug‘urta mukofotlarining 35–40 foizini qayta sug‘urtalash mukofotlari tashkil qiladi.

Qayta sug‘urtalashni O‘zbekistonda yanada takomillashtirish uchun, xalqaro amaliyotda qayta sug‘urta shartnomalarini tartibga solishda umum e’tirof etilgan ayrim shartlarni o‘rganib chiqish yaxshi samara beradi. Xalqaro obligator qayta sug‘urtasi shartnomalarda ba’zi shartlar unchalik katta bo‘lmagan darajadagi o‘zgarishlar bilan qo‘llanilishi mumkin. Shartnomada ishlatiluvchi kichik shartlar mazmuni qayta sug‘urtaning qanaqa turi qo‘llanilishiga qarab o‘zgarishi boshlangan. An’anaviy kichik shartlarda qayta sug‘urta to‘lovlaringin miqdorini aniqlash texnikasi va hisob-kitobini olib borish usullarining o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilinadi.

«Taqdir va hisob-kitob orqasidan borish». Ushbu shartga muvofiq, qayta sug‘urtachi faqat tashqi sabab bilan ro‘y bergan zararlar uchun javobgar hisoblanadi. Tashqi sabab natijasida yuz bergen zarar turiga to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachining xatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan omillar ta’sirida yuzaga kelgan zararlar kiradi. Bu esa to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachi yuzma-yuz to‘qnashgan majburiyatlarga qayta sug‘urtachi ham duch kelishini bildiradi. Shu sababli, qayta sug‘urtachi sedent tomonidan amalga oshirilayotgan to‘lovlarni e’tibor bilan kuzatib borishi lozim. «Taqdir orqasidan borish» kichik shartiga muvofiq, sug‘urtachi va qayta sug‘urtachi zarardagi o‘z ulushlarini qabul qilishi zarur. Shu bilan birga, qayta sug‘urtachi o‘zining manfaatlarini himoya qilish maqsadida, qayta sug‘urta shartnomasiga qator shartlar kiritishi huquqiga ega. Masa-lan, agar sug‘urtachi o‘z ishini mukammal biluvchi hisoblansa, u hamma vaqt qayta sug‘urta shartnomasiga ega bo‘lmagan sug‘urtachi singari ish yuritsa, «Sug‘urtachi sug‘urta shartnomasiga o‘zi

zarur deb topgan o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin» mazmunidagi qo‘srimcha shart, qayta sug‘urtachi tomonidan qayta sug‘urta shartnomasiga kiritilishi mumkin. Yoki qayta sug‘urta shartnomasiga «sug‘urtachi qayta sug‘urtachining roziligesiz sug‘urta shartlariga, anderrayting tamoyillariga mustaqil o‘zgartirish kiritish huquqiga ega emas» mazmunidagi kichik shartni belgilab qo‘yishi mumkin. Qayta sug‘urtachi qayta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha olgan majburiyatni nazorat qilish uchun qo‘srimcha shartlar kiritilishi zarur deb hisoblaganda, ushbu mazmundagi shartlar qayta sug‘urta shartnomasiga kiritiladi. «Hisob-kitob orqasidan borish» tamoyilini amalda qo‘llanilishi va uni qo‘llashni cheklashlar bo‘yicha ingliz sudi qarorlaridan misol keltiramiz. 80-yillarning boshlarida AQSH-da faoliyat olib borgan to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachilar asbest ishlab chiqaruvchilarining javobgarligini sug‘urtalash natijasida ko‘p miqdordagi zararga duch keldilar. Asbestdan foydalanish natijasida yuzaga kelgan zararni qoplashda, qayta sug‘urtachini ishtirok etishi to‘g‘risida Angliya sudi qaror qabul qilgan. Qo‘zg‘algan riskni sudda ko‘rib chiqish natijasi jahondagi yirik qayta sug‘urtachilarining faoliyatiga ham jiddiy ta’sir qildi. 1984-yilda, «Velington bitimi»ga asosan to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachilar guruhi o‘z resurslarini birlashtirdilar. Birlashtirishning asosiy maqsadlaridan biri, sud xarajatlari miqdorini kamaytirish edi. Sud xarajatini kamaytirish imkoniyati, bitimni imzolagan har bir to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachi uchun paydo bo‘ldi. Chunki bitim a’zolari har bir da’vo bo‘yicha paydo bo‘lgan majburiyatlarni birgalashib bajarish zarur edi. 1991-yilda majburiyat bilan bevosita bog‘liq bo‘limgan sug‘urtachilardan biri o‘zining qayta sug‘urtachisidan to‘lovni amalga oshirishni tabab qilib ko‘rdi. U o‘z talabini qondirishni qayta sug‘urta shartnomasida belgilangan «hisob-kitob orqasidan borish» majburiyatiga asosladi. London Oliy sudi sug‘urtachiga uning sug‘urtalanmagan obyekt uchun qayta sug‘urta qoplamasini olish to‘g‘risidagi talabini rad qildi. Shunday qilib, sud «hisob-kitob orqasidan borish» shartiga asoslanib, qayta sug‘urtachi qayta sug‘urtaga qabul qilmagan

sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelgan zararni qoplاب bermasligi to'g'risida qaror qabul qildi.

«Xatolar va yanglishishlar haqida kichik shart». Borderoni tuzishda, sug'urta risklarini qayta sug'urta shartnomasiga kiritishda, ular bilan bog'liq qayta sug'urta mukofotini hisoblashda, zarar miqdorini va undagi qayta sug'urtachining ulushini hisoblashda sug'urtachi tomonidan bilmasdan, ataylab qilinmagan xatolar ushbu kichik shartga asosan, sug'urtachining qayta sug'urta qoplamasи olish huquqidан mahrum qilmaydi. Bu holatlarda, xato va yanglishishlarni topish bilan, sug'urtachi tomonidan qayta sug'urtachi ogohlantirilmog'i lozim.

«Tekshirishga (nazoratga) huquq». Yuqori darajada vijdonlilik tamoyilidan kelib chiqib, qayta sug'urtaga beriluvchi risk miqdorini hisoblashda sug'urtachi o'zaro kelishilgan anderayting tamoyillariга to'liq amal qilishi lozim. To'g'ridan to'g'ri shartnomani tuzishda sug'urtachi qayta sug'urta shartnomasiga muvofiq, ehtiyyotkorlik va batartiblik bilan ish ko'rmog'i shart. Qayta sug'urta shartnomasiga taalluqli bo'lgan sug'urtachining kitoblarini, hisob varaqalarini va boshqa shu kabi hujjatlarni tekshirish huquqini qayta sug'urta shartnomasida belgilash, yuqorida keltirilgan vijdonlilik tamoyilining buzilmasligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu huquq sug'urtachining hisob varaqalaridagi yozuvlarni, buxgalteriya kitoblarini, to'g'ridan to'g'ri shartnomasini, zararni tartibga solish to'g'risidagi hujjat va boshqa qayta sug'urta shartnomasi bilan bog'liq hujjatlarni tekshirishga tatbiq qilinadi. Amaliyotda, qayta sug'urtachilar ularga berilgan mazkur huquqdan kam foydalanadilar. Shunga qaramasdan, to'g'ridan to'g'ri sug'urta shartnomalarini tuzishda ushbu huquq, qayta sug'urtachining moliyaviy manfaatlariga rioya qilinishini ta'minlovchi kafil bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda, sug'urtachi qayta sug'urtachidan uning buxgalteriya kitoblarini, hisobotlarini tekshirishni talab qilishi mumkin. Buxgalteriya hujjatlarini tekshirishdan maqsad, qayta sug'urtachiga qayta sug'urta shartnomasi shartlariga rioya qilinishini

ko'rsatishdir yoki to'g'ridan to'g'ri sug'urta va qayta sug'urta anderrytingini soddalashtirish, yaxshilash yuzasidan bиргаликда qarorlar qabul qilishdir.

«Arbitr tayinlash to'g'risida»gi kichik shart. Deyarli barcha qayta sug'urta shartnomalarida, qayta sug'urta shartnomasining bajarilishi bo'yicha yuzaga kelgan nizolarni ko'rib chiqish maxsus tayinlangan arbitriar guruhi yuklanadi. Sudlarning umumiyligi qilib qilish huquqiga, odatda, faqat tasdiqlangan qarzdorlikning to'lanmaslik hollari bilan bog'liq nizolarni yechish vakolati beriladi. Arbitriar tarkibi uch kishidan iborat bo'ladi. Har bir tomon bit-tadan arbitr tayinlashi mumkin. Bosh arbitrni shartnoma tomonlari bиргаликда tayinlaydi. Bosh arbitrlarni tayinlash borasida tomonlar kelisha olmasa, xolis bo'lgan uchunchi tomon bosh arbitrni tayinlaydi (masalan, sud, yoki savdo palatasi). Odatda, sug'urta va qayta sug'urta jamiyatlarining xodimlari yoki pensiyaga chiqqan xodimlari arbitr vazifasiga tayinlanadi. Bundan tashqari, arbitriar guruhi majlisni sug'urtachi sendenning bosh ofisi joylashgan joyda o'tkazishga kelishib oladi. Ko'p hollarda, shartnomaning «Arbitriar to'g'risida»gi shartida arbitriar guruhining qarori adolatlilik va o'ta vijdonlilik tamoyillariga asoslanishi, ish faoliyatida shakllangan odat, me'yorlariga tayanilishi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlardan tashqari, nisbiy obligator qayta sug'urta shartnomalarida boshqa shartlar ham qo'llanilishi mumkin, masalan, lider to'g'risida yoki qo'llaniluvchi huquq tizimi to'g'risidagi kichik shartlar. Qayta sug'urta shartnomasida ishtirok etuvchi qayta sug'urtalovchilar soni ko'pchilikni tashkil qilgan hollarda, lider to'g'risidagi kichik shart qo'llaniladi. Ushbu kichik shartda lider qayta sug'urtachining qarorlarini bajarish, boshqa qayta sug'urtachilar uchun majburiyligi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan kichik shartlarni nonisbiy qayta sug'urta shartnomalarida qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Nonisbiy va nisbiy qayta sug'urta o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchi holatda sedent va qayta sug'urtachining mukofotlari tub-

dan farq qiladi. Odatda, nonisbiy qayta sug'urta shaklida to'g'ridan to'g'ri sug'urtachi past miqdorda qayta sug'urta mukofoti evaziga maksimal, keng bo'lgan qayta sug'urta qoplamasini olishga harakat qiladi. Qayta sug'urtachi esa, o'z navbatida, qayta sug'urtaga qabul qilayotgan riskka adekvat bo'lgan, qayta sug'urta mukofoti olishga va to'g'ridan to'g'ri sug'urtachi real muhtoj bo'lgan qayta sug'urta qoplarnasi bilan ta'minlashga harakat qiladi. «Zararlar va zararlik eksedenti asoslarida» qayta sug'urta shakli sendentning risklarini tanlash borasidagi anderrayterlik siyosatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Chunki yirik miqdordagi zararlar yuzaga kelgan hollarda, sendentning javobgarlik me'yori qayta sug'urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdorida chegaralanadi. Shuning uchun, «zarar eksedenti asosida» qayta sug'urta shaklida shartnomada shartining «taqdir orqasidan borish» tamoyili qo'llanilmaydi. «Xatolar va yanglishishlar» to'g'risidagi kichik shart ham «zarar ekssedenti» qayta sug'urta shartnomasining o'ziga xos xususiyatlarini va elementlarini hisobga olgan holda qo'llanilishi mumkin.

Faqat nonisbiy qayta sug'urta shartnomasida qo'llaniluvchi, maxsus kichik shartlar jumlasiga quyidagilar kiradi: «butunlay netto-zarar» to'g'risidagi kichik shart; «vaqt bo'yicha» kichik shart; «majburiyatlar va hisob-kitoblarni indeks qilish» to'g'risidagi kichik shart. Nonisbiy qayta sug'urta shaklida sug'urtachining butunlay netto-zararini qayta sug'urtachi tomonidan qoplab berilishi uchun shartnomaga «butunlay netto zarar» haqidagi kichik shart kiritilishi zarur. «Butunlay netto-zarar» – bu barcha qaytarilgan summalar chegirilgandan keyin sug'urtachiga to'lanadigan zarardir. Qaytariladigan summalarga misol: qayta sug'urtada ishtirok etuvchi qayta sug'urtachidan regress ko'rinishida qaytariladigan suimmalar, obligator yoki fakultativ qayta sug'urta shaklida sug'urtachining shaxsiy chegirmadan ushlab qolinuvchi summalar va sug'urtachiga boshqa to'lanishi lozim bo'lgan summalar. Bitta sug'urta voqeasi ro'y berishi natijasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan bir nechta sug'urta hodisalari riskini sug'urta qilish

shartnomasini obligator nisbiyga qayta sug'urtalashda tomonlar «soatli shart»da kelishib oladilar. Aniq belgilangan vaqt muddatida sodir bo'Igan barcha alohida zararlar, bitta umumiy zararlar yig'in-disiga birlashtiriladi. Shartnomada belgilangan vaqt muddatining davomiyligi riskning xarakteriga bog'liq. Odatda, yong'in, yer qimirlash, dovul yoki siyosiy risklarga qarshi sug'urtalarning qayta sug'urtasi uchun 72 soat, suv toshqini va suv bosish risklarining sug'urtasi uchun 168 soat vaqt muddati belgilanadi. Shartlarda quyidagi me'yorlar nazarda tutiladi:

Birinchi, agar sug'urta hodisasini kvalifikatsiya qilish maqsadida sug'urtaga qabul qilingan risklar birlashtirilsa, u holda, albat-ta, ushbu shart qanaqa sug'urta risklariga tatbiq qilinishi (masalan, yer qimirlashi natijasida yuzaga kelgan yong'in, yer qimirlashi-ning o'zi; dovul natijasida sodir bo'Igan suv toshqini va suv bosishi kabilar) ko'rsatiladi.

Ikkinchi, zararni birlashtirish uchun hududiy cheklanishlar boimi? Agar bo'lsa, ular qanday cheklanishlar (masalan, suv tosh-qini va suv bosishi tumanlar bo'yicha, daryoning tumanlarga ya-qinligiga qarab tumanlar bo'yicha, fuqarolarning bo'ysunmaslik harakati esa shaharlarning aniq chegarasi bo'yicha cheklanishlar).

Nisbiy qayta sug'urtada sug'urta mukofoti va zararlari sug'urtachi hamda qayta sug'urtachi o'rtasida nisbiy ravishda taqsimlanadi. Inflatsiyaning sug'urta summasiga nisbatan zarar miqdoriga ko'proq ta'sir ko'rsatishi sug'urta hodisasi bilan bog'liq to'lovlar miqdorini keskin oshishiga olib keladi. Inflatsiya ta'siri natijasida sug'urta to'lovlar miqdorining oshgan qismi sug'urtachi va qayta sug'urtachi manfaatlariga bir xilda taqsimlanadi. «Zarar eksse-denti» qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'lovlarini miqdorini oshishi ko'proq qayta sug'urtachi manfaatlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki zararning ustunlikdan oshadigan qismi o'ssada, sug'urtachining portfeli miqdori o'zgarishsiz qoladi yoki ustunlikning real miqdori kamayadi.

Mol-mulk sug‘urtasida sug‘urta qilingan mol-mulk qiymatining real bahosi inflatsiyaning ta’siri natijasida oshadi. Mos ravishda, «eksedent zarari» qayta sug‘urta shartnomasida belgilangan ustunlik miqdori esa pasayadi. Shu sababli, qayta sug‘urtachi ustunlik miqdori va sug‘urtalangan manfaatning real qiymatini o‘zgarishi bilan bog‘liq javobgarlik chegaralariga tuzatish kiritishni talab qilishi zarur. Inflatsiya ta’siri natijasida zararlar miqdorini oshish muammosi ahamiyati ayniqsa, transport vositalari egalaring javobgarligini va umum fuqarolik javobgarliklarini sug‘urta-lash sohalarida oshmoqda. Chunki ushbu sug‘urta turlarida zararlar ni tartibga solish uchun muddat talab qilinadi. Zarar miqdorining o‘sishiga inflatsiyadan tashqari, ish haqining oshishi, zararni tartibga solish jarayoniga ta’sir qiluvchi boshqa faoliyat turlarida yuz beruvchi o‘zgarishlar (huquqiy xizmat sohasi, qonunchilik, tibbiyot xizmatining qiymatini oshishi) ham katta ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Amalda aktuar hisoblarni qo‘llay turib ham zarar miqdorining bunday o‘sish me’yorini hisoblash mumkin emas.

«Eksedent zarari» qayta sug‘urta shartnomasi bo‘yicha zarar miqdorini oshishi qayta sug‘urta mukofotining miqdoriga ta’sir ko‘rsatmaydi. Shartnomaning «tuzatish yoki indeksatsiya» to‘g‘risidagi kichik shartini kiritish orqali inflatsiya omilining ta’siri hisobga olinadi. Ushbu kichik shart yordamida ustunlik va qayta sug‘urtaning majburiyati miqdori o‘rtasidagi mutanosiblik doimiy saqlanadi. Zarar miqdorining har qanday o‘zgarishi qayta sug‘urta shartnomasining tomonlari o‘rtasidagi majburiyatlar mutanosibligiga ta’sir etmaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, ko‘pgina davlatlar milliy qonunchiliklarida qayta sug‘urta munosabatlari fuqarolik huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinmaydi. Moliyaviy qayta sug‘urtaning murakkab tarkibi, kompleks apparat tushunchalari, turli maqsadlari, uni qonunchilik yordamida tartibga solishni yanada, murakkablashtiradi.

Sug‘urta huquqi bo‘yicha xalqaro uyushma tomonidan olib borilgan o‘rganish natijasi shuni ko‘rsatadiki, dunyoda ko‘plab

mamlakatlarning qonun tizimida moliyaviy qayta sug‘urta munosabatlarini tartibga soluvchi me’yorlar o‘rin olmagan (Argentina, Finlandiya, Isroil, Daniya, Fransiya). Ba’zi davlatlarda qayta sug‘urtaning bunday turi qo‘llanilmaydi (Sloveniya, Salvador va boshqa qator mamlakatlar). Moliyaviy qayta sug‘urta munosabatlari keng tarqalagan davlatlarning davlat sug‘urta nazorati idoralarining qarorlarini tahlil qilish natijasida moliyaviy qayta sug‘urtani huquqiy tartibga solish sohasidagi tendensiyalarni aniqlashimiz imumkin. Avstraliyada imzolanuvchi, sug‘urtachiga yashirin shaklda zayom kapitalini taqdim qiluvchi moliyaviy qayta sug‘urta shartnomalari sug‘urta nazorati idorasi bilan kelishilgan bo‘lishi lozim. Fransiyada sug‘urta riski taqsimlanishining har qanday shakli (to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urta va qayta sug‘urta shartnomalari o‘rtasida farq qilinmagan holda) qayta sug‘urta deb yuritiladi.

Germaniyada sug‘urta yoki qayta sug‘urta faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan ikki yuridik shaxs o‘rtasida tuzilgan qayta sug‘urta shartnomasi moliyaviy qayta sug‘urta deb ataladi.

Shvetsariyada moliyaviy qayta sug‘urta shartnomalari ham oddiy qayta sug‘urta shartnomalari uchun belgilangan talablarga javob berishi lozim. Moliyaviy qayta sug‘urtaning maqsadi moliyaviy natijani yaxshilash, bo‘sh aktivlar bilan ta‘minlash, moliyaviy oqimni optimallash bo‘lsa-da, oddiy qayta sug‘urta maqsadidan kam farq qiladi. Shu sababli, sug‘urtachi o‘z faoliyati davomida sug‘urta risklari bilan bir qatorda kredit, investitsiya, moliyaviy risklarga ham duch keladi. Moliyaviy qayta sug‘urta shartnomalari shu kabi risklarning bir qismini qayta sug‘urtachiga berishga xizmat qiladi. Nazorat qiluvchi idoralarning «moliyaviy qayta sug‘urta, qayta sug‘urtaning mohiyati va maqsadiga mos kelmaydi» deb fikrlashiga ko‘pchilik tadqiqotchilar qo‘shilmaydilar.

Buyuk Britaniyada, sug‘urta nazorati idoralarining moliyaviy qayta sug‘urta shartnoma-siga qo‘ygan talablaridan biri – bu sug‘ur-

ta riskining ancha miqdordagi qismini qayta sug‘urtachiga berishdir. Ushbu keltirilgan ta’rifda muammoga duch kelgan narsa – bu riskning ancha qismini aniqlashdir. Faqat sug‘urta nazorati idoralari tomonidan qayta sug‘urta operatsiyalarining samarasini baholanishi-ga qaramasdan, agar moliyaviy qayta sug‘urta shartnomasi sug‘urtachining moliyaviy holatini va to‘lov qobiliyatini yaxshilanishiga yordam bersa, bunday qayta sug‘urta shartnomasini tuzish maqsadga muvofiqdir.

AQSHdagi ko‘plab shtatlarning fuqarolikni tartibga soluvchi qonunchiliklarida qayta sug‘urtaga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’rif berilmagan. «Qayta sug‘urta shartnomasi» tushunchasi ostida qayta sug‘urta belgisiga ega bo‘lgan har qanday shartnomasi tushuniladi. Bundan tashqari, 1992-yilda sug‘urtachining buxgalteriya hisobida brutto-majburiyatini aks ettirish bo‘yicha yangi tartib o‘rnatildi. Ushbu talabga asosan, to‘lanmagan zarardagi qayta sug‘urtachining ulushi yoki ishlab topilmagan mukofot miqdori sug‘urtachining brutto majburiyati tarkibida hisobga olinadi. Bu tartib moliyaviy qayta sug‘urta operatsiyalarining samarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega. Yuqorida keltirilgan moliyaviy qayta sug‘urtanining huququy ta’rifi va moliyaviy qayta sug‘urta shartnomasida ishtirok etuvchi sug‘urtachi va qayta sug‘urtachi faoliyatlarini bunday tartibga solish tahrirga muhtoj. Sug‘urta tashkilotlarining risklarini boshqarishda moliyaviy qayta sug‘urta mutlaqo yangi tarmoqligini inobatga olishimiz zarur. Moliyaviy qayta sug‘urtanining maqsadi sug‘urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash va sug‘urtachining to‘lov qobiliyatini mustahkamlash hisoblanadi. Bu borada moliyaviy qayta sug‘urtanining maqsadi an‘anaviy qayta sug‘urta maqsadi bilan mos keladi. Shu bilan birga, moliyaviy qayta sug‘urta ham an‘anaviy qayta sug‘urta kabi to‘g‘ridan to‘g‘ri sug‘urtachilarning sug‘urta operatsiyalarini moliyaviy natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda paydo bo‘lgan an‘anaviy konsepsiylar alohida sug‘urta turi bo‘yicha sug‘urta operatsiyalarining natijasini yoki

ma'lum sug'urta turlari yig'indisiga nisbatan tatbiq qilinuvchi «zararlilik ekssedenti asosida» qayta sug'urta shartnomalari qayta sug'urta to'g'risidagi tushunchalarni tubdan o'zgartiradi. An'anaviy va moliyaviy qayta sug'urtaning to'g'ridan to'g'ri sug'urta shartnomasi bo'yicha risklarni qayta taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy mohiyati deyarli farq qilmadi. Bundan tashqari, qayta sug'urta shartnomasi shakllari, uning subyektiari tarkibi (sug'urtachi va qayta sug'urtachi) ham mos keladi. Umuman olganda, moliyaviy qayta sug'urtaning iqtisodiy tabiatini an'anaviy qayta sug'urta shartnomasi mohiyatiga va uning maqsadlariga qarama-qarshi kelmaydi. Shuning uchun moliyaviy qayta sug'urta kelajakda keng sohalarda qo'llanilish istiqboliga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tayanch tushunchalar

Qayta sug'urtalovchi broker – ikkita sug'urta kompaniyasi o'rтasidagi professional vositachi.

Qayta sug'urtalovchi – sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhibiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveysariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

Fakultativ qayta sug'urtalash – proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnomalarni tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi mumkin.

Fakultativ obligator shartnomasi – sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'ur-

talovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

Sedent – riskni ikkilamchi joylashtirishni amalga oshiruvchi, ya'ni riskni qayta sug'urtalash uchun beruvchi sug'urta kompaniyasi. Ikkilamchi sedent retrotsedent deb ataladi.

Sessiya – sug'urta riskini qayta sug'urtalashga berish jarayoni. Sedent va qayta sug'urtalovchi o'ttasida huquqiy munosabatlarda ishlataladi. Xorij amaliyotida sessiya – sedentning olgan sug'urta mukofoti ma'nosini bildiradi.

Ekssedent riski – mazkur toifadagi risk bo'yicha zaramni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

Ekssedent zarari – noprropsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingan zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

Nazorat savollari:

1. *Avtotransport sug'urtasi qanday amalga oshiriladi?*
2. *«Yashil karta» tizimi va uning mohiyatini tushuntirib bering?*
3. *Kemalar bo'yicha javobgarlikni, sug'urtalovchi tashkilotlarning faoliyatini misolida tushuntirib bering?*
4. *1969-yil Bryusselda qabul qilingan konvensiyaning mohiyati nimadan ihorat?*
5. *Aviasug'urta javobgarligi bo'yicha Varshava Konvensiyasining mohiyati nimada?*
6. *Yuk tashuvchining javobgarligini sug'urtalash qanday amalga oshiriladi?*
7. *Qurilish hilan bog'liq bo'lgan qanday sug'urta risklarini bilasiz?*
8. *Qurilish jarayonida sug'urtalash bo'yicha hisobga olinadigan obyektlarga nimalar kiradi?*
9. *Montaj ishlari bo'yicha sug'urta riskini nimalardan ihorat?*
10. *Qayta sug'urtalashdagi sug'urta riski va uni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlarni sanab bering?*
11. *Xalqaro iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda qayta sug'urtaning roli qanday?*
12. *Ushbu mavzu bo'yicha qanday xulosalar chiqardingiz?*

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1-masala

6 million so'mlik obyekt bitta shartnoma asosida 3 ta sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urtalangan. Birinchisi 2,5 million so'mga, ikkinchisi 2 million so'mga uchinchisi 1,5 million so'mga. Yon'in oqibatida sug'urta hodisasi ro'y berdi va 1,8 million so'mlik zarar ko'rildi.

Har bir sug'urta tashkiloti tomonidan to'lanadigan sug'urta qoplamasini aniqlang.

2-masala

Sug'urta tashkilotining sug'urta portfeli bir xil turdag'i sug'urta shartnomalaridan tashkil topgan. Ularning miqdori 400, 625, 800 million so'm. Sug'urta tashkilotining maksimal javobgarligi 500 million so'm. Kvota sug'urta portfelining 20 foiz tashkil etadi.

Sedentning shartnomadagi ishtirokini hisoblang.

3-masala

Avtomobil birinchi tavakkalchilik tizimi asosida 75 000 so'mga sug'urtalangan, uning haqiqiy bahosi 89 000 so'm, sug'urtalanuvchi 32 000 so'm miqdorida zarar ko'rigan.

Birinchi va ikkinchi tavakkal miqdorini belgilang.

4-masala

Xo'jalik subyekti o'z mol-mulkini buzib kirib o'g'irlik qilishdan 600 million so'mga bir yilga sug'urta qildi. Sug'urta tarif stavkasi sug'urta summasidan 0,3 foiz. Sug'urta shartnomasi bo'yicha 1 foiz miqdorida shartli franchiza belgilangan, franchiza belgilanganligi sababli 2 foiz miqdorida tarifga chegirma qo'llanilgan. Sug'urtalovchining zarari 3 million so'mga teng.

Sug'urta mukofoti summasi va sug'urta qoplamasini summasini toping.

Test savollari

1. Dengiz sug‘urtasi bo‘yicha dastlabki jamiyatlar qachon va qayerda tashkil topgan?

- A) 1812-yilda, Germaniyada
- B) 1776-yilda, Yaponiyada
- C) 1668-yilda, Fransiyada
- D) 1536-yilda, Angliyada

2. Dispasher tushunchasiga mos keladigan javobni aniqlang?

- A) kema, yuk va fraxt o‘rtasida umumiy avariya xarajatlarini laqsimlovchi mutaxassis
- B) da‘voni ko‘rib chiquvchi va uni tartibga keltirishni tashkillashtiruvchi shaxs
- C) dispasha bo‘yicha hisob-kitobni amalga oshiruvchi xalqaro dengiz huquqi sohasidagi mutaxassis
- D) sug‘urtalovchining shtatida turadigan va kelib tushgan sug‘urta mukofotlarining bir qismmini olish huquqiga ega yuridik shaxs

3. Qurilish-montaj risklarini sug‘urtalash qay tartibda amalga oshiriladi?

- A) majburiy
- B) ixtiyoriy
- C) ham majburiy, ham ixtiyoriy
- D) umuman sug‘urtalanmaydi

4. Dengiz sug‘urtasi qaysi klassga asosan sug‘urtaladi?

- A) 5 klass
- B) 6 klass
- C) 7 klass
- D) 12 klass

5. Qurilish-montaj risklarini sug‘urtalashda sug‘urta tarifi necha foizni tashkil etadi?

A) 0,5

B) 1

D) 0,4

E) 2

6. O'zbekistonda dengiz sug'urtasini qaysi tashkilotlar amalga oshiradilar?

A) Barcha sug'urta tashkilotlari

B) Umumiy sug'urta tarmog'ining 6-klassi bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar

D) Litsenziyasida 6- va 12-klass bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ruxsat berilgan bo'lsa

E) Barcha yuridik shaxslar

7. Aviatsiya sug'urtasi qaysi klass asosida sug'urta qilinadi?

A) 5-klass

B) 6-klass

D) 7-klass

E) 12-klass

8. O'zbekistonda aviatsiya sug'urtasini qaysi tashkilotlar amalga oshiradilar?

A) Barcha sug'urta tashkilotlari

B) Umumiy sug'urta tarmog'ining 5-klassi bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan tashkilotlar

D) Litsenziyasida 5- va 11-klass bo'yicha faoliyatni amalga oshirish ruxsat berilgan bo'lsa

E) Barcha yuridik shaxslar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI SUG'URTA FAOLIYATI TO'G'RISIDA

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 4-5-son, 68-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2006-y., 41-son, 405-modda; 2007-y., 37-38-son, 376-modda; 2008-y., 17-son, 129-modda; 52-son, 508-modda; 2009-y., 39-son, 423-modda; 2010-y., 50-son, 471-modda; 2012-y., 15-son, 165-modda)

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi sug'urta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari

Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Sug'urta hamda sug'urta faoliyati

Sug'urta deganda yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan, shuningdek, sug'urtalovchining boshqa mablag'laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqeа (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

(3-moddaning bиринчи qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sug'urta faoliyati deganda sug'urta bozori professional ishtirokchilarining sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyati tu-shuniladi.

4-modda. Sug'urta sohalari va turlari (klasslari)

Sug'urta quyidagi sohalarga bo'linadi:

– hayotni sug'urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish, bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan, oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlarini (annuitetlarni) qamrab oлади);

– umumiy sug'urta (shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'limgan boshqa sug'urta turlari).

– sug'urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog'liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug'urta sohalari, sug'urta turlariga (klasslariga) bo'linadi. Sug'urta turlari (klasslari) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

5-modda. Sug'urta faoliyati subyektlari

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Sug'urtalovchilar, sug'urta vositachilar, adjasterlar, aktuariylar, sug'urta syurveyerlari, shuningdek, assistans sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridir.

(5-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

Sug‘urta brokeri, qayta sug‘urta brokeri va sug‘urta agenti sug‘urta vositachilari hisoblanadilar.

6-modda. Sug‘urtalovchi

Tegishli turdag'i sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan va sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti bo‘lgan yuridik shaxs sug‘urtalovchi deb e’tirof etiladi.

Sug‘urtalovchilar sug‘urtani amalga oshirishga bevosita bog‘liq bo‘limgan tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari mumkin emas, ushbu Qonunning 6¹-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

(6-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

6¹-modda. Sug‘urtalovchining huquq va majburiyatları

Sug‘urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

- qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda va shartlarda sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomalari tuzish;
- o‘z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug‘urta qilish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida qayta sug‘urta qilish;
- maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsiya vositachisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish. Bunda mazkur faoliyat turini amalga oshirish uchun sug‘urtalovchining litsenziya olishi talab qilinmaydi;

(6¹-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrdagi O‘RQ-192-sonli Qonuniga asosan beshinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

- sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) sohasidagi mutaxassislar malakasini oshirish bilan bog‘liq faoliyatni, shuningdek, sug‘urta agenti sifatida sug‘urta vositachiligini amalga oshirish;
- sug‘urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda moliyalashtirish;
- sug‘urtalovchi tomonidan amalga oshiriladigan sug‘urta turlariga doir qoidalarni (shartlarni) qonun hujjatlariga muvofiq belgilash;
- sug‘urta hodisasi ro‘y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek, sug‘urta toponi (sug‘urta puli) miqdorini belgilash uchun zarur bo‘lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyot, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

(6¹-modda birinchi qismining to‘qqizinchisi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- sug‘urta agentlari, sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari, sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilari bilan tegishli shartnomalar tuzish;
- sug‘urta toponi (sug‘urta puli) to‘lashni qonun hujjatlarida va (yoki) sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida belgilangan hollarda hamda tartibda rad etish, sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish;

(6¹-modda birinchi qismining o‘n birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- sug‘urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan axborotni teksirishni, sug‘urta qildiruvchining sug‘urta shartnomasi talablari va shartlarini bajarishi ustidan nazoratni sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshirish;

- chet el sug‘urtalovchilariga syurveyser va adjaster xizmatlari ko‘rsatish;
- ilgari sug‘urtalovchi tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun olingan yoki sug‘urta shartnomasini amalga oshirish natijasida uning ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni realizatsiya qilish yoki ijara berish;
- O‘zbekiston Respublikasining reyting tashkilotlari va chet el reyting tashkilotlari reytinglarini olish;
- o‘zining alohida bo‘linmalarini tashkil etish.

Sug‘urtalovchi qonun hujjatlari va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sug‘urtalovchi:

- sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- sug‘urta faoliyatini amalga oshirish chog‘ida olingan axborotning maxfiyligini qonun hujjatlari talablariga muvofiq ta’minlashi;
- o‘zi vakolat bergen sug‘urta agentlarining reestrini yuritishi;
- qonun hujjatlarda belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga binoan taqdim etishi;
- sug‘urta hodisasi yuz bergen taqdirda, qonun hujjatlarda yoki sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasida nazarda tutilgan muddatlarda barcha zarur hisob-kitoblarni amalga oshirishi va sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lashi;

(6¹-modda uchinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-soni Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- firmanın nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan yeti o‘zgargan taqdirda, bu haqdagi axborotni sug‘urta qildiruvchilarga ushbu Qonunda belgilangan tartibda yetkazishi;
- sug‘urta zaxiralarini maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda shakllantirishi hamda joylashtirishi;
- qonun hujjatlarda belgilangan tartibda har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tishi;

– maxsus vakolatli davlat organi belgilagan tartibda bir yilda kamida bir marta aktuar tashkilotni aktuar xizmatlar ko'rsatish uchun jalb etishi;

(6'-modda uchinchi qismining o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– maxsus vakolatli davlat organi belgilagan shaklda, tartibda va muddatlarda yillik moliyaviy hisobotni e'lon qilishi;

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hisobotlarni tuzishi shart.

Sug'ortalovchining zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(6'-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabr-dagi O'RQ-108-sonli Qonuni bilan kiritilgan – O'R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda)

7-modda. Sug'urta brokeri

Sug'urta qildiruvchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasi tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs sug'urta brokeri hisoblanadi.

Sug'urta brokerining faoliyati sug'urta sohasidagi boshqa faoliyat turlari bilan qo'shib olib borilishi mumkin emas, qayta sug'urta brokerining faoliyati bundan mustasnodir.

Sug'urta brokeri sug'ortalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Sug'urta brokeri o'zi bilan sug'urta qildiruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatadi.

(7-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrda-gi O'RQ-108-sonli Qonuni asosida uchinchi va to'rtinchchi qismlar bilan to'ldirilgan – O'R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda)

8-modda. Qayta sug‘urta brokeri

O‘z nomidan va qayta sug‘urta qilish shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchi tariqasida ishtirok etuvchi sug‘urtalovchining topshirig‘iga binoan qayta sug‘urta qilish shartnomasi tuzilishini va ijro etilishini tashkil qilish bo‘yicha faoliyat yurituvchi yuridik shaxs qayta sug‘urta brokeri hisoblanadi.

Qayta sug‘urta brokeri sug‘urtalovchining ustav fondida ishtirok etishga haqli emas.

Qayta sug‘urta brokeri o‘zi bilan sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida tuzilgan shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatadi.

(8-modda *O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabr-dagi O‘RQ-108-sonli Qonuni asosida ikkinchi va uchinchi qismlar bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda*)

8¹-modda. Sug‘urta hamda qayta sug‘urta brokerlarining huquq va majburiyatlari

Sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari quyidagi huquqlarga ega:

- sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har qanday turi bo‘yicha vakolatlar doirasida vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzilgan taqdirda, sug‘urtalovchini tanlash;

(8¹-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi *O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda*)

– sug‘urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondining miqdorlari, sug‘urta zaxiralari va qabul qilingan majburiyatlar to‘g‘risida, shuningdek, sug‘urtalovchining to‘lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko‘rsatkichlar haqida ma’lumotlar olish;

- ekspert va maslahat xizmatlari ko‘rsatish.

Sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari qonun hujjatlariga hamda o‘zлari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishlari mumkin.

Sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlari:

– sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rio-ya etishi;

– sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasini tuzish va ijro etish bo‘yicha to‘liq, ishonchli hamda xolisona axborotni mijoz-larning so‘rovlariga ko‘ra taqdim etishi;

(8'-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– mijozning tijorat sirini va boshqa sirini tashkil etadigan ma’lu-motlarni oshkor qilmasligi.

(8'-modda uchinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi;

– firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) joylashgan yeri o‘zgargan taqdirda, bu haqda maxsus vakolatli davlat organini va sug‘urtalovchilarni xabardor qilishi;

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy, statistika, soliq hisobotlarini va boshqa hiso-botlarni tuzishi shart;

(8'-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshin-chi, oltinchi va yettinchi xatboshilar bilan to‘dirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sug‘urta va qayta sug‘urta brokerlarining zimmasida qonun hujjatlariga hamda o‘zлari tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(8'-modda O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabr-dagi O'RQ-108-sonti Qonuni bilan kiritilgan – O'R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda)

9-modda. Sug'urta agenti

Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasining tuzilishi va ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs sug'urta agenti hisoblanadi.

Sug'urtalovchining boshqaruv organlari rahbarlari sug'urta agenti bo'la olmaydilar.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchi reestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarga:

- sug'urta agentining tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'limgan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

- agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lgan vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta agenti – jismoniy shaxs o'z nomiga, to'lovlar naqd pullar bilan amalga oshirilganida esa yaqin qarindoshlari (otasi, onasi, xotini, eri, o'g'li, qizi, opa-singillari va aka-ukalari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek, o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga va bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish ko'rishga haqli emas.

(9-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O'RQ-108-sonli Qonuni asosida uchinchi—oltinchi qismlar bilan almashtirilgan – O'R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda)

9¹-modda. Sug'urta agentining huquq va majburiyatları

Sug'urta agenti quyidagi huquqlarga ega:

- sug'urtalovchi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida sug'urtaning har qanday turi, shu jumladan majburiy sug'urta turлari bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirish;
- sug'urtaga qabul qilinayotgan sug'urta tavakkalchiligini baholashda, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini to'lashda va sug'urta qildiruvchining sug'urta mukosotini to'liq hajmda hamda sug'urta shartnomasida belgilangan muddatlarda to'lashida zarur ko'mak ko'rsatish;
- sug'urtalovchidan litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug'urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to'g'risida, shuningdek, sug'urtalovchining to'lovga qobiliyatligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko'rsatkichlar to'g'risida ma'lumotlar olish;
- sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzish uchun zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;
- sug'urta qildiruvchidan qabul qilib olinayotgan tavakkalchiliklar to'g'risida sug'urtalovchiga to'liqroq axborot berish maqsadida barcha uchun ochiq bo'lgan manbalardan tavakkalchilik va sug'urta qildiruvchi to'g'risida sug'urta qildiruvchining shaxsiy hayotiga aralashmagan holda ma'lumotlar to'plash.

Sug'urta agenti qonun hujjatlariiga va o'zi tuzgan shartnomalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Sug'urta agenti:

- sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug‘urta shartnomasi tuzishda va sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) to‘lashda hujjatlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirishga ko‘maka-lashishi;

(9'-modda uchinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urta tariflari, sug‘urtalovchilar tomonidan taklif etilayot-gan sug‘urta shartlari haqida, litsenziyaning mavjudligi, ustav fondi miqdorlari, sug‘urta zaxiralari hamda qabul qilingan majburiyatlar to‘g‘risida, shuningdek, sug‘urtalovchining to‘lovga qobiliyatliligi va moliyaviy barqarorligiga doir boshqa ko‘rsatkichlar haqida axborotga ega bo‘lishi;

– sug‘urta shartnomasini rasmiylashtirishda sug‘urta qildiruv-chi to‘g‘risida zarur axborotga ega bo‘lishi, unga sug‘urta tavakkalchiligini pasaytirish va sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan aniq tadbirlarni amalga oshirishni taklif etishi;

– sug‘urta qildiruvchilarning so‘roviga ko‘ra ularga sug‘urta-ning amaldagi shartlari to‘g‘risida axborot berishi;

– sug‘urta shartnomalarini belgilangan tartibda tuzishi va yangi muddatga o‘z vaqtida qayta rasmiylashtirishi;

– tuzilgan sug‘urta shartnomalari va olingan sug‘urta mukofot-lari summalari hisobini belgilangan shaklda yuritishi;

– sug‘urta hujjatlarining saqlanishini ta‘minlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etgan ma’lu-motlarning maxfiyligini saqlashi;

– sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati mobaynida ta-vakkalchilik shart-sharoitlarining jiddiy ravishda o‘zgarishiga taal-luqli axborotni sug‘urtalovchi o‘z vaqtida olishini, shuningdek, sug‘urta e’tirozları yuzaga kelganda hamda ularni tartibga solish jarayonida sug‘urtalovchi va sug‘urta qildiruvchi o‘rtasida axborot-ning o‘z vaqtida almashinishini ta‘minlashi;

– tegishli bitim mavjud bo‘lgan taqdirda, sug‘urtalovchining topshirig‘iga ko‘ra va uning hisobidan sug‘urta to‘lovlari to‘lanishini tashkil etishi shart.

Sug‘urta agentining zimmasida qonun hujjalariiga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

9²-modda. Adjaster

Adjaster sug‘urtalovchining (sug‘urta qildiruvchining) va boshqa buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha quyidagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

(9²-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urta hodisasi yuz beraganidan keyin sug‘urta obyektini ko‘zdan kechirish va tekshirish;

– sug‘urta hodisasi faktlarini va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish;

– sug‘urta obyektining shikastlanish sabablarini va sug‘urta hodisasi mavjudligini aniqlash;

– sug‘urta hodisasi mavjud bo‘lgan taqdirda – sug‘urta hodisasi oqibatida vujudga kelgan shikastlanish darajasi va zarar miqdorini belgilash;

– to‘lanishi kerak bo‘lgan sug‘urta tovoni summasini aniqlash;

– sug‘urta hodisasi bo‘yicha xulosa tuzish.

(9²-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) va boshqa buyurtmachi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

(9²-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish ope-ratsiyalari o'tkazishga;
- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Adjaster xizmati ko'rsatish natijalari hisobot tarzida rasmiy-lashtirilib, undan sug'urtalovchi zararlarning o'rnini qoplash va nizolarni hal qilish chog'ida foydalanishi mumkin.

Adjasterning hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

9³-modda. Adjasterning huquq va majburiyatları

Adjaster quyidagi huquqlarga ega:

- adjaster xizmatlari ko'rsatiladigan sug'urtalovchini (sug'urta qildiruvchini) va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;

(9³-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- sug'urta voqeasini (sug'urta hodisasini) o'rganish uchun sug'urtalovchidan (sug'urta qildiruvchidan) va boshqa buyurt-machilardan zarur axborotni so'rash va olish;

(9³-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- sug'urta hodisasi yuz bergenidan so'ng sug'urta obyektini ko'zdan kechirish va tekshirish;

– o'zi sug'urta obyektini sirtdan (zarur hollarda – texnika vosita-larini qo'llagan holda) ko'zdan kechirganligi to'g'risidagi dalolat-nomani rasmiylaslitirish;

– sug‘urta hodisasi ro‘y berishining sabablari va holatlarini, shuningdek, sug‘urta tovoni (sug‘urta puli) miqdorini aniqlash uchun zarur bo‘lgan tegishli axborot va hujjatlarni huquqni muhofaza qiluvchi organlardan, sudlar, tibbiyat, seysmologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlardan belgilangan tartibda so‘rash va olish;

(9³-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster qonun hujjatlariiga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Adjaster:

– sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug‘urta hujjatlarining saqlanishini ta‘minlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlashi;

– sug‘urta hodisasiga taalluqli ma’lumotlarni o‘z vaqtida tahlil qilish uchun chora-tadbirlar ko‘rishi.

(9¹-modda uchinchi qismining beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi shart.

(9³-modda uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan oltinchi xatboshi bilan to‘dirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Adjaster zimmasida qonun hujjatlariiga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

9⁴-modda. Aktuar tashkilot va aktuariy

(9⁴-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot quyidagilarni o‘z ichiga oladigan aktuar xizmatlari ko‘rsatuvchi yuridik shaxsdir:

(9^q-modda birinchi qismining birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urta voqeasi yuz berishining matematik jihatdan ehtimolligi hisob-kitobini amalga oshirish, ham alohida tavakkalchilik guruhlarida, ham umuman sug‘urta majmui bo‘yicha zarar yetka-zilishining takroriyligini va ularning oqibatlari og‘irligi darajasini belgilash;

– sug‘urtalovchining zarur sug‘urta zaxiralari va fondlarini matematik jihatdan asoslash hamda hisob-kitob qilish, ularni shakllantirish usullarini ishlab chiqish;

(9^q-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urtalovchining investitsiyalar sifatida to‘plangan badallardan foydalanishida kapital qo‘yilma normasi va netto-stavka miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni tarif stavkalarini investitsiya daromadi summasiga kamaytirishga ko‘maklashadigan tarzda aniqlash;

– sug‘urta jarayonini tashkil etish uchun zarur xarajatlarni asoslash va sug‘urta xizmatlari tannarxini hisob-kitob qilish;

– sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har bir turi bo‘yicha tarif stavkalarini sug‘urtalovchilar uchun ularni o‘tkazishning uzoq muddatli va qisqa muddatli xususiyatini hisobga olgan holda belgilash;

– sug‘urtalovchining investitsiya faoliyati natijalarini aktuar hisob-kitoblardan foydalangan holda baholash;

(9^q-modda birinchi qismining yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

sug‘urtalovchining daromadlarini sug‘urtaning (qayta sug‘urta qilishning) har xil turlari bo‘yicha rejalashtirish.

(9⁴-modda birinchi qismining sakkizinchisi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- aktuar hisob-kitoblarini amalga oshirish bo'yicha dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;
- sug'urta bilan bog'liq boshqa aktuar xizmatlari ko'rsatish.

(9⁴-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan to'qqizinchisi va o'ninchi xatboshilar bilan to'ldirilgan – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot shartnomaga muvofiq to'lov asosida faqat aktuar xizmatlarini ko'rsatishi mumkin.

Aktuariy maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikatini olgan va aktuar tashkilot shtatida turgan yoki aktuar tashkilot bilan fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzgan jismoniy shaxsdir.

Aktuariy sifatsiz aktuar xizmatlarini ko'rsatganlik, tijorat siri ni yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni oshkor qilganlik va aktuar tashkilotning zarar ko'rishiga olib kelgan o'zga xatti-harakatlari natijasida yetkazilgan zarar uchun aktuar tashkilot oldida javobgar bo'ladi.

Aktuar tashkilot o'z shtatida kamida bitta aktuariyga ega bo'lishi kerak.

(9⁴-moddaning ikkinchi – oltinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan ikkinchi – beshinchi qismlar bilan almashtirilgan – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuariy:

- sug'urtalovchi sifatida sug'urta va qayta sug'urta qilish ope ratsiyalari o'tkazishga;
- sug'urta bo'yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug'urtalovchilarning ustav fondlarida ishtiroy etishga haqli emas.

Aktuariy faoliyati natijalari hisobot tarzida rasmiy lashtiriladi.

Aktuariy hisobotida ko'rsatilgan xulosalar mustaqil sug'urta ekspertizasi jarayonida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

9⁵-modda. Aktuar tashkilotning huquq va majburiyatları

(9⁵-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

- aktuar xizmatlari ko'rsatiladigan sug'ortalovchini va boshqa buyurtmachilarni erkin tanlash;
- aktuar xulosasini tuzish uchun zarur bo'lgan axborot sug'ortalovchi va boshqa buyurtmachilar tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, aktuar xizmatlari ko'rsatishni rad etish;

(9⁵-modda birinchi qismining birinchi, ikkinchi va uchinchi xatboshilari O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- boshqa aktuar tashkilotlarni va o'zga mutaxassislarni aktuar xizmatlari ko'rsatishda ishtiroy etishga belgilangan tartibda jalb etish.

(9⁵-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot qonun hujjalariiga va o'zi tuzgan shartnomalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(95-modda ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot:

(9⁵-modda uchinchi qismining birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;
- aktuar xizmatlari ko‘rsatish chog‘ida olingan axborotning maxfiyligiga rioya etishi;
- aktuar xulosasida aktuar hisob-kitoblarning kamchilik faktlarini va ularni bartaraf etishga doir takliflarni aks ettirishi.

(9⁵-modda uchinchi qismining to‘rtinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

- qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi shart.

(9⁵-moddaning uchinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan be-shinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Aktuar tashkilot zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

(9⁵-moddaning to‘rtinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

9⁶-modda. Sug‘urta syurveyeri

Sug‘urta syurveyeri quyidagilar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi, o‘z shtatida tegishli mutaxassislarga ega bo‘lgan yuridik shaxs yoki professional bilim va malakaga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir:

- sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) obyektini ko‘zdan kechirish va teksirish;

(9⁶-modda birinchi qismining ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzilguniga qadar barcha faktlarni va tavakkalchilik holatlarini tahlil qilish, tavakkalchilik darajasini aniqlash;

(9⁶-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-soni Oonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– tekshirilayotgan sug‘urta obyekti bo‘yicha xulosa tuzish.

Sug‘urta ekspertizasini o‘tkazishga vakolatli mutaxassislarining (ekspertlarning) ish tartibi sug‘urta syurveyeri tomonidan belgilanadi.

Sug‘urta syurveyeri o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Sug‘urta syurveyeri:

– sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish ope-ratsiyalari o‘tkazishga;

– sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;

– sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

Sug‘urta syurveyeri ishining natijalari bo‘yicha hisobot taqdim etiladi, sug‘urtalovchi (sug‘urta qildiruvchi) bu hisobotdan sug‘urta (qayta sug‘urta qilish) shartnomasi tuzish chog‘ida foydalanishi mumkin.

Sug‘urta syurveyerining hisobotida ko‘rsatilgan xulosalar mustaqil sug‘urta ekspertizasi jarayonida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

9⁷-modda. Sug‘urta syurveyerining huquq va majburiyatlari

Sug‘urta syurveyeri:

– xizmatlar ko‘rsatiladigan sug‘urtalovchini (sug‘urta qildiruvchini) erkin tanlashga;

– sug‘urta obyektni o‘rganish uchun sug‘urta qildiruvchidan (sug‘urtalovchidan) zarur axborotni so‘rash va olishga;

– davlat hokimiyati va boshqaruvi organlaridan, faoliyati sug‘urta obyektlariga daxldor bo‘lgan boshqa tashkilotlardan zarur ma’lumotlarni so‘rash va olishga haqli.

Sug‘urta syurveyeri qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Sug‘urta syurveyeri:

– sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

– sug‘urta ekspertizasi o‘tkazish uchun taraflar taqdim etgan hujjatlarning saqlanishini ta’minlashi;

– mijozning tijorat sirini yoki boshqa sirini tashkil etadigan ma’lumotlarning maxfiyligini saqlashi.

(9⁷-modda uchinchi qismining to‘rtinchchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko‘ra taqdim etishi shart.

(9⁷-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Sug‘urta syurveyeri zimmasida qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

9⁸-modda. Assistans

Assistans sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga, naf oluvchilarga) hamda sug‘urtalovchilarga sug‘urta shartnomasi doirasida assistans xizmatlari, texnik, tibbiy va boshqa xizmatlar ko‘rsatuvchi, shuningdek, ularga moliyaviy ko‘mak beruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Assistans o‘z faoliyatini sug‘urtalovchi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiradi.

Assistans xizmatlariga sug‘urta qildiruvchilar (sug‘urtalangan shaxslar) ishtirokisiz faqat sug‘urtalovchilar tomonidan haq to‘lanadi.

Assistans:

- sug‘urtalovchi sifatida sug‘urta va qayta sug‘urta qilish ope-ratsiyalari o‘tkazishga;
- sug‘urta bo‘yicha vositachilik faoliyatini amalga oshirishga;
- sug‘urtalovchilarning ustav fondlarida ishtirok etishga haqli emas.

9^o-modda. Assistansning huquq va majburiyatları

Assistans quyidagi huquqlarga ega:

- assistans xizmatlari ko‘rsatilishi bo‘yicha sug‘urtalovchilar bilan mustaqil ravishda shartnoma tuzish;
- assistans xizmatlari ko‘rsatilishi uchun zarur bo‘lgan barcha axborot sug‘urtalovchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, assistans xizmatlari ko‘rsatishni rad etish;
- tegishli mutaxassislarni assistans xizmatlari ko‘rsatishda ishtirok etishga belgilangan tartibda jalb etish.

Assistans qonun hujjatlariga va o‘zi tuzgan shartnomalarga mu-vofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Assistans:

- sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rio-ya etishi;
- sug‘urta qildiruvchilardan (sug‘urtalangan shaxslardan) sug‘urta voqealari (sug‘urta hodisaları) to‘g‘risidagi xabarlar kecha-kunduz qabul qilinishini tashkil etishi va sug‘urta shart-nomasi doirasida, taqdim etilgan sug‘urta polisi asosida sug‘urta qildiruvchilarga (sug‘urtalangan shaxslarga) zarur yordam ko‘rsatishi;
- sug‘urta hodisalarini ko‘rib chiqish va tartibga solish cho-ra-tadbirlarini ko‘rishi.

(9^o-modda uchinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– qonun hujjatlarida belgilangan axborotni maxsus vakolatli davlat organining talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

(9^o-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuniga asosan beshinchchi xatboshi bilan to'ldirilgan tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Assistans zimmasida qonun hujjatlariga va o'zi tuzgan shartnomalarga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

(9¹–9^o-moddalar O'zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrda O'RQ-108-sonli Qonuni bilan kiritilgan – O'R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda)

10-modda. Maxsus vakolatli davlat organi

Sug'urta faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan maxsus vakolatli davlat organi amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi:

– ijro etilishi majburiy bo'lган to'lovga qobiliyatlilik normativlarini hamda ularni aniqlash tartibini, ayrim tavakkalchiliklar bo'yicha sug'urtalovchilar majburiyatlarining yo'l qo'yiladigan eng ko'p yoki eng kam miqdorini va majburiyatlar jamingning yo'l qo'yiladigan ko'p yoki eng kam miqdorini hisoblab chiqarish uslubini, sug'urtalovchilarning to'lovga qobiliyatini aks ettiruvchi axborotlarni taqdim etish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

– sug'urta bozorining professional ishtirokchilari sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishini, to'lovga qobiliyatlilikning belgilangan normativlari va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablari bajarilishini nazorat qiladi;

– sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyatini litsenziyalaydi;

– sug‘urtalovchilarning sug‘urta zaxiralari mablag‘larini shaklantirish hamda joylashtirish tartibi va shartlarini, shuningdek, bunday mablag‘lar hisobini yuritish hamda ular bo‘yicha hisobotlar tuzish tartibini belgilaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi beshinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

– sug‘urtalovchining, sug‘urta brokerining hamda ular alohida bo‘limmalarining rahbariga va bosh buxgalteriga qo‘yiladigan malaka talablarini belgilaydi.

(10-modda ikkinchi qismining oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– sug‘urtalovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning va e’lon qilinadigan yillik moliyaviy hisobotning shaklini, shuningdek, uni taqdim etish hamda e’lon qilish tartibi va muddatlarini belgilaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi yettinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

– qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini tekshiradi va ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish to‘g‘risida ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalar kiritadi;

– sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, shu jumladan belgilangan iqtisodiy normativlar sug‘urtalovchi tomonidan buzilganligi uchun sug‘urtalovchining ustav fondi eng kam niqdorining 0,1 foizigacha miqdorda belgilangan tartibda jarima soladi.

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrdagi O‘RQ-192-sonli Qonuniga asosan to‘qqizinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlari litsenziyalarining amal qilishini to‘liq yoki ayrim sug‘urta turlariga (klasslariga) nisbatan to‘xtatib qo‘yadi, shuningdek, ularning faoliyatini tugatish to‘g‘risida sudga murojaat qiladi;

(10-modda ikkinchi qismining to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2006-yil 10-oktabrdagi O‘RQ-59-son Qonuni tahririda – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 41-son, 405-modda)

– jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilganligi aniqlangan taqdirda, sug‘urtalovchilar va sug‘urta vositachilariga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq choralar va sanksiyalarini qo‘llaydi;

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-223-sonli Qonuniga asosan o‘n birinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 423-modda)

– har bir moliya yili tugaganidan keyin olti oy ichida sug‘urta faoliyatini tartibga solish va uni nazorat qilish borasidagi faoliyat to‘g‘risida yillik hisobotlarni , shuningdek, sug‘urta bozorining moliya yili mobaynidagi faoliyati to‘g‘risida statistika ma’lumotlarini e’lon qiladi;

– sug‘urtalovchilarining investitsiya faoliyatini amalga oshirish, shuningdek, sug‘urta hodisalari yuz berishining oldini olish va ogohlantirish chora-tadbirlarini sug‘urtalovchilar tomonidan moliyalashtirish tartibi hamda shartlarini belgilaydi;

– aktuar xizmatlari ko‘rsatish tartibini belgilaydi;

– aktuariy malaka sertifikatini olish uchun o‘quv dasturlarini hamda malaka imtihonlari topshirish tartibini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, mazkur sertifikatni olish huquqi uchun malaka imtihoni o‘tkazadi;

– belgilangan tartibda aktuariy malaka sertifikati beradi, uning amal qilishini tugatadi va uni bekor qiladi, malaka sertifikatiga ega bo‘lgan aktuariylar reestrini yuritadi;

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni asosida o‘n birinchi-o‘n to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

– sug‘urta bozorining professional ishtirokchilaridan qonun hujjatlarida belgilangan axborotni so‘rab oladi.

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan o‘n yet-tinchi xatboshi bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi va uning xodimlari sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining ustav fondida va boshqaruven ganlarida ishtirok etishga, shuningdek, sug‘urta vositachisi sifatida ish yuritishga haqli emaslar.

11-modda. Sug‘urta bozorining professional ishtirokchilarini tuzish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish

Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlari, shuningdek, sug‘urta bozorining yuridik shaxs bo‘lgan boshqa professional ishtirokchilar qonunlarda nazarda tutilgan tashkiliy-huquqiy shakllarda tuziladi.

Sug‘urtalovchilar va sug‘urta brokerlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi, sug‘urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish esa, qonun hujjatlarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Qayta sug‘urta brokerlari, adjasterlar, aktuar tashkilotlar, sug‘urta syurveyerlari, assistanslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganidan keyin bir haftalik muddatda bu haqda maxsus vakolatli davlat organini yozma ravishda xabardor qiladi.

(11-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan uchinchi qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

(11-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabr-dagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

12-modda. Sug‘urtalovchilarining ustav fondi

Sug‘urtalovchilar ustav fondining eng kam miqdori qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

(12-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 22-dekabrdagi O‘RQ-192-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2008-y., 52-son, 508-modda)

Sug‘urtalovchi ustav fondining kamida to‘qson foizi muassislarning (ishtirokchilarining) pul mablag‘laridan shakllantiriladi.

Sug‘urtalovchining ustav fondini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag‘lardan va boshqa jalb qilingan mablag‘laridan foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi.

Sug‘urtalovchining boshlang‘ich ustav fondi litsenziya olinadigan paytga qadar muassislar tomonidan shakllantirilgan bo‘lishi va qonun hujjatlarida belgilangan ustav fondining eng kam miqdoridan kam bo‘imasligi kerak.

(12-moddaning to‘rtinchchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentubrdagi O‘RQ-108-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2007-y., 37-38-son, 376-modda)

13-modda. Sug‘urtalovchilarining va sug‘urta brokerlarning firma nomiga doir talablar

Sug‘urtalovchilarining va sug‘urta brokerlarining firma nomida ilgari tashkil etilgan sug‘urtalovchilarining va sug‘urta brokerlari-

ning firma nomi bilan adashtirib yuborish darajasida bir xil yoki ularga aynan o'xhash bo'lgan belgilar qo'llanilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining filiallari, shuningdek, unitar korxona shaklida boshqa sug'urtalovchilar tomonidan tashkil etilgan sug'urtalovchilarning va sug'urta brokerlarining firma nomlari mustasno.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

14-modda. Sug'urtalovchining firma nomini, tashkiliy-huquqiy shaklini yoki joylashgan manzilini o'zgartirish

Sug'urtalovchining firma nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki joylashgan manzili o'zgargan taqdirda sug'urtalovchi bu haqda sug'urta qildiruvchilarni ommaviy axborot vositalari orqali, o'z ijrosidagi bir yildan ortiq muddatli sug'urta shartnomalari bo'yicha esa yozma ravishda xabardor qilishi shart.

OKOZ:

1.09.00.00.00 Tadbirkorlik va xo'jalik faoliyati / 09.01.00.00 Tadbirkorlik to'g'risidagi qonunchilik / 09.01.05.00 Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini litsenziyalash. Ruxsat berish (shuningdek, 02.08.06.00 ga qarang) / 09.01.05.01 Umumiy qoidalar. Litsenziyalishi lozim bo'lgan faoliyat turlari]

15-modda. Sug'urta faoliyatini litsenziyalash

Sug'urtalovchilar va sug'urta brokerlarining sug'urta faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda maxsus vakolatli davlat organi beradigan litsenziyalar asosida amalga oshiriladi.

Litsenziya sug'urtalovchiga yoxud hayotni sug'urta qilish sohasida, yoxud umumiy sug'urta sohasida, yoxud faqat qayta

sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta faoliyatini amalga oshirish uchun beriladi. Hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas, umumiy sug‘urta soha-sining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan ayrim turlari (klasslari) bundan mustasno. Umumiy sug‘urta sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi hayotni sug‘urta qilish sohasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga haqli emas. Faqat qayta sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta faoliyatini amalga oshirayotgan sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomalarini tuzishga haqli emas.

(15-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O‘RQHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

Litsenziyada sug‘urtalovchi amalga oshirishni nazarda tutayotgan sug‘urta turlari (klasslari) ko‘rsatiladi.

16-modda. Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishi to‘xtatib turilishining o‘ziga xos xususiyatlari

Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishining to‘xtatib turilishi uning yangi sug‘urta shartnomalari tuzishi taqiqlanishiga, shu jumladan amaldagi sug‘urta shartnomalari uzaytirilishining taqiqlanishiga sabab bo‘ladi. Bunda sug‘urtalovchi ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarini belgilangan tartibda bajarishga majburdir.

17-modda. Sug‘urtalovchining litsenziyasi amal qilishi tugatilishining o‘ziga xos xususiyatlari

Litsenziyaning amal qilishi tugatilgan kundan e’tiboran besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi ariza bilan qonun hujjalarda belgilangan tartibda sudga murojaat etishi shart.

Sug‘urtalovchining ilgari amal qilgan boshqaruv organlarining vakolatlari to‘xtatib turiladi va maxsus vakolatli davlat organi tomonidan tayinlagan sug‘urtalovchining muvaqqat ma’muriyatiga o’tadi. Muvaqqat ma’muriyat sud qaror chiqargunga qadar bo‘lgan davrda o‘z faoliyatini amalga oshiradi.

Sug‘urtalovchi muvaqqat ma’muriyatining hisoboti maxsus vakolatli davlat organiga hamda sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risida maxsus vakolatli davlat organining arizasi yo‘llangan sudga taqdim etiladi.

Sug‘urtalovchining muvaqqat ma’muriyati o‘z faoliyati davrida xarajat operatsiyalarini amalga oshirishga haqli emas, sug‘urtalovchining boshqaruv xarajatlari (ma’muriy xarajatlari), sug‘urtalovchiga tushayotgan pullarni hisobga yozish va ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta hodisalari yuz berganda sug‘urta tovonini (sug‘urta pulini) to‘lash bilan bog‘liq hollar bundan mustasnodir.

Sug‘urtalovchi muvaqqat ma’muriyatining ishlash tartibi maxsus vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadi.

Ushbu moddaning qoidalari sug‘urtalovchining arizasiga binoan litsenziya bekor qilingan hollarga, shuningdek, uning muassislari (ishtirokchilar)ning yoki ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug‘urtalovchining boshqaruv organi qaroriga binoan qayta tashkil etilishi yoxud tugatilishiga taalluqli emas.

18-modda. Sug‘urtalovchilarни qayta tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari

Sug‘urtalovchilarni qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish, o‘zgartirish shaklida qayta tashkil etish maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Sug‘urtalovchi qayta tashkil etishga ruxsatnomaga olish uchun maxsus vakolatli davlat organiga tegishli ariza bilan birga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- muassislarining (ishtirokchilarining) yoki ta'sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan sug'urtalovchi boshqaruv organining qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori;
- tuzilayotgan sug'urtalovchining balansi va faoliyatining taxminiy moliyaviy natijalari;
- qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shartnomasining loyihasi (qo'shib yuborish yoki qo'shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda).

Sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishni o'tkazish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko'rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to'g'risida sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berishni rad qilishga haqli, agar:

- sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish natijasida ularning moliyaviy barqarorligiga doir talablar buzilishi mumkin bo'lsa;

(18-modda beshinchi qismining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrdagi O'RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda).

- sug'urtalovchilarning qayta tashkil etilishi sug'urta bozorida raqobatning cheklanishiga yoki bartaraf etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

– sug'urtalovchilarni qayta tashkil etishga ruxsatnoma berilishi so'rab taqdim qilingan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar bo'lsa yoxud bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo'lsa;

- sug'urtalovchilarni qayta tashkil etish qonun hujjatlariga zid bo'lsa.

Qo'shib yuborish, bo'lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilganda sug'urtalovchi (sug'urtalovchilar) litsenziyasi-

ning amal qilishi tugatiladi. Qayta tashkil etish natijasida yangitdan tuzilgan sug‘urtalovchilarga litsenziyalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qo‘shib yuborish, bo‘lish va ajratib chiqarish shaklida qayta tashkil etilayotgan davr uchun hamda yangitdan tuzilgan sug‘urtalovchilar litsenziya olguniga qadar bo‘lgan davrda ular yangi sug‘urta shartnomalarini tuzishga, amaldagi sug‘urta shartnomalarini uzaytirishga haqli emas, ilgari tuzilgan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z zimmalariga olingan, huquqiy vorislik tartibida o‘zlariga o‘tgan majburiyatlarni bajarish hollari bundan mustasno.

(18-moddaning oltinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-267-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

Qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etilayotganda o‘ziga boshqa sug‘urtalovchi qo‘shilayotgan sug‘urtalovchi, agar qo‘shib olish natijasida litsenziyaning shartlari o‘zgarmasa, amaldagi litsenziyani saqlab qoladi.

O‘zgartirish shaklida qayta tashkil etilganda sug‘urtalovchining litsenziyasi qayta rasmiylashtiriladi.

(18-modda O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-267-sonli Qonuniga muvofiq sakkizinchchi qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2010-y., 50-son, 471-modda)

19-modda. Sug‘urtalovchilarni tugatishning o‘ziga xos xusiyatlari

Sug‘urtalovchi o‘zining muassisleri (ishtirokchilar) yoki sug‘urtalovchining ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruvi organi qaroriga binoan tugatilayotganda maxsus vakolatli davlat organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Muassisler (ishtirokchilar) yoxud sug‘urtalovchining ta’sis hujjatlarida shunday vakolat berilgan boshqaruvi organi tomonidan

tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan keyin sug‘urtalovchi maxsus vakolatli davlat organiga tugatishga ruxsatnoma olish uchun ariza bilan yozma ravishda murojaat etgan holda quyidagi hujjatlarni ilova qiladi:

- sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi qaror;
- majburiyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;
- sug‘urtalovchini tugatish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan sanagacha bo‘lgan, auditorlik xulosasi bilan tasdiqlangan balans hisoboti;
- sug‘urtalovchini tugatish muddatlari va shartlari ko‘rsatilgan holdagi tugatish rejasি.

Sug‘urtalovchini tugatishga ruxsatnoma olish uchun berilgan ariza zarur hujjatlar olingan kundan e‘tiboran o‘n kun ichida maxsus vakolatli davlat organi tomonidan ko‘rib chiqilishi kerak.

Maxsus vakolatli davlat organi qabul qilingan qaror to‘g‘risida sug‘urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shart.

Maxsus vakolatli davlat organi sug‘urtalovchini tugatish uchun ruxsatnoma berish bilan bir vaqtda sug‘urtalovchining taqdim etilgan tugatish rejasiga o‘zgartishlar kiritishga haqli.

Maxsus vakolatli davlat organi quyidagi hollarda sug‘urtalovchini tugatishga ruxsatnoma berishni rad etishga haqli, agar:

- tugatish natijasida sug‘urta qildiruvchilarning hamda sug‘urtalovchi kreditorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilsa;
- sug‘urtalovchini tugatishga ruxsatnoma berilishi uchun taqdim etilgan hujjatlarda ishonchsiz ma‘lumotlar bo‘lsa yoki bu hujjatlar qonun hujjatlariga nomuvofiq bo‘lsa.

20-modda. Tugatilayotgan sug‘urtalovchi kreditorlarining talablarini qanoatlantirish navbatи

Tugatilayotgan sug‘urtalovchi kreditorlarining talablari tugatishni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek, tugatiladi-

gan sug‘urtalovchining asosiy vazifalarini ta’minlash zaruratidan kelib chiqadigan xarajatlar to‘langanidan so‘ng quyidagi tartibda qanoatlantiriladi:

- birinchi navbatda – hayotni sug‘urta qilish sohasida majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilarining talablari;
- ikkinchi navbatda – sug‘urta qildiruvchilarining boshqa majburiy sug‘urta shartnomalari bo‘yicha talablari;
- uchinchi navbatda – boshqa sug‘urta qildiruvchilarining (naf oluvchilarining) talablari;
- to‘rtinchi navbatda – budgetga, budgetdan tashqari fondlarga to‘lovlarni nazarda tutuvchi to‘lov (ijro) hujjatlari bo‘yicha talablari. Ko‘rsatilgan talablar to‘liq qanoatlantirilgandan keyin ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha talablar hamda jinoyat yoki ma’muriy huquqbuzarlik tufayli fuqarolarning mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash bo‘yicha talablari qanoatlantiriladi;
- besinchi navbatda – sug‘urtalovchining boshqa kreditorlari talablari.

21-modda. Sug‘urtalovchining sug‘urta zaxiralari

Qabul qilingan sug‘urta majburiyatlar bajarilishini ta’minlash uchun sug‘urtalovchilar ham so‘mda, ham chet el valutasida to‘langan sug‘urta mukofotlaridan maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan tartibda va shartlarda sug‘urta zaxiralarini shakllantirilalar hamda joylashtiradilar.

Sug‘urtalovchining sug‘urta zaxiralariga mos keluvchi aktivlari olib qo‘yilishi mumkin emas.

22-modda. Sug‘urtalovchilar to‘lov qobiliyatining kaflatlari

Sug‘urtalovchilar ayrim tavakkalchiliklar bo‘yicha yo‘l qo‘yiladigan eng ko‘p miqdordan va majburiyatlar jamingning yo‘l qo‘yil-

adigan eng ko'p miqdoridan ortiq majburiyatlarni o'z zimmalariga olishlari mumkin emas, ularning bu majburiyatlarni bajarish qobiliyati to'lovga qobiliyatllilik normativlariga va moliyaviy barqarorlikning boshqa talablariga muvofiq qayta sug'urta qilingan hollar bundan mustasnodir. Sug'urtalovchilar O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda qayta sug'urta qilishga haqlidirlar.

(22-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda).

23-modda. Sug'urtalovchilar buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari

Sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadilar.

24-modda. Monopolistik faoliyatga yo'l qo'yilmasligi

Sug'urta bozorida raqobatni cheklash yoki bartaraf etishga, bir sug'urtalovchilarga boshqalariga qaraganda asossiz afzalliklar berilishiga yoki olinishiga, sug'urta qildiruvchilar va boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishiga qaratilgan faoliyatga yo'l qo'yilmaydi.

Sug'urta bozorining professional ishtirokchilariga o'z uyushmlari (ittifoqlari) va boshqa birlashmalaridan sug'urta bozorini monopolashtirishga qaratilgan bitimlarga erishish yo'lida foydalananish taqiqlanadi.

(24-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda).

25-modda. Axborot olish huquqi

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, tibbiyot, seymologiya, veterinariya, gidrometeorologiya tashkilotlari hamda boshqa tashkilotlar sug'urtalovchilarining va adjasterlarning so'roviga ko'ra sug'urta hodisalarining ro'y berishi sabablari hamda holatlarini, shuningdek, sug'urta tovoni (sug'urta puli) miqdorlarini sug'urtalovchi va adjaster tomonidan aniqlash uchun zarur bo'lgan tegishli axborot va hujjatlarni taqdim etishi shart.

(25-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Maxsus vakolatli davlat organi sug'urta bozorining professional ishtirokchilaridan qabul qilingan pul mablag'lari va majburiyatlarining miqdorlari haqidagi axborotni, shuningdek, boshqa axborotni o'z vakolati doirasida talab qilib olishga haqli. Bunday axborotni talab qilib olish yozma ravishda, so'rov sabablari ko'rsatilgan holda amalga oshirilmog'i lozim.

(25-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O'RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O'RQHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

Maxsus vakolatli davlat organi o'zi olgan axborotning sir tutilishiga rioya etishi shart, axborotning oshkor qilinishi qonunda ruxsat etilgan hollar bundan mustasno.

26-modda. Sug'urta siri

Sug'urta qildiruvchilar, sug'urtalangan shaxslar va naf oluvchilar, sug'urta qildiruvchilarining va sug'urtalangan shaxslarning sog'lig'i, sug'urtalangan mol-mulk, sug'urta puli, bank hisobvaraqlari mavjudligi, ushbu hisobvaraqlardagi pul qoldiqlari va pul harakati haqidagi ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin emas.

Sug'urta faoliyatini amalga oshirishning umumi shartlari, tasiya etilayotgan sug'urta bitimlari va operatsiyalarining ro'yxati,

sug‘urta tariflari, sug‘urta turlari hamda muddatlari ochiq axborot bo‘lib, sug‘urta siri predmeti bo‘lishi mumkin emas.

(26-modda O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 14-sentabr-dagi O‘RQ-108-sonli Qonuni asosida ikkinchi qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2007-y., 37–38-son, 376-modda).

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ma’lumotlar sug‘urta qildiruvchi, shuningdek, sug‘urtalangan shaxslar va naf oluvchilar o‘zlariga taalluqli ma’lumotlarga doir yozma rozilik ber-ganda uchinchi shaxslarga oshkor qilinishi mumkin.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar sug‘urta qildiruvchining roziliği olinmagan holda sug‘urtalovchi tomonidan Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasiga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

(26-modda O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 21-apreldagi O‘RQ-156-sonli Qonuni asosida to‘rtinchi qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2008-y., 17-son, 129-modda)

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan ma’lumotlar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar sug‘urta qildiruvchilarning roziliğini olmagan holda sug‘urtalovchilar tomonidan sudga, prokurorga, qo‘zg‘atilgan jinoyat ishi mavjud bo‘lgan taqdirda esa, surishtiruv va tergov organlariga, sudning undiruvni sug‘urta qildiruvchining mol-mulkiga qaratish yoki bu mol-mulkni xatlash haqidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo‘lgan taqdirda, sud ijrochilariga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

(26-moddaning beshinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda).

Tuzilgan sug‘urta shartnomalari va amalga oshirilgan hisob-kitoblar to‘g‘risidagi ma’lumotnomalar sug‘urta qildiruvchi jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda quyidagilarga beriladi:

- sug‘urta qildiruvchi o‘z vasiyatnomasida ko‘rsatgan shaxsga;
- sud va notariusga – ularning ish yurituvida bo‘lgan merosga oid ishlar bo‘yicha sudning qarori yoki notariusning o‘z muhri bilan tasdiqlangan yozma so‘rovi asosida. Notariusning yozma so‘roviga sug‘urta qildiruvchi vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi ilova qilingan bo‘lishi kerak;
- konsulga uning ish yurituvida bo‘lgan merosga oid ishlar yuzasidan.

Sug‘urtalovchilar va sug‘urta vositachilari pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog‘liq operatsiyalar to‘g‘risidagi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bilan bog‘liq bo‘lgan axborotni qonun hujjatlarida nazarda tuwilgan hollarda va tartibda maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etadi.

(26-modda O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 22-sentabr-dagi O‘RQ-223-sonli Qonuniga asosan yettinchi qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2009-y., 39-son, 423-modda)

Tuzilgan sug‘urta shartnomalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kredit byurolariga taqdim etiladi.

(26-modda O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuniga asosan sakkizinch qism bilan to‘ldirilgan – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

27-modda. Chet el sug‘urta tashkilotlarining faoliyati

Chet el sug‘urta tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik shaxslar – sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining muassisleri (ishtirokchilari) bo‘lishlari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el sug‘urta tashkilotlari tomonidan sug‘urta amalga oshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

(27-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 11-apreldagi O‘RQ-323-sonli Qonuni tahririda – O‘R QHT, 2012-y., 15-son, 165-modda)

28-modda. Nizolarni hal etish

Sug‘urta faoliyati sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

29-modda. Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ni buzganlik uchun javobgarlik

Sug‘urta faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti
I. KARIMOV**

Toshkent sh.,

2002-yil 5-aprel

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. 1996-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining «Transport vositalari egaralining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2008-yil 21-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi Qonuni. 2009-yil 16-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. 2002-yil 28-may (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar sog'ligrini saqlash to'g'risida»gi Qonuni. // www.Lex.uz.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2006–2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-325-soni Qarori. 2006-yil 17-aprel.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-618-soni Qarori. 2007-yil 10-aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida 2010-yilgacha bo'lgan davrda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori. drt82007-yil 21-may.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urta xizmatlari bozorini yanada isloh qilish va rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-872-sonli Qarori. 2008-yil 21-may.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2011–2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida»gi PQ-1438-sonli Qarori. 2010-yil 26-noyabr.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug'urtachilarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1544-sonli Qarori. 2011-yil 31-may.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida»gi 141-sonli qarori...

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi «O'zbekiston Respublikasining Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 177-sonli qarori. 2009-yil 24-iyun.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari

14. *Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.* – T.: O'zbekiston, 2010.

15. *Karimov I.A. Eng Asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish.* – T.: O'zbekiston, 2009.

16. *Karimov I. A. «Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida»* – T.: «O'zbekiston», 2011.

17. Prezident I.Karimovning 2014-yil 17-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasining 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'islangan majlisidagi ma'ruzasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2014-yil 21-yanvar.

IV. Asosiy adabiyotlar

18. Годин А.М., Фрумина С.В. Страхование: учебник. – М.: изд-во «Дашков и К», 2009.
19. Страхование: учебник/Под ред. Проф. Т.А.Федоровой. – СПб.: Магистр , 2008.
20. Страхование: учебник для студентов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит». Под.ред.В.В.Шахова. – М.: изд-во «ЮНИТИ-ДАНА», 2009.
21. Ochilov I., Sultonov D. Sug‘urta hisobi va hisoboti. O‘quv qo‘llanma. –Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2010.
22. Shennaev X.M. «Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma». – Т.: «PRINTXPRESS», 2010.
23. Shennaev X.M., Kenjaev I.G. Chet mamlakatlar sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma. – Т., 2012.
24. Shennaev X.M., Xalikulova G.T. «Tashqi iqtisodi faoliyatda sug‘urta. O‘quv qo‘llanma». – Т., 2012.
25. Shennaev X.M., Xalikulova G.T. Sug‘urta marketingi. O‘quv qo‘llanma. – Т., 2012.
26. Shennaev X.M. «O‘zbekiston sug‘urta bozori». O‘quv qo‘llanma. – Т., 2013.
27. Самарова Е. Страховая математика: практический курс. Учебное пособие. – М.: «ИНФРА-М », 2009.
28. Страхование. Учебник / под ред. Т.А.Федоровой. – М.: «Магистр», 2009.
29. Рыбин В. «Основы страхования». Учебное пособие. – М.: «КНОРУС », 2010.
30. Никулина Н. Страховой маркетинг. Учебное пособие. – М.: «ЮНИТИ–ДАНА», 2009.
31. Никулина Н. Страхование. Учебное пособие. – М.: «ЮНИТИ–ДАНА», 2008.
32. Сербеновский Б. Страховое дело. Учебное пособие. – Ростов н/Д: «Феникс», 2010.

33. Страхование: экономика, организация, управление. Учебник. – М.: «Экономика», 2010.

34. Страхование: учебник для студентов, обучающихся по специальностям «Финансы и кредит», «Бухгалтерский учет, анализ и аудит» / под. ред. В.В.Шахова, Ю.Т. Ахвledиани. – М.: «ЮНИТИ – ДАНА», 2010.

V. Qo'shimcha adabiyotlар

35. Гаврилова С. Страхование: Учебное пособие. – М.: «Эксмо», 2010.

36. Галаганов В. Основы страхования и страхового дела: учебное пособие. – М.: «КНОРУС », 2010.

37. Денисова И. Страхование. Учебник. – М.: ИКЦ «МарТ», 2009.

38. Игошин Н. Страховое право. Учебное пособие. – М.: «ЮНИТИ–ДАНА», 2010.

39. Короткова Ю.Е. Краткий курс по страхованию. Учебное пособие. – М.: Изд. «Окей – книга», 2010.

40. Кузнецова И. Страхование жизни имущества граждан. Практическое пособие. – М.: «Дашков и К », 2010.

41. Iqtisodiyot nazariyasi muammolari: talqini va echimlari mavzusidagi Respublika Oliy o'quv yurtlararo ilmiy-amaliy anjumaniga materiali. Toshkent moliya instituti, 2013.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

42. G.Xalikulova. «EI sug'urta bozorini rivojlantirish tendensiyalari». // «Biznes Expert» jurnali, 2014.

43. N.Mavru洛va. O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozori: rivojlabish tendensiyalari va istiqbollari.// «Moliya» jurnali, 2014.

44. Экономическое обозрение // № 3 (160), 2013.

45. Бизнес вестник Востока. / 15–16-may, 2013.

46. Ochilov I. Sug'urta tashkilotlarining investitsiya faoliyati hisobini takomillashtirish.// «Moliya» ilmiy jurnali. 2013.

47. Khalikulova G. «Importance of reinsurance for financial stability of insurance companies» The advanced science journal Volume 2013,

45. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

46. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari.

47. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari

48. <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

49. <http://www.UzReport.com> («SAIPRO» axborot-reyting agentligi).

50. <http://www.agros.uz> (O'zagrosug'urta davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi).

51. <http://www.uzbekinvest.uz> (O'zbekinvest export-import milliy sug'urta kompaniyasi).

52. <http://www.kafolat.uz> (Kafolat davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi).

53. <http://www.alfainvest.uz> (Al'fa invest sug'urta kompaniyasi).

54. <http://www.alskom.uz> (ALSKOM sug'urta kompaniyasi).

55. <http://www.kapitalsugurta.uz> (Kapital sug'urta sug'urta kompaniyasi).

56. <http://www.allinsurance.ru> (Sug'urta to'g'risidagi sayt).

57. <http://www.expert.ru> (Reyting agentligi sayti).

58. <http://www.ankil.ru> (Konsalting firmasi sayti).

59. <http://www.znay.ru> (Sug'urta to'g'risidagi sayt).

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

I BOB

XALQARO SUG'URTA BOZORI VA UNING TASHQI IQTISODIY MUNOSABATLARDAGI O'RNI

1.1-§. Xalqaro sug'urta bozori va uning jahon iqtisodiyoti rivojlanishidagi o'rni	5
1.2-§. Xalqaro sug'urta bozori rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'tsatkichlar: sug'urta mukofotining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, sug'urta mukofotlarining aholi jon boshiga taqsimoti va boshqalar.....	7
1.3-§. Xalqaro sug'urta bozorini tartibga soluvchi institutlar, normalar va standartlar	18

II BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SUG'URTANING ZARURLIGI VA UNING IQTISODIY MOHIYATI

2.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urtaning rivojlanishi	23
2.2-§. Xalqaro sug'urta hamjamiyati va u bilan hamkorlik qilish natijalari.....	26

III BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SUG'URTA TURLARI

3.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda mulkiy sug'urta bilan bog'liq sug'urta turlari.....	32
---	----

3.2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda shaxsiy sug'urta bilan bog'liq sug'urta turlari.....	34
3.3-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda javobgarlik sug'urtasi bilan bog'liq sug'urta turlari	38

IV BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SUG'URTA RISKLARI VA ULARNING TASNIFI

4.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta risklari turlari	47
4.2-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sug'urta risklarini boshqarish.....	49

V BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SAVDO YUKLARINI SUG'URTALASH

5.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda savdo yuklarini sug'urtalashni amalga oshirish tartibi	54
5.2-§. Yuklarni sug'urtalashda xalqaro savdo palatasi talablari.....	60

VI BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA EKSPORT KREDITLARINI SUG'URTALASH

6.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda kreditni qaytarmaslik riskini sug'urtalash.....	70
6.2-§. Eksport kreditlarini sug'urtalashning tamoyillari.....	75

VII BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INVESTITSIYA BILAN BOG'LIQ RISKNI SUG'URTALASH

7.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda investitsiya bilan bog'liq riskni sug'urtalashning ahamiyati	83
7.2-§. Investitsiya riskini sug'urtalovchi xalqaro tashkilotlar	86

VIII BOB

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA BOSHQA SUG'URTA TURLARI VA ULARNING SHARTLARI

8.1-§. Tashqi iqtisodiy faoliyatda boshqa sug'urta turlari	95
8.2-§. Xalqaro iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda qayta sug'urtalashning roli	99

O'zbekiston Respublikasining Qonuni	
Sug'urta faoliyati to'g'risida.....	114
Foydalanilgan adabiyotlar.....	152

**Xo'jayor Musurmonovich Shennayev
Gulzada Tadjimuratovna Xalikulova
Ilyos Xurshidovich Abdurahmonov**

**TASHQI IQTISODIY
FAOLIYAT SUG'URTASI**

Oliy o'quv yurtlari talabalar uchun darslik

Muharrir	<i>Sherzod Qurbanov</i>
Badiiy muharrir	<i>Sardor Kurbanov</i>
Texnik muharrir	<i>Yelena Tolochko</i>
Musahhih	<i>Zulfiya G'ulomova</i>
Sahifalovchi	<i>Sherali Rustamov</i>

Litsenziya raqami AI № 163. 09. 11. 2009. Bosishga 2014-yil 25-sentabrda
ruxsat etildi. Bichimi $60 \times 84 \frac{1}{16}$. Ofset qog'azi. «Times New Roman»
garniturasi. Sharli bosma tabog'i 9,30. Nashri bosma tabog'i 7,94. Adadi 300
nusxa. Sharhnomasi № 66-2014. Buyurtma № 842.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-
matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jami-
yati bosmaxonasida chap etildi. Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.